



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI**

**UMUMIY O'RTA TA'LIMNING
MILLIY O'QUV DASTURI:
ADABIYOT O'QITISH METODIKASI
(METODIK QO'LLANMA)**

Toshkent-2020

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
Respublika ta’lim markazi

UMUMIY O‘RTA TA’LIMNING
MILLIY O‘QUV DASTURI:
O‘QITISH METODIKASI
(METODIK QO‘LLANMA)



Toshkent-2020

UDK:

KBK:

Tuzuvchilar: Zulxumor Mirzayeva, f.f.d., Komil Jalilov

Umumiy oʻrta taʼlimning milliy oʻquv dasturi: oʻqitish metodikasi (oʻqituvchi qoʻllanmasi). Toshkent: "...", 2020. - ..bet.

ISBN

UDK:

KBK:

Mazkur qoʻllanma umumiy oʻrta taʼlim maktablarida Milliy oʻquv dasturni zamonaviy yondashuvlar asosida joriy etish, ilgʻor xalqaro va xorijiy tajribalar, kompetensiyaviy yondashuv asosida oʻsib kelayotgan yosh avlodni maʼnaviy-axloqiy va intellektual rivojlantirish, oʻquv-tarbiya jarayoniga madaniy savodxonlik va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirishga yoʻnaltirilgan innovatsion shakllar va metodlarni joriy etish, yoshlarning turli vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarini mustaqil hal etishni oʻrgatishga qaratilgan taʼlimning motivasion va innovatsion yechimlarini qoʻllash maqsadida taʼlim sifatini oshirishga erishish boʻyicha metodik tavsiyalar yoritilgan.

Qoʻllanma umumiy oʻrta taʼlim maktablari oʻqituvchilari, rahbarlari, hududiy xalq taʼlimi boshqaruv organlari metodistlari, pedagogika yoʻnalishidagi oliy taʼlim muassasalari talabalari va keng jamoatchilik uchun moʻljallangan.

Masʼul muharrirlar:

Taqrizchilar:

Xalq taʼlimi vazirligi huzuridagi Respublika taʼlim markazi Ilmiy kengashining 2020 yil dagi №...qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

ISBN...

MUNDARIJA

Kirish	5
I Adabiy ta'limga innovatsion yondashuv – davr talabi	6
II Adabiyot o'qitish metodikasiga konseptual yondashuv	11
III Badiiy asar matni bilan ishlashning interfaol usullari	34
IV Darsni rejalashtirish. O'quvchilarni fanga qiziqtirish	44
V Adabiyot darslarida o'quvchilarning kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirish (Blum taksonomiyasi asosida)	56
VI Adabiy ta'limda integrativ yondashuv (Gardnerning "Turfa zakovatlar" nazariyasi misolida)	61
VII Metod va texnologiyalar asosida namunaviy dars ishlanmalari	66

KIRISH

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da “Uzluksiz ta’lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi” – deb ta’limni tubdan isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan. Dasturda umumiy o‘rta ta’limning asosiy vazifalaridan biri sifatida: “Ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish va o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta’minlash” kabi yo‘nalishlar belgilab qo‘yilgan. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlarni o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, yaqin vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘qituvchi o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining unumdorligini, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini, bilimga ishtiyoq va qiziqishlarini oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi asosiy shaxsga aylanadi, shuning uchun zamonaviy o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlarning o‘rni va roli benihoya kattadir.

Ushbu qo‘llanmada ta’limi rivojlangan mamlakatlarda tajriba sinovidan o‘tgan adabiyot darslarida qo‘llash mumkin bo‘lgan konseptual yondashuvlar, badiiy asar tahlilidagi interfaol usullar va texnologiyalar xususida ma’lumot berib, ularning amaliyotga tatbiq etish usullari xususida tavsiyalar, namunalar beriladi.

I BOB

ADABIY TA'LIMGGA INNOVATSION YONDASHUV – DAVR TALABI

Bugun yurtimizda kichik bir sohadan tortib xalq turmushi farovonligi uchun muhim bo'lgan yo'nalishlardagi o'zgarishlar, islohotlar shiddat bilan amalga oshirilayotirki, shu Vatanga qondosh har qanday millat kishisi bunday tarixiy o'zgarishlarga loqayd qarab turolmaydi.

Davlatimiz rahbari istiqboldagi taraqqiyotning kafolati ilm ahli va ziyolilar faoliyati bilan chambarchas bog'liq ekanini har bir uchrashuv, murojaatlarida ta'kidlab, uning rivojlanishi, taraqqiy etishi uchun bir qancha qaror va farmonlarni qabul qildi. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha HAKIKATLAR STRATEGIYASI" da ham ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, ta'lim sohasidagi innovatsiya yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlari belgilab berildi. Bunday islohotlar, ayniqsa yoshlarning maqsadli harakatlariga rag'bat berish barobarida o'z kuchiga ishonish hissini ham uyg'otdi.

Bugungi kunda adabiyot o'qitish metodikasini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishda keksa va o'rta avlod vakillarining uzoq yillik tajribasi va zamonaviy dunyoqarashga ega yoshlarning xalqaro miqyosdagi bilimlari uyg'unligiga asoslangan yondashuv muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Zotan, bugun milliy adabiy ta'limda ham ustozlarimizning tajriba sinovlaridan, chig'iriqlaridan o'tib o'zini oqlagan, o'zbekona ruh, tarbiya, milliy tutum asosiga qurilgan metod va usullar, an'anaviy yondashuvlar ham mavjudki ular uzoq yillar o'z samarasini berib kelmoqda. Ammo afsuski, bugun samarali yondashuvlar qatorida adabiyot o'qitishni qandaydur qoliplarga solib qo'yayotgan, adabiy ta'limda mohiyatga emas, balki shaklga asoslangan stereotip metodlar, texnologiyalar ham paydo bo'lganki, ularning "joziba"si, ayniqsa, ijodkorlik qobiliyati bo'lmagan, tajribasiz, yosh pedagoglarni o'z domiga tortib ketmoqda. Shunday ekan, yuqorida ta'kidlanganidek, bugun boshqa sohalar qatorida

adabiy ta'limda uzoq yillar samara bergan metod va usullar, an'anaviy yondashuvlarni saqlagan yoki rivojlantirgan holda global ta'lim metodlaridan milliy strategik maqsadlarimizga moslarini tanlab, ularni bosqichma-bosqich joriy qilish orqali adabiyot o'qitish metodikasini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish vaqti keldi. Zotan, adabiy ta'limning ilmiy va metodik asoslarini bugungi nuqtai nazar, milliy va jahoniy tafakkur uyg'unligida, yangicha tartibda yaratish orqali o'quvchilarnig ham adabiyotga, kitobxonlikka munosabatini o'zgartirish darkor. Holbuki, bugun umumiy o'rta ta'lim tizimidagi adabiyot darslari aksar holatlarda o'quvchining hayotiy ehtiyojini qondirish, uni hayotga tayyorlash, o'z tafakkuri, tasavvuri, didi, saviyasi, umuman, ma'naviy qarashlarini yuksaltirish emas, balki oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun bo'ladigan test sinovlariga tayyorgarlik nuqtai nazaridan o'qitilayotgani hech kimga sir emas. Modomiki, bugungi murakkab globallashuv sharoitida ma'naviyatimizni izdan chiqarish maqsadida xorijdan o'zanini yo'qotgan, selday oqib kelayotgan zararli g'oyalarga qarshi faqat milliy badiiy adabiyotgina immunitet hosil qila olishi mumkin ekan, shuning uchun bolalarimizda adabiyotga muhabbatni juda erta yoshdan singdirish lozim.

Uzliksiz ta'lim bosqichlarida o'quvchilar adabiyot olamiga "O'qish kitobi" orqali kirib keladilar. So'ng bosqichma-bosqich, asta-sekinlik bilan o'z dunyoqarashi, tafakkuri, badiiy so'z sehrini anglashga bo'lgan iqtidoriga ko'ra adabiyotning cheksiz ummonlariga g'arq bo'ladilar.

Bugungi o'quvchi dunyoqarashi, fikrlashi, voqelikka munosabati nuqtai nazaridan kechagidan farq qiladi. Tezkor axborot almashish zamonida, virtual olamda ulg'ayayotgan o'quvchi bugun adabiy ta'limning qolipga solingan, stereotip fikrlar, hokim qarashlar, o'zlariga tanish ma'lumtolarni qayta bayon qilib berishdek eskicha, qolipga solingan yondashuvlari bilan murosa qilolmaydi. Agar adabiyot o'quvchilar (o'rganuvchilar) tasavvurida ularning hayotiy ehtiyojlari o'laroq tasavvur hosil qilmas ekan, u zerikarli va quruq g'oyalar majmui bo'lib qolaveradi.

Ingliz metodist olimlari Elli Chambers va Marshal Gregoriy “bugun badiiy asarlarni o‘rganish avvalgidek “buni to‘g‘ri deb qabul qil” (*to get it right*) mezonlariga to‘g‘ri kelmaydi. Holbuki, bugungi o‘quvchi badiiy asar haqidagi **mustaqil talqinlarini** bemalol, o‘z dunyoqarashi, fikrlash, tafakkur darajasiga ko‘ra bayon qila olish imkoniga egadirlar. Ammo ko‘p holatlarda o‘qituvchining magistral (qonuniy) huquqi o‘quvchining erkin fikrlariga daxl qilib, uni “**buni to‘g‘ri deb qabul qil**” kabi mezonlarga ergashishga majbur qiladi. Oqibatda asar mohiyati o‘quvchilarning fikri, idroki va anglovidan chiqarilgan xulosalar emas, balki o‘qituvchining yoki adabiyot darsligi mualliflarining shaxsiy qarashlaridan paydo bo‘lgan yagona xulosani tashkil etadi.

Ingliz metodist olimlarining badiiy asar tahlilidagi qoliqlangan yondashuvlar haqidagi tanqidiy fikrlari bugun uzliksiz ta‘lim bosqichlaridagi adabiyot darsliklaridagi “asar haqida” degan bo‘limni eslatib yuboradi. Chunki badiiy asar haqidagi muallif (yoki mualliflar) o‘z idroki hosilasi o‘laroq namoyon bo‘lgan xulosalari “asar haqida” da aks etadi va bu biz yuqorida qayd etgan “buni to‘g‘ri deb qabul qil” yondashuviga olib keladigan dastlabki faktorlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. “Asar haqida”gi ma‘lumotning o‘quvchi ongiga singishi, uni “to‘g‘ri deb qabul qilishi” mavjud ma‘lumotning dominant (yetakchi) lik xususiyati undagi “boshqacha bo‘lishi mumkin” degan qarashiga mone‘lik qiladi yoki eng kamida o‘quvchini fikrlashdan to‘xtatadi. O‘quvchilarda badiiy asarni tushunish darajasini baholash ham huddi matn tahlilidagi kabi o‘ta zerikarli, adiblarning hayoti, ijodi haqidagi faktologik ma‘lumotlarni, asar syujetidagi muayyan detallarni eslab qolish kabi o‘quvchining tafakkuri, tasavvurini yuksaltirmaydigan, aksincha, badiiy didi va saviyasiga zang tushiradigan usullar orqali tekshirildi. Oqibatda, o‘quvchilarda “adabiyot, asar o‘qish, tahlil qilish faqat shunday ikir-chikirlarni esda saqlashdan iborat” degan munosabatni shakllantirdi.

Bugungi yoshlar virtual olamda ulg‘ayaptilar. Virtual, texnika olamining bir qancha ijobiy xislatlari barobarida uning salbiy oqibatlarini ko‘plab balog‘at yoshidagi farzandlarimizni “siylab” o‘tayotgani ham ma‘lum haqiqat.

O‘quvchilar ulg‘aygan sari ularning ruhiyati va dunyoqarashida ham muayyan o‘zgarishlar kuzatiladi. Ana shunday o‘zgarish bosqichlarida o‘quvchilar umid va umidsizlik, topish va yo‘qotish, sevgi va nafrat, sadoqat va hiyonat, qadriyat, insoniylik kabi masalalar mohiyatini to‘g‘ri va atroflicha anglashga ehtiyojmand bo‘ladilar. Ko‘pchiligi esa “pul hamma narsani hal qiladi” qabilidgi noto‘g‘ri qarashlarga ergashib boshi berk ko‘chalarga kirib qoladi. Moddiylik g‘am-alamni, gunohni, yo‘qotishlarni, umidsizlik bilan bog‘liq muammolarni hal qila olmasligini anglashda esa ulardagi hayotiy tajriba yetmaydi. Mana shunday davrda ular ongidagi ma‘naviy bo‘shliqni adabiyot to‘ldiradi. Adabiyot ularga najot quroli bo‘lib xizmat qiladi. Zotan, inson huquqlarini ilk bora himoya qilish va ularni zalolatdan qutqarish maqsadida nozil bo‘lgan Ollohning kalomi QUR‘ONI Karim yaratilgan davrdan boshlab so‘z san‘ati insoniyatning og‘ir kechmishi, qirg‘in va halokatida, unga ozodlik, erkinlik, o‘zlikni anglash kabi eng ulug‘ tuyg‘ularni in‘om etib, muallimlik qilganligi isbotlangan. Hayot hech kimga **“qanday qilib”** degan savolga javob bermaydi, shuningdek inson muammolarining yechimiga ko‘rsatmalar berish imkoniga ham ega emas. Qolaversa, turli xil tur va janrlarga xos badiiy asar namunalari, jumladan, roman, hikoya yoki drama ham bugun yoshlarimizni o‘rab olayotgan muammolarni to‘laqonli bartaraf etish kuchiga ega emas. Aniqroq qilib aytganda, adabiyot davolash shakli emas, ammo ***o‘rganish vositasidir***. Chunki asarlarda savob va gunohlar, hayotiy yo‘qotishlar, adolat, yaxshilik, yomonlik va yana bir qancha umuminsoniy xususiyatlar aks etgan voqea hodisalar bayon qilinadi. Keng doiradagi nuqtai nazarlar, kontsepsiyalar, munosabatlar, tushunchalar eshigini ochadiki, badiiy asarda aks etgan voqea-hodisalar orqali o‘quvchi eng kamida o‘zini taftish etish, tahlil qilish majburiyatini his qiladi, hayot haqidagi chalkash

tushunchalarning asl mohiyatini anglaydi. O‘zi sevib, ma’naviy, hayotiy ehtiyoji o‘laroq mutolaa qilgan badiiy asar namunasi va undan olgan xulosalari o‘quvchining hayot haqidagi qarashlarini, tushunchalarini tartibga solishda, to‘g‘ri tushunchalar strategiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asar orqali o‘quvchi yangi dunyoni ko‘rishni o‘rganadi.

Qo‘lingizdagi adabiyot o‘qitish metodikasi va metodologiyasining nazariy asoslarini yaratishga, mavjudlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan mazkur qo‘llanmada:

1. Badiiy asar bilan ishlash bosqichlari
2. Badiiy asarni tushunishga qaratilgan strategiyalar
3. O‘quvchilarning badiiy asarni turli xil rakurslarda idrok qilish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan metod va texnologiyalar;
4. Va adabiyot fan sifatida emas, balki shaxsni shakllantirishdan iborat vazifasining birlamchi omil ekanligini dalillovchi konseptual yondashuvlar va ularning adabiyot darslariga tatbiq etilishi bilan bog‘liq amaliy ko‘rsatmalar, dars ishlanmalari aks etgan.

Adabiyot o‘qitishning sinovdan o‘tgan *konstruktivizm, bixevorizm, gumanizm kabi yangicha yondashuvlari, o‘rganish uslublariga xos klassifikatsiyalar*, badiiy tahlilga *kulturologik yondashuv*, badiiy tahlilda *metatil tushunchasi, tranzaksiya nazariyasi, ta’limda integrativ yondashuv nazariyalari, ta’limni individuallashtirish va personallashtirish* kabi ko‘plab yangi tushunchalar asosida shakllatirilgan metod, texnologiya va interfaol usullar umumo‘rta ta’limdagi adabiyot darslarini yangi o‘zanga burishga, ham shakl va ham mazmun jihatidan yuqori bosqichga oib chiqishiga, milliy metodikaga oid manbalarni boyitish hamda uni xalqaro standartlarga mos rivojlantirishda o‘ziga xos manba bo‘lib xizmat qiladi, deb umid qilamiz.

II BOB

ADABIYOT O‘QITISH METODIKASIGA KONSEPTUAL YONDASHUV

Bugungi kunda adabiyot o‘qitish metodikasi va metodologiyasini yaratish, uning nazariy asoslarini ishlab chiqishda o‘qitishning quyidagi **konseptual masalalarini** e’tiborga olish zarur:

1. O‘quvchilarning **ijodkorlik, faollik, fikrlash, mustaqil ishlash** qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan turli xil zamonaviy metodlardan foydalanish.

2. O‘quvchilarning asosiy e’tiborini adabiy figuralar biografiyasi, yozgan asarlari haqidagi ma’lumotlarni yodlashga emas, konkret asar tahlili orqali ularning milliy va jahon adabiyoti ravnaqida tutgan o‘rni haqida tushunchalarni shakllantirishga qaratish.

3. “Asar haqida” orqali o‘quvchilarga o‘rganilayotgan asarning tayyor talqinlarni singdirishdan voz kechish, muayyan savol va topshiriqlar vositasida o‘quvchilarning asarga **o‘z munosabatlarini** shakllantirish.

Bunday holatda savol va topshiriqlar o‘quvchilarni asarga qiziqtirishi, asar mazmunini tushunishga tayyorlashi, badiiy matnni tushunish — tahlil qilishga, mustaqil fikrlashga, badiiy asar ustida chuqur mushohada yuritishga yo‘naltirishi darkor. Demakki, badiiy asarni turli taraflama tushunish savolning kuchi va darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

4. Adabiyotning san’atning boshqa turlari, shuningdek, maktabda o‘rganiladigan boshqa fanlar bilan **integratsiyasini** ta’minlovchi metodlarni tavsiya qilish.

5. Badiiy asar tahlilida o‘quvchi **hayoti** bilan aloqasini ta’minlash, o‘quvchining adabiyotni shunchaki fan sifatida emas, balki hayotiy ehtiyoji sifatida qarashga asoslangan metodlarni ishlab chiqish.

Ushbu konseptual masalalarning hal etilishi adabiyot o‘qitish metodikasida jahonning ilg‘or, vaqt tajribasidan o‘tgan va sinalgan **nazariyalari va**

yondashuvlariga tayanishni taqozo qiladi. Bu nazariyalar va yondashuvlar quyidagilardir:

- konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalari;
- “o‘quvchi – faol” yondashuvi;
- “kitobxon javobi” nazariyasi;
- adabiyot o‘qitishda pragmatik yondashuv;
- Blum taksonomiyasi.

Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalari. “O‘quvchi – faol” yondashuvi

Konstruktivizm va **ijtimoiy konstruktivizm** nazariyalari rivojlangan davlatlar maktab ta’limida asosiy yondashuv sifatida muvaffaqiyatli qo‘llanilayotgan nazariyalardir. Bu nazariyalarning eng asosiy g‘oyalari quyidagicha:

- o‘quvchilar bilimni tayyor holda, passiv qabul qilmasliklari kerak;
- bilimlar ta’lim jarayonida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish o‘quvchilar tomonidan **“yaratilishi”, “kashf qilinishi”** lozim;
- bunda o‘quvchilarning **o‘zaro muloqoti** muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu nazariyalarga ko‘ra, darsning maqsadi ma’lumotlarni o‘quvchilarga singdirish emas, balki ularga bilimni o‘zlari hosil qilishlariga imkon yaratib berishdir. O‘qituvchining vazifasi esa tayyor bilimlarni bolalarga yetkazib berish, so‘zlab berish emas, balki o‘quvchilarning faoliyatini tashkil qilish va to‘g‘ri yo‘naltirishdan iborat bo‘ladi. Zero, XX asrning taniqli pedagog va psixolog olimi, konstruktivizm nazariyasining asoschilaridan biri Jan Piaje (*Jean Piaget*) aytganidek¹,

“maktabning asosiy vazifasi oldingi avlodlar yaratgan narsalarni shunchaki qaytarish emas, balki o‘zlari **yangi narsalar yaratishga, kashfiyotlar qilishga qodir, kreativ, tanqidiy fikrlay oladigan shaxslarni** tarbiyalashdan iboratdir”

¹ Qarang: Kohn, A. (2000) *The Schools Our Children Deserve: Moving Beyond Traditional Classrooms and Tougher Standards*, New York, NY: Houghton Mifflin Company.

Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalari asosida ta’limda “**o‘quvchi – faol**” yondashuvi (*student-centered learning*) yuzaga kelgan. Ushbu yondashuvning muhim xususiyatlari o‘qitishda o‘rganuvchi faolligini oshirish va ta’lim jarayonlarini individullashtirishdan iboratdir. “O‘quvchi – faol” yondashuvida keraksiz qog‘ozlar, ahamiyatsiz ta’limiy manbalarning kamayishi va eng muhimi – o‘rganuvchilarga allaqachon ma’lum bilimlarni qayta bayon qilish orqali vaqtni bekorga sovrish muammosi bartaraf etiladi.

Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalariga asoslangan ta’limning an’anaviy ta’limdan farqlarini quyidagi jadval va diagrammada ko‘rish mumkin:

An’anaviy ta’lim	Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizmga asoslangan ta’lim
O‘quvchilar asosan o‘qituvchidan va darsliklardan o‘rganishadi	O‘qitish uchun turli materiallardan (plakatlar, real hayotdan olingan obektlar va hokazo) foydalaniladi
Darsda asosiy rolni o‘qituvchi o‘ynaydi	Darsda o‘quvchilar faol, o‘qituvchi esa o‘quvchilarning faoliyatini tashkil qiladi
O‘quvchilar asosan o‘qituvchidan va darslikdan o‘rganganlarini qaytarishadi	O‘quvchilar turli vazifalarni bajarish va loyihalar ustida ishlash orqali o‘rganishadi
Mashqlar asosan o‘rganilgan ma’lumotlar qoidalarni mustahkamlashga qaratiladi	Topshiriqlar asosan real hayotda uchraydigan muammolarni yechishga qaratilgan
Odatda berilgan vazifalarning (mashqlarning) yagona to‘g‘ri javobi mavjud	Vazifalarga (topshiriqlarga) turlicha yondashish mumkin va har xil yechimlar taklif qilinishi mumkin
O‘quvchilar asosan individual ishlashadi	O‘quvchilar asosan juft-juft bo‘lib va guruhlarda ishlashadi
O‘quvchilarning boshqa fanlardan olgan bilimlari va hayotiy tajribasi odatda hisobga olinmaydi	O‘quvchilarning boshqa fanlardan olgan bilimlari faollashtiriladi , ularning hayotiy tajribasiga suyatiladi

“Kitobxon javobi” nazariyasi

Adabiy ta’limda “o‘quvchi – faol” yondashuvini tadbiiq qilish imkonini beradigan muhim nazariyalardan adabiyotshunoslikdagi **retseptiv (qabul qiluvchi) estetika** nazariyasi asosida shakllangan, xalqaro miqyosda ham sinovdan o‘tgan samarali yondashuv sifatida qo‘llanilib kelayotgan **“kitobxon javobi”** (*reader response*) nazariyasidir.

Reseptiv estetika so‘zi nemischadan “Rezeptions-Asthetik”, lotinchadan “retseptio” so‘zidan olingan bo‘lib, asarning kitobxon (o‘quvchi) tomonidan qabul qilinishidir. Badiiy asarni emotsional qabul qilishga yo‘naltirilgan bu yondashuvning asosini

MUALLIF ↔ ASAR ↔ KITOBXON

munosabatlari tashkil etadi.

Aniqroq qilib aytganda, bu yondashuv o‘quvchi va matn munosabatlariga, matnni estetik-emotsional qabul qilishning psixologik asoslarini kuzatish orqali har bir o‘quvchiga xos individual badiiy sezgilarni kashf qilishga qaratiladi. Matnni idrok etgan o‘quvchi uni o‘z uslubida qabul qiladi, **yaratadi va qayta yaratadi**. “Kitobxon javobi” yondashuvi o‘quvchini badiiy asarda "faol ayg‘oqchi" sifatida belgilab beradi. Natijada, o‘quvchi asar voqealari ichiga sho‘ng‘ib, ularga real guvoh bo‘ladi va asar syujetini o‘zining talqini orqali "tuzadi". Bunda adabiyot ijro san’ati sifatida qaralib, har bir o‘quvchi mutolaa tajribasi asosida o‘ziga xos, ehtimol, noyob matnni yaratadi.


Adabiyotshunoslikda “kitobxon javobi” nazariyasini olib kirgan olimlardan biri, nemis adabiy tanqidchisi Wolfgang Izer (*Wolfgang Iser*) fikriga ko‘ra, asar **yozilgan** va **yoziilmagan** qismlardan iborat. Kitobxon asarni o‘qiy boshlar ekan, undan ma’lum bir narsani kutadi. Ko‘pincha, kitobxon kutgan narsasini to‘liq olmaydi (muallif ko‘p savollarga javoblarni ochiq qoldiradi), bunday holda bo‘shliqlarni o‘quvchining o‘zi to‘ldiradi. Bu bo‘shliqlar asarning yoziilmagan qismidir. Bo‘shliqlarni qanday to‘ldirish esa o‘quvchining o‘ziga bog‘liq, demak, har xil kitobxon bu bo‘shliqlarni

har xil to'ldiradi. Bu jarayonni Izer yulduzlar turkumiga qarash bilan solishtiradi: "Tunda yulduzli osmonga qaragan ikki kishi bir xil yulduzlar turkumiga qarayotgan bo'lishi mumkin, lekin biri omochni ko'rsa, ikkinchisi esa cho'michni tasavvur qilishi mumkin."²

Aslida ham badiiy asar mutolaasi **faol jarayon** bo'lib, o'quvchi o'z tafakkur sarhadi, dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, avvaldan mavjud bilimlari va badiiy asarni o'qiyotgan paytdagi ruhiy-emotsional holatidan kelib chiqib badiiy asardagi yashirin ma'nolarning yangi talqinlarini yaratadi. Masalan, 18-20 yoshlardagi kitobxonda Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani qahramonlari Kumush yoki Otabek "ideal shaxs" sifatida tasavvur uyg'otsa, yillar o'tib oila, muhabbat, nafrat, rashk kabi tushunchalarda anchayin tajribaga ega bo'lgan 30-35 yoshli ayni kitobxon-retsipiyent (qabul qiluvchi) endi Kumushni xudbinlikda ayblashi, Zaynabni esa "chorasiz zaifa, muhabbat qurboni" sifatida ko'rib uning harakatlarini, hatto oqlashi ham mumkin bo'ladi. Yoki, O'tkir Hoshimov qalamiga mansub "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasidagi onaning harakatlarini o'quvchi o'z hayotiy vaziyatlaridan kelib chiqib oqlamasligi, Umri xolani hatto fojeaning asosiy sababchisi sifatida ko'rsatishi ham mumkin. Demak, "kitobxon javobi" yondashuvi yozuvchi estetikasi emas, **kitobxon (retsipiyent) qarashi, tafakkur hosilasi** sifatida diqqat markazda bo'ladi. O'quvchi adabiy aloqaning yakunlovchi bo'g'iniga aylanadi³. O'quvchi o'z fikrlari bilan asarning "yozilmagan qism"larini yaratadi.

²Iser W. The Reading Process: a Phenomenological Approach. // New Literary History, 1972, Vol. 3, No. 2, p. 287.

³ А.Н. Ковылкин. Вопросы рецептивной эстетики: Филологические науки // Омский научный вестник, № 2 (54) 2007, стр. 153.



“O‘quvchi javobi” nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchi va matn va kontekst o‘rtasidagi aloqaga ta’sir qiluvchi omillar

Adabiyot o‘qitish metodikasiga “tranzaksiya nazariyasi”ni (inglizcha *transaction theory*) olib kirgan Amerikalik olim Luiza Rozenblatt (*Louise Rosenblatt*) badiiy matn mutolaasiga **estetik hodisa**⁴ sifatida qaraydi. Uning fikricha, o‘qilayotgan asardan ma’no yasash o‘quvchi shaxsi – uning bilimi, his-tuyg‘ulari, xohish-istaklari bilan asar matni sintezidan kelib chiqadi. Bu sintez jarayoni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- asardagi voqelik o‘quvchi bilimi va dunyoqarashi bilan organik tarzda birlashadi: bir tarafdin, asardan kelib chiqadigan ma’no o‘quvchi bilimi va dunyoqarashi ta’siri ostida shakllanadi, ikkinchi tarafdin esa, asardan kelib chiqadigan ma’no o‘quvchi bilimi va dunyoqarashiga ta’sir qiladi;
- asar o‘quvchi his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladi;
- o‘quvchining tasavvurini uyg‘otadi: tasavvur orqali o‘zgalarning hayoti bilan emotsional va intellektual bog‘liqlikni his qiladi, bu esa o‘quvchiga boshqalarni

⁴ Rosenblatt, L. *Literature as Exploration*. London: Heinemann, 1970.

tushunish hamda o'zini boshqalar o'rniga qo'yib ko'rish yoki asardagi voqealarning muqobil (boshqacha) rivojlanishini tasavvur qilish orqali o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his qilishga o'rgatadi.

Asar mutolaasi jarayonida o'quvchi boshqa bir hayotni "yashab o'tadi". Bu hodisaga o'quvchining hayotiy tajribasi ta'sir qiladi, shuning uchun ham asarni har safar qayta o'qishda asar o'quvchiga boshqacha ta'sir qiladi. "Boshqa hayotga sho'ng'ish" mutolaaning estetik hodisa sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Asar o'quvchining hayotiy tajribasi, hozirgi qiziqishlari va his-tuyg'ulari bilan bog'liq bo'lmasa, uni qiziqirmasa, estetik hodisa ro'y bermaydi. Shu bilan birga, Rozenblattning fikricha, "qiziq" tushunchasini tor talqin qilish va faqat o'quvchining bevosita hayoti bilan bog'liq asarlarni tanlash noto'g'ridir. Adabiyot darslari uchun tanlanadigan asarlar xilma-xil, stereotiplardan xoli bo'lishi kerak va o'quvchi asar orqali boshqa madaniyatlar, boshqa dunyolarga qadam qo'yishni ham o'rganishi kerak.

Shunday qilib, badiiy asar mutolaasi davomida o'quvchi:

- o'zini o'rab turgan voqelikdan farq qiladigan voqelikka sho'ng'ish zavqini his qiladi;
- o'zini hikoyanavis (muallif) bilan va asar qahramonlari bilan muqoyasa qiladi, o'xshash va farqli jihatlarni qidiradi, ozini ularga yaqinlashtiradi yoki ulardan uzoqlashtiradi, ularga nisbatan ijobiy yoki salbiy tug'ularni his qiladi;
- asar muallifining dunyoqarashini, qadriyatlarini, uning voqelikka munosabatini va bu munosabatning sabablarini tushunishga harakat qiladi.

Shu bilan birga, badiiy asar o'qish o'quvchiga o'zining dunyo haqidagi bilimlarini, siyosiy, ijtimoiy, axloqiy tafakkurini boyitish hamda tarix, madaniyatshunoslik, geografiya va boshqa fanlar bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish, boshqa fanlarni o'rganish jarayonida ko'ra olmaydigan detallarni ko'rish imkonini beradi.

Badiiy asarning muhim jihatlari **to‘qimalilik, emotsionallik va subektivlikdir**, ya’ni badiiy matn muallifning tasavvuri mahsuli o‘laroq o‘quvchining his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladi. O‘quvchi badiiy asarni mutolaa qilishda undan ma’lumot olish yoki asar syujeti va qahramonlariga oid detallarni eslab qolishni o‘ziga asosiy maqsad sifatida belgilamaydi. Masalan, Bobur hayoti va siyosiy faoliyati haqida ilmiy tadqiqot qilayotgan kishi Pirimqul Qodirov yoki Xayriddin Sultonovning Boburga bag‘ishlangan romanlariga emas, balki “Boburnoma”ga va Bobur haqida yozilgan ilmiy asarlarga murojaat qiladi.

Shu bilan birga, **badiiy asarni hammadan bir xil tushunish va talqin qilishni talab qilish badiiy asarning qiymatini yo‘qqa chiqaradi**. Masalan, “O‘tkan kunlar” da Otabek va Kumush fojiasiga kim aybdor, degan savolga har bir o‘quvchi asarni qanday tushunganidan kelib chiqib har xil javob beradi: kimdir jamiyatni va o‘sha davr urf-odatlarini, kimdir ota-ona ra’yiga qarshi borolmagan va keyinchalik ikki xotin orasida muvozanatni saqlay olmagan Otabekni, kimdir Toshkentga kelganida kundoshini har safar gap bilan chaqib oladigan Kumushni, kimdir opasi Xushro‘yning maslahatini o‘zicha talqin qilgan Zaynabni, kimdir O‘zek oyimning oqibatini o‘ylamay qilgan xatti-harakatlaridan qaytara olmagan Yusufbek hojini, kimdir boshidan qizini Toshkentga yuborishga qarshi bo‘lgan Oftob oyimni ayblaydi, yana kimdir boshqa aybdorlarni sanashi mumkin va eng qizig‘i, bunda to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javob yo‘q, har bir kitobxon asarga o‘z tushunishidan kelib chiqib yondashadi va bunda har biri haq.

Quyida keltirilgan matnlarni solishtiring:

1-matn

Xo‘jand shahri Sirdaryo ikkiga ayrilgan yerda joylashgan edi. Uning tabiiy joylashishi hamda shahar hokimi Temur Malikning qahramonligi bilan xo‘jandliklar mo‘g‘ullarga kutilmagan qarshilikni ko‘rsatadilar. Xo‘jand shahri himoyachilari Temur Malik boshchiligida qariyb bir oy davomida o‘z shahrini mudofaa qiladilar.

Oxiri ilojsiz qolganda o‘t ichida qolgan shahar qal’asini ming nafarga yaqin bahodir tark etib, Temur Malik bilan Sirdaryo o‘rtasidagi orolda joylashib olib, dushman bilan mardlarcha olishdilar. Nihoyat, maxsus kemalar yasab, daryo oqimi bo‘ylab, Xorazm tomon suzib ketdilar. Yo‘l-yo‘lakay dushman bilan jang qildilar. Xalq qahramoni Temur Malikning bundan keyingi vatanparvarlik jasorati Xorazm va ona yurtining boshqa hududlarini himoya qiluvchilar safida kechdi.

*(A. Muhammadjonov. O‘zbekiston taixi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
7-sinfi uchun darslikdan)*

2-matn

Shu kecha osmonda bulut paydo bo‘lib, charaqlab turadigan yulduzlar ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Oy ham qoramtir quyuk bulutlar orasidan ba’zan Temur Malik sarkardaning dimishqiy qilichidek yarqirab ko‘rinib qolardi. Tun qorong‘iligini panoh etib, oroldagi yigitlar o‘n besh manjanaqni qirg‘oq – daryo bo‘yiga qator tizib, beliga moyli lattalarni arqon bilan mahkam bog‘lagan xarsangtoshlar uyib qo‘yildi. Yarim tunda Shohmurod Ko‘histoniy boshchiligidagi ikki kemaga yigirmaga yaqin sarboz o‘tirib, orolning yuqori tomonida payt poylab turishdi. Orolning quyi tomoniga terib qo‘yilgan manjaniqlarga xarsang qo‘yilib, o‘rtada yonib turgan gulxanga kosov tiqib, yondirib, xarsanglarni o‘t oldirib, manjaniqlarni otisha boshlashdi. Qattiq egilgan archa taxtasi olovli toshlarni daryo ustidan o‘tkazib, dushman borgohini otashbo‘ron qilisha boshlashdi. O‘n besh manjaniqdan tinimsiz otilib turgan olovli xarsanglar mo‘g‘ullarni vahimaga soldi. Xarsanglar yerga tushib, ancha vaqtgacha yonib turardi. O‘tov tepasiga tushganlari tosh namatni yorib kirib o‘t oldirardi, otlar hurkib to‘rt tomonga qochardi. Dushman sarosimaga tushib, bezovta bo‘lgan otlarini ushlab, yonayotgan o‘tovlarini suv sepib o‘chirayotgan bir paytda shiddat bilan daryoning narigi qirg‘og‘iga o‘tib ketgan ikki kemani dushman payqamay qoldi.

Mirmuhsin. “Xojand qal’asi” romanidan

3-matn

Sen Xo‘jandsan,
Chingizlarga
Darvozasin ochmagan,
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan,
Muqannasan qorachig‘i
Olovlarga sachragan,
Shiroqlarni ko‘rgan cho‘pon
Cho‘lig‘imsan, Vatanim.

Muhammad Yusufdan

Birinchi matnning maqsadi – ma’lumot berish, o‘quvchi uni konkret ma’lumot olish maqsadida o‘qiydi, bunda matndagi ma’lumotning to‘g‘riligi muhim ahamiyat kasb etadi va bu ma’lumotni har xil talqin qilib bo‘lmaydi: o‘quvchining matnni tushungan yoki tushunmaganligini matn asosida savollar berib, o‘quvchi berayotgan javoblarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligiga qarab bilish mumkin.

Ikkinchi matn esa o‘quvchi tasavvurida manzarani gavdalantiradi, lekin matnni o‘qigan har bir o‘quvchi bu manzarani har xil tasavvur qiladi. Matnda tasvirlangan voqea tarixda bo‘lib o‘tgan, lekin uni aynan muallif tasvirlagan tarzda bo‘lgan deya olmaymiz, matnni o‘qiyotgan o‘quvchi uchun ham bu ahamiyatsiz, chunki u asarni ma’lumot olish maqsadida o‘qimaydi.

Uchinchi matn ham o‘quvchi his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladi, tasavvurini jonlantiradi.

Demak, badiiy matn bilan ishlashda uning boshqa turdagi matnlardan farqlarini va badiiy asarni o‘qish yoki o‘qitishdagi maqsadlar ham boshqa turdagi matnlarni o‘qish yoki o‘qitishdagi maqsadlardan tubdan farq qilishini hisobga olish kerak. Asarni hamma har xil tushunadi va talqin qiladi, hatto bir o‘quvchi bir asarni har xil paytda o‘qiganda har xil xulosalarga keladi va bu holatni normal holat sifatida qabul qilish lozim. Shuni hisobga olgan holda, adabiyot darslarida o‘qituvchi e’tiborni asardagi ma’lumotlarni o‘quvchilarga yodlatish yoki o‘quvchilarga asarning ma’lum bir talqinini yagona maqbul talqin sifatida singdirishi emas, balki ularga asar matni bilan ishlash asnosida **badiiy matn, o‘z bilimlari va hayotiy tajribalari hamda kontekstdan kelib chiqqan holda o‘z talqinlarini yaratishga yordam berishi** lozim.

Badiiy matn bilan ishlash va undan ma’no chiqarish jarayoni **interfaollik, konstruktivlik va strategiklik** tamoyillariga asoslangan:

1. O‘qish – bu interfaol jarayon.

O‘qish – bu o‘quvchi va matn orasidagi **interfaol** jarayon va bu jarayonda o‘quvchida mavjud sxemalar (bilim va hayotiy tajriba) matnni tushunishning qay darajada samarali bo‘lishini hal qiladi. Alohida olingan so‘zlarni, matnning kengroq kontekstini tushunish matn idrokining asosini tashkil qiladi, ya’ni o‘quvchi matnda ishlatilgan so‘zlarni yoki kontekstni, ya’ni matndagi muayyan so‘z, so‘z bilan bog‘liq hodisa yoki voqelik haqida yetarli bilimi bo‘lmasa, ma’no chiqara olmaydi.

Misol:

Bor edi beshada bir tund sher,

Vahshat aro ko‘k asaddek daler.

(Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror” dan)

Ushbu parchani tushunish uchun *besh* – to‘qay, *tund* – yirtqich, *vahshat* – yovvoyi, *ko‘k* – osmon, *asad* – sher, *daler* – qo‘rqmas so‘zlarining ma’nosini bilish lozim.

Yoki:

Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak?

Ibrohimdin qolg'on ul eski do'konni na qilay?!

(Mashrabdan)

Ushbu baytning ma'nosini tushunish uchun Makkaga borib haj qilish Islomning besh farzlaridan biri ekanligini, "Ibrohimdin qolg'on ul eski do'kon" deganda Makkadagi Ibrohim alayhissalom qurdirgan va muqaddas sajdagoh bo'lgan Ka'ba nazarda tutilganligini bilish kerak.

Yana bir misol:

- Turing, bugun professor Rauf Abdullayevich obxod qiladi! – dedi u Sherzod uyg'onishi bilan qaddini rostlab. – O'rinlaringizni yaxshilab tartibga solinglar. Tumbochkaning ustida ortiqcha narsalar turmasin.

(O'tkir Hoshimov, "Nur borki, soya bor"dan)

Ushbu parchani tushunish uchun o'quvchi "obxod" (kasalxonada shifokorning bemorlar yotgan palatalarni aylanishi) nima ekanligini bilishi kerak.

Boshqa bir misol. Saida Zunnunovaning mashhur "Hay-hay" radifli g'azalini qatag'on yillari Said Ahmad va uning turmush o'rtog'i Saida Zunnunova boshiga tushgan musibatlardan xabari bor o'quvchi shunchaki muhabbat haqidagi lirik she'r sifatida emas, nohaq qamalgan erini intizor kutayotgan vafodor ayolning dardi sifatida qabul qilishi mumkin:

Vaslingning umidida dunyodan o'tib borgum,


Qanoatda Saida filcha bo'lurmi, hay-hay.

Demak, badiiy matnni tushunish jarayoniga o'quvchida mavjud bilimlar (ayrim so'zlarning ma'nosini bilish, asar yaratilgan davr haqida tushunchaga ega bo'lish, tarixiy, madaniy, ijtimoiy kontekstni bilish va hokazo) sezilarli ta'sir ko'rsartadi.

Shuning uchun ham o‘qituvchi o‘quvchiga asarni tushunishga yordam berishi uchun undagi mavjud sxemalarni faollashtirishi – o‘quvchida mavjud bilimlar majmui va hayotiy tajribani ishga solishi lozim. Shu bilan birga, asarni tushunish, undan ma’no chiqarish uchun sxemalar yetarli bo‘lmasa, unda asarni o‘qitishdan oldin va o‘qitish davomida bilimlardagi bo‘shliqlarni to‘ldirib borish – sxemalarni shakllantirish kerak bo‘ladi. Bunda asarni o‘qitishdan oldingi va asar bilan ishlash davomida bajariladigan savol va topshiriqlar muhim rol o‘ynaydi, shuning uchun xorij darsliklarida bunday savol va topshiriqlardan keng foydalaniladi.

Build Background

What Is Sufism? Sufism is a mystical form of Islam in which Muslims seek spiritual love and wisdom through direct personal experience with God. An early form of Sufism arose in the 7th century as a reaction to the materialism of the Islamic world. However, the real flowering of Sufism took place in the 12th and 13th centuries, when Sufi brotherhoods were established in special communities, or schools. Like the monks of medieval Europe, Sufi mystics tried to avoid what they considered the lures and traps of the material world. In fact, they are often called dervishes, from the Persian word for a monk who lives in poverty. Rumi founded an order of Sufi mystics that embraced sacred dance as a form of worship. Because of this practice, these mystics acquired the nickname “whirling dervishes.”



Prayer in the Mosque (19th century), Jean-Léon Gérôme. The Metropolitan Museum of Art, New York.

The Poetry of Love From the viewpoint of literature, Sufism is of great importance, for it inspired some of the finest mystical love poetry in the world. Most of that poetry was written in Arabic, Persian, Turkish.

Connect to Your Life

In these poems Rumi tries to convey experiences that are hard to put into words. What experiences or feelings might you find difficult to express? Why might this be difficult for you?

Focus Your Reading

LITERARY ANALYSIS: IMAGERY AND TONE

When writers use words and phrases to create vivid sensory experiences for the reader, they are making use of **imagery**. Although most imagery appeals to the sense of sight, imagery may also appeal to the senses of smell, hearing, taste, or touch. The title “Birdsong from Inside the Egg,” for example, appeals to the senses of both sight and hearing. Often, a writer uses imagery to convey his or her **tone**, or attitude, toward a subject. The image of a bird’s song coming from inside an egg expresses an attitude of amazement and joy. As you read Rumi’s poems, notice the images that he uses and think about the kinds of tone they convey.

ACTIVE READING: READING DIFFICULT POETRY

Rumi’s poetry presents difficulties for many readers because of his use of unusual images to convey abstract ideas. Even an experienced reader depends on strategies such as these:

- Read each poem slowly and deliberately.
- Read each poem several times. Read first to get an overall sense of the poem’s meaning. Then focus on understanding individual parts.
- Write down notes about the stanzas and images that you think you understand.
- If you are still confused by certain sections of a poem, don’t be too concerned. Use the parts of the poem that you do understand to help make sense of the ones that may still be unclear.

READER’S NOTEBOOK As you read each poem several times, jot down notes about specific stanzas or images that you think you

AQSH maktablarining yuqori sinflari uchun mo‘ljallangan A. Eplbi (Arthur Applebee) va boshqalar hammuallifligidagi “Jahon adabiyoti” darsligida (Boston, “McDougal Littell” nashriyoti, 2008) “Rumiy she’riyati” mavzusiga kirish oldidan so‘fiylik va so‘fiy she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha ma’lumot berilishi

2. O‘qish – bu konstruktiv jarayon.

O‘qish davomida o‘quvchi matndan **ma’no yaratadi**. Matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchi muttasil ochiq aytilmagan (yashirin) ma’noni anglash, bo‘shliqlarni to‘ldirish, taxminlar (gipotezalar) yaratish va ularni matn asosida tekshirish jarayonlari asosida ma’no yaratadi.

Masalan:

Tongga yaqin onasining ingrayotganini eshitdi. Keyin otasi nimadir dedi. Tancha sovub qolgan, badani sovuqdan junjika boshlagan edi. Otashkurakni olib kulni titib qo‘ysa-ku, olam guliston, ammo erinchoqlik sovuqdan ustunlik qildi. Bu yumushni ertalab onasi bajarar edi.

Uchovlon tanchaning uch tomonida yotishardi. Hozir onasi narigi uyda ingrayapti, otasi nimadir deyapti. Sovuq uyda nima qilishyapti ekan?

— Uyg‘ondingmi, toychoq? — dedi dadasi ostonada turib. — Turaqol, ayangni kasalxonaga tashlab kelaman. Bugun qorbobo senga ham chana, ham uka olib keladiganga o‘xshaydi. Sen yaxshi bola bo‘lib o‘tirib tur.

(Tohir Malik. “Shaytanat” qissasi 1-kitobdan)

Ushbu parchadan o‘quvchi bolaning onasi homilador ekanligini, otasi uni tug‘ruqxonaga olib ketayotganligini anglashi mumkin, vaholanki matnda onaning homilador ekanligi va tug‘ruqxona haqida hech narsa deyilmagan.

3. O‘qish – bu strategik jarayon.

O‘quvchi matn bilan ishlash jarayonini nazorat qila oladi. U so‘zlar, ochiq aytilgan va ochiq aytilmagan fikrlar, o‘zining bilimlarini ishga solgan holda matndan ma’no yaratishi uchun turli strategiyalarni ishga soladi. O‘qib tushunish bo‘yicha tadqiqotlar

olib borgan olimi Sara Dauhauer (*Sarah Dowhower*) fikricha⁵, o'q'ilyotgan asarni tushunishga yordam beradigan strategiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quvchida mavjud bilimlarni faollashtirish;
- bashorat qilish;
- vizualizatsiya (voqeani xayolida tasavvur qilish);
- xulosa yasash;
- o'z-o'ziga savol berish;
- matnning badiiy elementlarini tahlil qilish;
- ochiq aytilmagan yashirin ma'noni anglash;
- muhim ma'lumotni ajratib olish;
- sintezlash;
- monitoring qilish;
- noto'g'ri tushunchalarni to'g'rilash.

Shuningdek, o'q'ilyotgan matnni boshqa asarlar va o'zining hayotiy tajribasi bilan bog'lash, solishtirish, o'xshash va farqli jihatlarini qidirish hamda savol berish, o'q'ilyotgan matn ustida mushohada yuritish, baho berish ham matnni tushunishga yordam beradigan muhim strategiyalarga kiradi. Adabiyot darslarida o'qituvchi o'quvchiga bu strategiyalarni o'z o'rnida va samarali ishga solishni o'rgatishi mutolaa jarayonining samarali bo'lishini ta'minlaydi.

⁵Dowhower S. Supporting a Strategic Stance in the Classroom: A Comprehension Framework for Helping Teachers Help Students To Be Strategic. // *The Reading Teacher*, 1999, Vol. 52, No. 7, pp.673–683.



О. Окампо. Видения Дон Кихота

1. Рассмотрите репродукции картин и иллюстрации к роману Сервантеса. Какой из Дон Кихотов, созданных разными художниками, наиболее соответствует вашему представлению об этом литературном персонаже? Какие грани этого литературного образа раскрывают художники?
2. Рассмотрите репродукцию картины О. Окампо. Каких героев романа вы увидели?

88

Ukraina maktablarining 8-sinfi uchun Y. Voloshuk va Y. Slobodanyuk hammuallifligidagi "Adabiyot" darsligida (Kiyev, "Geneza" nashriyoti, 2016) Servantesning "Don Kixot" romanini o'rganishda vizualizatsiya strategiyasidan foydalanish

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining adabiyot darslarida "kitobxon javobi" nazariyasi asosidagi yondashuvning ahamiyatini, bu yondashuvning o'quvchilarning badiiy asarga mustaqil munosabatini shakllantirishdagi o'rnini amaliy jarayonlar orqali ko'rsatish maqsadidida Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti akademik litseyi 1-bosqich o'quvchilari orasida so'rovnoma o'tkazildi. Buning uchun 10-sinf Adabiyot darsligida (akademik litsey o'quv dasturiga ham kiritilgan) Said Ahmadning

“Qorako‘z Majnun” hikoyasi tanlab olindi. So‘rovnomada 25 nafar o‘quvchi qatnashdi, shulardan 19 nafari qiz bola, 5 nafari o‘g‘il bola. So‘rovnomaning maqsadi “kitobxon javobi” nazariyasi asosida shakllangan xulosalarni o‘zbek o‘quvchilari misolida tasdiqlash yoki rad etishdan iborat edi.



Bunda:

- o‘quvchi “Qorako‘z Majnun”dagi “yozilmagan” qismlarini o‘z dunyoqarashi, avvalgi bilimlari, hayotiy tajribasidan kelib chiqib to‘ldirishi;
- yaratgan talqinlarini yoki asar qahramoniga munosabatidan chiqargan xulosalarini matnga asoslangan holda izohlashi so‘raldi.

Qisqa syujetga ega bo‘lgan hikoya asosida o‘quvchilarga 6 ta savol berildi. So‘rov natijalarini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

1	Saodat aya nega Qorako‘zni qadrlar edi?	Eridan yodgor bo‘lgani uchun	Hayvonlarni yaxshi ko‘rgani uchun	O‘ziga darddosh deb bilgani uchun	Uyini qo‘riqlagani uchun
		8%	16%	68%	8%
2	Ayaning ichida “erimay qolgan muz” nima edi?	Eridan vafot etgani	Bo‘rixonning dindan qaytgani	Hajga borolmagani	Bo‘rixonning musofirligi
		12%	60%	12%	16%
3	Hikoyada sizga ko‘proq nima yoqdi?	Hikoyaning nomi	Hikoyaning syujeti	Qahramonlar nomi	Hikoyaning epigrafi
		32%	44%	12%	12%
4	Bo‘rixonga qarama-qarshi qo‘yilgan obraz qaysi?	Abdumalik	Qorako‘z	Qumri	Bunday obraz yo‘q
		4%	68%	20%	8%
5	Hikoyadagi qaysi qahramon tebratuvchi kuchga ega?	Qorako‘z	Saodat aya	Bo‘rixon	Qumri
		20%	12%	68%	0%
6	Qaysi voqea sizni qattiq hayajonlantirdi?	Dindan chiqish	Ayaning vafoti	Itning o‘limi	Baholashda qiynalaman
		32%	20%	40%	8%

Quyidagi diagrammalar hikoyaning o‘quvchilarga hissiy jihatdan ta’siri qanday rang-barang bo‘lganini va Bo‘rixonning mana shunday noqobil bo‘lib qolishida qaysi obrazni ko‘proq aybdor deb bilishini ko‘rishga imkon beradi.



Aksariyat o'quvchilar (92%) ushbu hikoya voqealari ta'sirchan, hissiyot uyg'otuvchi ekanligiga qo'shilishdi va Bo'rixonning o'z iymonini yo'qotishiga turli omillarni sabab qilib keltirishdi.

Demak, badiiy matnni o‘qish jarayonida har bir o‘quvchining hayoti va o‘qish tajribasi, e’tiqodi, fe’l-atvori, dunyoqarashi va kayfiyatiga asoslangan holda asarga, undagi voqea-hodisalar va obrazlarga nisbatan o‘z fikri – o‘zining “shaxsiy asari” “tug‘iladi”.

Xulosa qilish mumkinki, “kitobxon javobi” yondashuvining adabiyot darslarida qo‘llanilishi:

- 1) adabiyot darslarida o‘quvchining **faolligini** oshiradi;
- 2) o‘quvchilar darslikdagi “asar haqida” kabi **qoliplangan** fikrlar yoki o‘qituvchining magistral qarashlariga bog‘lanib qolmaydi;
- 3) o‘quvchilarning asar haqidagi **o‘z talqinlarini** yaratishga imkoniyat beriladi;
- 4) o‘quvchida **mustaqil va erkin fikrlash** qobiliyatini shakllantiradi;
- 5) darsda o‘qituvchining aralashuvi cheklangan holda, o‘quvchilarning o‘qilgan asar yuzasidan fikrlarini **erkin** ifodalash, kitobxonning izohlari orqali badiiy matn ma’nosini konkretlashtirish, kitobxon tasavvurlari orqali badiiy matnning bugungi zamon uchun ahamiyatini aniqlashtirishga yordam beradi.

Retseptiv estetikani darslarda qo‘llash o‘zbek metodikasiga yangilik sifatida olib kirilishi o‘qituvchi uchun dars samaradorligini oshirishda, o‘quvchi uchun esa har birining ehtiyojlarini hisobga olgan holda matnlarni idrok etishdagi turli-tuman farqlarni o‘rganishda yordam beradi.

Adabiyot ko‘ngildan paydo bo‘lib, ko‘ngillarga singadi. Biz nimaniki o‘ylamaylik, bajarmaylik, buning negizini ma’naviyatga bog‘lab tushunadigan xalqmiz. Qalbimizdagi ana shu yuksak ma’naviy kuchning anglanishi, tanlanishi va hayotda o‘zini namoyon etishiga ona tilimiz va milliy adabiyotimiz betimsol quvvat baxsh etadi. Aslida ham o‘z hayotini umummilliy qarashlar tizimi asosida barpo etgan, ajdodlardan meros muqaddas buloqlardan suv ichib, tomir yozgan avlodlarni esa hech qanday kuch yengolmaydi.

Adabiyot o‘qitishda pragmatik yondashuv

Xalqaro miqyosdagi tajribali olimlar, pedagoglar adabiyot o‘qitishning konspetual yondashuvlari qatoriga **pragmatik** – quruq g‘oyalardan iborat bo‘lmagan, o‘quvchilarning real hayotiy dasturlariga, amaliy va kundalik tajribalariga asoslangan o‘quv jarayonlarini tashkil etish yondashuvini kiritadilar. Bunday yondashuv asosida o‘quvchilarning shaxsiy tajribasi, atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatda o‘z bilimlarini rivojlantirib borish ko‘nikmasi yotadi. Pragmatik yondashuvga o‘quvchilarning “taffakkur inqilobi”ga rag‘bat beradigan, ularda turli xil kutilgan va kutilmagan fikrlarning tug‘ilishiga rag‘bat beradigan eng muhim yondashuv sifatida qaraladi.

Aslida adabiyotga oid ta’lim standartlarida badiiy asar va o‘quvchining hayotiy tajribalari o‘rtasidagi munosabatlarga qaratilgan kompetensiyalar aks etgan, ammo pragmatik ta’lim asosidagi ko‘nikmalar o‘quv dasturlarida, darsliklarda yoki o‘qitish jarayonlarida deyarli umuman aks etmagan.

Adabiyot darslarida badiiy asarning pragmatik funksiyalarini yuzaga chiqarish, o‘quvchilarning muayyan badiiy asardan olgan nazariy tushunchalarini amaliy ko‘nikmalari bilan parallel rivojlantirishda quydagi **tamoyillar** muhim ahamiyat kasb etadi:

1. O‘rganuvchining **hayotiy tajribasi** (ularni o‘rab turgan atrof-muhitdagi voqea-hodisalar; aurasiga xos hissiy va intellektual munosabatlar; mazkur munosabatlarning shakllanish jarayonlari) adabiy ta’lim markazida bo‘lishi talab etiladi.

2. O‘quvchilarni muayyan badiiy asar mutolaasiga olib kirish va uni tushunishga yo‘naltirilgan savol va topshiriqlar ularning **kundalik hayotidagi** tanish vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘lishi va munosabat jarayonida uni to‘la tasavvur qila olishi samara beradi.

3. Savol va topshiriqlar badiiy matnning **yangicha talqinlarini** yaratishga xizmat qilishi kerak bo‘ladi.

Darhaqiqat, fan dasturlarida, darsliklarda mavjud adabiy figuralar, xususan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur yoxud Boborahim Mashrab g‘azallarini, Fitrat, Qodiriy kabi jadid namoyondalari asarlarini zamonaviylik prinsipida (badiiy asarni tushunishga xizmat qiladigan boshqa yondashuvlarni ham unutmagan holda, albatta), vizual tahlilda o‘quvchini o‘rab turgan muhitga, uning ruhiy, ma’naviy ehtiyojlariga bog‘lab o‘rgatish ko‘proq samara bermaydimi? Masalan, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani tahlillarida

- *Tasavvur qiling, Zebini sudda himoya qiluvchi advokatsiz. Zebi himoyasiga nutq tayyorlang.*

- *Jadid savdogari tilidan aytilgan “Ibtidoiy tarbiyani rus maktablaridan boshlab bo‘lmaydi, uni milliy maktablarga berish kerak. O‘z millatini tanitgandan keyin rus maktabiga berish kerakki, hunarga, ixtisosga tegishli ilmlarni o‘qisin” degan fikrini bugungi kun nuqtai nazaridan to‘g‘ri deya olasizmi?*

- *Romanda tasvirlangan biror bir voqeani tanlab, bu voqealar sizning hayot yo‘lingizda qay darajada saboq bo‘lganligi haqida yozing. Fikrlaringiz asosida partadoshingiz yoki yaqin do‘stingizga tavsiyalar bering.,*

- *“Siz ham hayotingizda Miryoqub kabi ichki ziddiyatlarga duch kelganmisiz? Bunda qanday yo‘l tutganingizni ayta olasizmi?*

kabi savollarning o‘rtaga tashlanishi “Mirtemir hayoti va ijodi haqida so‘zlab bering”, “Shoirning birinchi she‘ri va to‘plami qanday nomlanadi?”, “Ular qachon e‘lon qilingan?” singari o‘quvchining badiiy didi va saviyasiga zang tushiradigan savollardan ko‘ra qiziqroq, hamki o‘quvchining adabiy ta‘limdagi faollashuviga rag‘bat berishda va badiiy asarni turli xil aspektlarda tushunishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Qolaversa, adabiyot o‘qitishga bunday yondashuv o‘quvchilarning adabiyot darslaridagi **faollashuvini**, bugun bizdan talab etilayotgan ta’limdagi **individualashtirish, personalashstirish** kabi jarayonlarni yuzaga chiqarishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilarining fanlarga bo‘lgan munosabatini tasdiqlovchi so‘rovnomalarda ular adabiyot fanidan ko‘ra ko‘proq ingliz tili, mehnat, jismoniy tarbiya, matematika yoki psixologiya fanlariga qiziqishi va mazkur fanlardan berilgan uy vazifalarini ishtiyoq bilan bajarishlari aks etgan edi. Sabab, yuqorida qayd etilgan fanlarda o‘rganuvchilarning kundalik hayotdagi amaliy tajribalari ma’lum ma’noda in’ikos etadi. Shu nuqtai nazardan o‘quvchilarda badiiy asarni o‘rganish rag‘batining sustligi, bizningcha, adabiy ta’lim va pragmatik kompetentlik o‘rtasidagi aloqaning uzilib qolganligi hamda badiiy asarni o‘rganish ularning individual tajribalaridan butunlay tashqarida olib borilayotganligi bilan belgilanadi.

Pragmatik yondashuv adabiyot darslarida “o‘quvchi faol” yondashuvini samarali tatbiq qilish imkonini beradi. O‘qitishda o‘rganuvchi faolligini oshirish, ta’lim jarayonlarini individullashtirish, badiiy asar talqinida o‘quvchi fikrlarining hokimlik kasb etishi bu yondashuvlar asosida tashkil qilingan darslarning muhim xususiyatlari hisoblanadi.

Demak, “o‘quvchi faol” tamoyili asosida qurilgan badiiy asarga pragmatik yondashuv perspektiv talqinlarni yuzaga chiqarishi bilan birga badiiy asar tahliliga individual hayotiy tajriba, bilim, tafakkur, ma’naviy ehtiyoj orqali kirib kelish tamoyilini ham shakllantiradi hamda badiiy matnga shunchaki mutolaa obekti sifatida emas, balki **yozuvchi, badiiy matn va kitobxon o‘rtasidagi aloqa** faoliyati sifatida qarashga rag‘bat beradi.

Adabiyot yoshlarimizni o‘rab olayotgan muammolarni bartaraf etish xususiyatiga ega bo‘lmasa-da, u **hayotni o‘rganish vositasi** sifatida muhimdir, chunki har qanday asarda savob va gunohlar, hayotiy yo‘qotishlar, adolat, yaxshilik va yomonlik, sevgi

va nafrat kabi qator tuyg‘ular in’ikos etadi. U keng doiradagi nuqtai nazarlar, konsepsiyalar, munosabatlar, tushunchalar eshigini ochadiki, badiiy asarda aks etgan voqea-hodisalar orqali o‘quvchi eng kamida o‘zini taftish etish, tahlil qilish majburiyatini his qiladi, hayot haqidagi chalkash tushunchalarning asl mohiyatini anglaydi. O‘zi sevib, hayotiy ehtiyoji o‘laroq mutolaa qilgan badiiy asar namunasi va undan olgan xulosalari o‘quvchining hayot haqidagi qarashlarini, konsepsiyalarini tartibga solishda, to‘g‘ri tushunchalar strategiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asar orqali dunyoni aql ko‘zi bilan ko‘ra olish qobiliyatini shakllantirishda esa pragmatik ta’lim muhim va o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Badiiy matn bilan ishlashning interfaol usullari yuqorida qayd etilgan nazariyalar va yondashuvlarni adabiyot darslarida samarali qo‘llash va o‘quvchilarni badiiy asar olamiga olib kirish, o‘quvchilarning o‘z “asarlarini” yaratish imkonini beradi.

III BOB

BADIIY ASAR MATNI BILAN ISHLASHNING INTERFAOL USULLARI

O‘quvchilarni adabiyotga qiziqtirish, badiiy asarni turli xil rakurslarda tusunishga rag‘bat berish, ularda rang-barang fikrlarni shakllantirish hamda tahlilda o‘rganuvchi faolligini ta‘minlashda badiiy asar matni bilan ishlashning **interfaol usullari** – matn bilan bosqichma-bosqich ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy matnni muayan bosqichlarda tushunishga qaratilgan bu jarayon o‘quvchida mavjud bilimni faollashtirish orqali yangi bilim, tushuncha va fikrlarni samarali o‘zlashtirishda ham ahamiyatlidir.

Adabiyot darslarida badiiy asar matni bilan ishlash samarali bo‘lishi uchun bu jarayon:

- **bahs va munozaralarni** keltirib chiqarishi lozim – demak, savol va topshiriqlar shunday qo‘yilishi lozimki, ularning yagona to‘g‘ri javobi yoki yechimi bo‘lmasin;
- boshqa fanlar bo‘yicha olingan bilimlarga **suyanishi** hamda ularni **boyitishga** xizmat qilishi lozim – demak, fanlararo integratsiyaga katta e‘tibor beriladi;
- turli **nutq ko‘nikmalarini** (o‘qish, eshitish, yozish, gapirish) qamrab olishi lozim;
- **yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarni** ruvojlantirishga xizmat qilishi lozim – demak, o‘quvchilarga beriladigan savollar va topshiriqlar faqat ma‘lumotni qaytarishni talab qilmasligi, balki matnni tahlil qilib, uning asosida yangi narsa yaratish, matndagi voqea-hodisalar, obrazlarga baho berishni ham qamrab olishi talab qilinadi.

Badiiy asar matni bilan ishlash uch bosqichda tashkil qilinadi:

- o‘qishdan oldingi topshiriqlar;
- o‘qish davomidagi topshiriqlar;
- o‘qishdan keyingi topshiriqlar.

Asar bilan ishlashning dastlabki bosqichi – **o‘qishdan oldingi topshiriqlar.**

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining shu paytgacha nashr etilgan adabiyot darsliklarida oʻqishdan oldingi topshiriqlarga eʼtibor qaratilmaydi. Oʻquvchilarni badiiy asarga olib kirish “asar haqida” vositasida amalga oshiriladi va koʻpchilik oʻquvchilarda “tushunish oʻqishdan oldin boshlanadi”, yoki “matnni oʻqib boʻlgandan keyingi savollarga toʻgʻri javob berish – bu muayan badiiy asar mazmunini toʻliq tushunishdir”, “tushunish – qayta bayon qilish” degan tasavvurlar hosil qiladi. Bu holat oʻquvchilarning oʻqituvchi fikriga yohud “asar haqida”gi qarashlarga qaram boʻlib qolishi barobarida matn ustida ishlash imkoniyatlarini cheklab qoʻyadi.

Oʻqishdan oldingi topshiriqlar:

- oʻquvchilardagi mavjud bilimlar va badiiy matn oʻrtasida **koʻprik** vazifasini bajaradi;
- oʻquvchilarni oʻzlari uchun notanish boʻlgan badiiy asar mutolaasiga **tayyorlaydi**;
- badiiya asarni **toʻliq** oʻqishga ragʻbat beradi;
- asarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi va matnni **oldindan koʻra olish** qobiliyatini shakllantiradi;
- asarda hikoya qilingan **kontekst** (tarixiy davr, geografik muhit, madaniyat) haqida tasavvur uygʻotishga yordam beradi.

Amerikalik psixolog va kognitivist olimlar Devid Rumelhart (*David Rumelhart, 1942-2011*) va Donald Norman (*Donald Norman, 1935*) ilgari surgan **sxemalar nazariyasiga** koʻra (*schemata theory*), oʻquvchi yangi maʼlumotlarni (yangi sxemalarni) qabul qilayotganda ularni oʻzida mavjud boʻlgan maʼlumotlar (sxemalar) bilan solishtiradi va oʻquvchida mavjud sxemalar bilan mos tushadigan maʼlumotlar osonroq va samaraliroq oʻzlashtiriladi. Donald Norman taʼkidlashicha, “Mos konseptual asos mavjud boʻlsa, oʻzlashtirish oson, samarali va ogʻriqsiz kechadi, aks holda bu jarayon ogʻriqli va sekin boʻladi.”⁶ Amerikalik olim Vilyam Henk (*William*

⁶ Norman, Donald A. “Things That Make Us Smart: Defending Human Attributes In The Age Of The Machine,” William Patrick Book, 1994

Henk) ham bu fikrni quvvatlab, shunday deydi: “Kiruvchi (yangi) ma’lumot yoki mavjud bilimlarga (sxemalarga) mos keladi yoki yangi bilimlarning paydo bo’lishiga olib keladi. O’quvchi o’zida mavjud sxemalarga mos tushadigan yangi misollarga duch kelganda bu misollarni o’zlashtirish sxemalar mavjud bo’lmagan holatga qaraganda osonroq kechadi.”⁷ Demak, yangi matn bilan ishlash jarayoni samarali bo’lishi uchun o’qishdan oldin matnni tushunishga yordam beradigan bilimlarni (sxemalarni) faollashtirish lozim.

Bu bosqichda asarda hikoya qilingan zamon va makon haqida tushuncha berish maqsadida turli xil **artefaktlardan** (buyumlar, xaritalar, kitoblar, plakatlar, hujjatlar va hokazo) hamda **multimediya vositalaridan** (musiqa, ovozli yozuvlar, fotosuratlar, videolavhalar) foydalanish mumkin. Masalan, o’quvchini Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” asarini tushunishga tayyorlash uchun Rossiya istilosi arafasidagi Turkiston xaritasini ko’rsatib, xaritadan Toshkent, Qo’qon, Marg’ilonni topishni, bu shaharlar qaysi davlat tarkibida bo’lganligini, bu davlatning poytaxti qayerda bo’lganligini so’rash mumkin.

Shuningdek, **asar muallifi haqida qisqacha ma’lumot** berish, yozuvchi biografiyasidan o’qiladigan asarni tushunish uchun muhim bo’lgan detallar keltirish ham oquvchini asarni anglashga tayyorlaydi. Masalan, Antuan de Sent Ekzyuperini bolaligida oltinran qo’ng’iroq sochlari sabab “Qirol-Oftob” deb atashgani, uning kasbi uchuvchi bo’lganligi va Afrika ustidan uchayotganida samolyoti halokatga uchrab, suvsiz qolganligi, Salvadorlik rafiqasi Konsueloni juda yaxshi ko’rganligiga qaramasdan u bilan munosabatlari og’ir bo’lganligi, “Kichkina shahzoda” asarini ikkinchi jahon urushi paytida ona yurti Fransiyani fashistlar istilo qilganida Nyu Yorkda do’stining uyida yozganligi singari detallarni bilish o’quvchilarga “Kichkina shahzoda” asaridagi obraz va ramzlarni (shahzoda, hikoyachi, gul, baobab, tulki) yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

⁷ Henk, W. “New Directions in Reading Assessment.” Reading and Writing Quarterly, vol. 9 (1993): pp. 103–120.

Bu bosqichda **yo‘naltiruvchi savollardan** foydalanish ham asarning bosh g‘oyasini tushunishga yordam beradi. Yo‘naltiruvchi savollar samarali bo‘lishi uchun ular:

- ochiq, bitta to‘g‘ri javobga ega bo‘lmagan, muammoli savollar bo‘lishi;
- o‘quvchilarni fikrlashga undaydigan bo‘lishi;
- o‘quvchilarning nafaqat bilimiga, balki dunyoqarashi va hayotiy tajribasiga tayanadigan bo‘lishi;
- o‘quvchilarni shunga o‘xshash yangi savollarga undaydigan bo‘lishi lozim.

Asarni o‘qish jarayonida yoki o‘qib bo‘lgandan keyin yo‘naltiruvchi savollarga yana qaytib, o‘quvchilarning bu borada fikri o‘zgargan yoki o‘zgarmaganligini so‘rash mumkin.

Masalan, Antuan de Sent Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asarini o‘qitishda quyidagicha yo‘naltiruvchi savollardan foydalanish mumkin:

- *“Qalb ko‘zi” deganda nimani tushunasiz?*
- *Biror qaror qabul qilayotganingizda ko‘proq aqlga, mantiqqa suyanasizmi yoki qalbingizga quloq solasizmi?*
- *Insonlarni bir-biriga qanday rishtalar bog‘lab turadi?*
- *Bizga qadrli bo‘lgan insonlar yoki narsalarning biz uchun qadri nimada?*

Shuningdek, asar g‘oyasiga aloqador **hikmatli so‘z** yoki **maqol**ni taxtaga yozib, o‘quvchilarning shu bo‘yicha fikrlarini so‘rash yoki **aqliy hujum** usulidan foydalangan holda asarda ko‘tarilgan g‘oya bo‘yicha o‘quvchilarning fikrlarini yig‘ish mumkin.

Bu bosqichda **asar nomi** yoki **asarning dastlabki satrlaridan** foydalanib, asar nega shunday nomlanganligi, nima haqida bo‘lishi mumkinligi, qanday tasavvur uyg‘otishini so‘rash ham o‘quvchilarda asarni o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini (ishtiyoqini) oshirishga xizmat qiladi.

Masalan, Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi quyidagicha tabiat manzarasi bilan boshlanadi: *“Yaqin ikki haftadan beri ko‘z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g‘uvullaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi”*. O‘quvchilarni asar ruhiyatiga tayyorlash maqsadida quyidagicha savollar berish mumkin:

- *Ko‘zingizni yumib tasvirlanayotgan manzarani tasavvur qilib ko‘ring. Bunday manzara sizda qanday kayfiyat uyg‘otadi?*

- *O‘zingizni qanday his qilasiz?*


- *Asar nimaga shunday manzara bilan boshlanyapti, deb o‘ylaysiz?*

Yoki 5-sinf adabiyot darsligiga kiritilgan, jahon adabiyotining eng go‘zal namunalaridan biri bo‘lgan gruzin yozuvchisi Nodar Dumbadzening “Hellados” hikoyasini o‘qishga kirishishdan oldin quyidagi topshiriqlarni bajarish mumkin:

- O‘quvchilar asar muallifi ismi-sharifi va asar sarlavhasini o‘qishadi va quyidagi savollarga javob berishadi: *Nodar Dumbadze haqida avval eshitganmisiz? Nima uchun asar “Hellados” deb nomlangan bo‘lishi mumkin? “Hellados” so‘zi nimani anglatadi?*

- Kitob muqovasiga ishlangan illyustratsiya, jumladan muqovadagi ranglar mohiyati haqidagi mustaqil qarashlarini ifoda qilishadi. *(Asar muqovasidagi rasmlar nimalarni ifodalaydi? Ular asarning umumiy g‘oyasini qay darajada aks ettiryapti? Bola (Yanguli) ning chap ko‘kragiga yozilgan “Hellados” nimaga ishora? Kitob muqovasida aks etgan suv, daraxt va h.k.z lar chi?)*

Yuqoridagi savol va topshiriqlar yakunida o‘quvchilar asarning umumiy mazmuni haqidagi taxminiy fikrlarini bayon etadilar.



Shu bilan birga, badiiy asardagi ilk jumla (yoki jumlar) tahlili orqali o‘quvchilarni badiiy asarga olib kirish ham anchayin qiziq va har qanday o‘rganuvchining tahlildagi faolligini ta’minlaydi. Masalan, “Hellados” hikoyasi Jamol va Yangulining tortishuvidagi quyidagi tugun bilan boshlanadi⁸. O‘quvchilar dialogni o‘qib, savollarga javob berishga harakat qilishlari mumkin:

- Jamol — skripka!
- Yanguli — mishiqli!
- Jamol — cho‘chqa!
- Yanguli — ipirisqi grek!
- Jamol — sassiqtake!
- Chivinbotir!

....

Bunday tasvir ifodasi o‘ta real, tabiiy va o‘n yoki o‘n bir yoshdagi bola olamiga tanish vaziyat. Ular asarning ilk jumalari va ularga qo‘yilgan savollar yordamida dunyoqarashi, tafakkur olami, suhbatni qabul qilishdagi emotsional holatidan kelib chiqib “asar haqida”gi hokim g‘oyalar ta’siridan xoli “yangi asar”larini yaratadilar.

Demak, **asarni o‘qishdan oldingi** faoliyatda o‘qituvchilar:

- asarni tushnishga yordam beradigan o‘quvchidagi **bilimlarni** (bu bilimlar boshqa fanlar doirasida olingan bo‘lishi ham mumkin) va **hayotiy tajribani** faollashtirishga;
- asarning asosiy **g‘oyasi (muammosi)** va unga yondosh g‘oyalar ustida fikr yuritishga yo‘naltiradigan savol va topshiriqlarga e’tibor qaratishlari zarur bo‘ladi.

O‘qish davomidagi topshiriqlar

⁸Amaldagi 5 sinf adabiyot darsligida bu qism olib tashlangan.

Bunday topshiriqlarning maqsadi o‘quvchiga asar matnini **tushunish va tahlil qilishga yordam berish**, o‘qish davomida o‘quvchining fikrini yo‘naltirib borishdan iboratdir. Bunda asardagi obrazlarning xatti-harakatlarini, xarakterlarini, bir-birlariga munosabatlarini, voqealarning sabab va oqibat zanjirini, asarning tili (leksikasi grammatikasi, uslubi), unda qo‘llanilgan badiiy vositalarning ma’nosini tushunish, ularni tahlil qilish va baho berishga e’tibor qaratiladi.

O‘qish davomida bajariladigan topshiriqlar quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:

- **bashorat qilish:** asarning ma’lum bir qismini o‘qigandan so‘ng, keyin nima bo‘lishini so‘rash;
- **to‘xtab o‘qish:** asarning muhim tugunlarida o‘quvchilarni to‘xtatib, asarni tushunish, tahlil qilish va baho berishga qaratilgan savollar berish;
- asarning o‘qilgan qismiga **sarlavha** qoyishni so‘rash: bunday topshiriq o‘qilgan parchadagi muhim g‘oyani ajratib olishga yordam beradi.
- Bu bosqichda o‘quvchilarning **“ikki qismli kundalik”** to‘ldirishlari asarni yaxshiroq tushunish va unga nisbatan o‘z munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi. “Ikki qismli kundalik”da o‘quvchilar jadval to‘ldirib boradilar: jadvalning chap tarafiga asardan muhim parcha yoziladi va o‘ng tarafiga shu parchaga munosabat, parcha asosida tug‘ilgan fikrlar yoziladi. Ushbu usul ayniqsa o‘quvchilarga uyda katta hajmdagi asar matni bilan ishlash vazifasi berilganda matn bilan samaradorligini oshiradi. Masalan, Aleksandr Pushkinning “Yevgeniy Onegin” she’riy romani bilan ishlayotganda o‘quvchi Onegin xarakteridagi o‘zgarishlarni va bu o‘zgarishlarga o‘z munosabatini qayd qilib borishi mumkin:

Asardan parcha	Mening munosabatim
Lekin, parvardigor, bu qanday zahmat, Bemor kishi bilan kunduz ham, tun ham O‘tirish siljimay undan bir qadam!	Onegin kasal amaksiga qarash zahmat ekanligini o‘ylayapti. Onegin bu yerda insoniy tuyg‘ulardan yiroq bir inson sifatida gavdalanadi.

O‘qib bo‘lgandan keyingi topshiriqlar

Bunday topshiriqlarning maqsadi asarni **tahlil qilish, sintez, baho berish va o‘quvchi hayoti bilan bog‘lash (personalizatsiya)**dan iboratdir. Bunda asosiy e‘tiborni syujetni (voqealar ketma-ketligini) qayta hikoya qilib berishga emas, **g‘oyaga**, muallif yetkazmoqchi bo‘lgan fikrga qaratish maqsadga muvofiqdir. Bu bosqichda tahlil qilishni osonlashtiruvchi yordamchi vositalar sifatida **grafik organayzerlar** va **jadvallardan** foydalanish mumkin. Bu bosqichda bajariladigan topshiriqlar quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:

- asarni tarkibiy qismlarga (kulminatsiya, tugun, yechim va hokazo) ajratish;
- asardan uning asosiy g‘oyasini ochib beradigan so‘zlarni topish;
- asardagi voqealarga yoki obrazlar xatti-harakatlariga baho berish;
- asar bosh qahramoni nomidan xat, kundalik va hokazo yozish;
- asardagi voqealarni biron-bir obraz nuqtai nazaridan bayon qilish;
- asar syujetidagi bir detal (voqea) o‘zgarganda voqealar qanday rivojlanishi mumkinligini bayon qilish;
- asardagi voqealarni davom ettirish yoki asarga boshqa (alternativ) yakun yozish.

Shuningdek, bu bosqichda **adabiyot va boshqa fanlar integratsiyasini ta‘minlash** – asarni o‘qish natijasida olgan bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lash va boshqa fanlardan olgan bilimlarni o‘qilgan asarga tatbiq qilish muhim rol o‘ynaydi.

Asar bilan ishlashning so‘nggi bosqichida **kulminatsion topshiriqlar** berish mumkin. Kulminatsion topshiriqlarda o‘quvchilar:

- guruh bo‘lib ishlashadi va guruhning har bir a‘zosining o‘z vazifasi bo‘ladi;
- nafaqat adabiyot, balki boshqa fanlardan ham olgan bilim va ko‘nikmalarni qo‘llashadi;
- ijodiy qobilyatlarini ishga solishadi;
- konkret bir mahsulot yaratishadi.


Asarni yoki uning bir qismini sahnalashtirish, asar asosida boshqa asar (she‘r, rasm, ssenariy, saundtrek, asarning kino variantiga reklama plakati va hokazo) yaratish, asar

asosida taqdimot, gazeta yoki jurnalga maqola tayyorlash, taqriz yozish, asar asosida viktorina o'tkazish, asar muallifi (qahramoni) bilan xayoliy intervyu o'tkazish singari topshiriqlar kulminatsion topshiriqlarga misollar bo'lishi mumkin. Abdulla Qahhorning "Adabiyot muallimi" hikoyasida Hamida aytgan Chexovning "Uyqu istagi" asari asosida go'dakni o'ldirgan qizni sud qilish jarayoni kulminatsion topshiriqning bir namunasi.

Xorijiy davlatlar ta'lim tizimida qo'llaniladigan adabiyot darsliklarida berilgan o'qishdan keyingi kulminatsion topshiriqlardan ayrim namunalar:

- Siz rassomsiz va sizning oldingizga o'qilgan hikoyaga faqat bitta illyustratsiya chizish vazifasi qo'yilgan. Siz bu illyustratsiya uchun hikoyaning qaysi joyini tanlaysiz? Bu joyni illyustratsiyada qanday aks ettirasiz? Guruh bo'lib hikoyaning eng xarakterli epizodi asosida illyustratsiya ishlab ko'ring. (Kutuzov A.V. va boshqalar. "Adabiyot olamida", 8-sinf uchun darslik, Moskva, 2007 y.)
- Pushkin asarlarida qahramonlar tushlari har doim muhim ahamiyat kasb etadi. Grinyov ko'rgan tushni siz qanday talqin qilasiz? O'z talqininingizni bering va izohlang. (Voloshuk Y. va Slobodyanyuk Y. "Adabiyot: integratsiyalashgan kurs", 8-sinf uchun darslik, Kiyev, 2016)
- Edgap Po hikoyalari ruhida "qo'rqinchli" hikoya tuzing. (Bedalov Ch. va boshqalar. "Adabiyot". 10-sinf uchun darslik. Boku, 2017.)
- Bob va Jimmi uchrashib birgalikda ovqatlanishsa nimalar haqida gaplashishgan bo'lishardi? Bob va Jimmi o'rtasida restoranda, kechki taom ustida kechishi mumkin bo'lgan dialog yozing. (Alan Prurves va boshqalar. "Adabiyot va integrallashgan fanlar. 7-sinf". Illinoys, 1997)

O'qish davomidagi va o'qib bo'lgandan keyingi topshiriqlar o'quvchilarni kognitiv qobiliyatlarning **Blum taksonomiyasi bo'yicha quyi bosqichlaridan yuqori bosqichlariga** olib chiqishi lozim.



IV BOB

DARSNI REJALASHTIRISH. O‘QUVCHILARNI FANGA QIZIQTIRISH

O‘quvchilarni fanga qiziqtirish. Motivatsiya.

Motivatsiya – insonning biron-bir ishga, faoliyat turiga, xatti-harakatga, fanga bo‘lgan doimiy qiziqishini ta’minlab turadigan, insonni ma’lum bir maqsadga erishish yo‘lida kuch sarflashga undaydigan ichki va tashqi omillar yig‘indisi. Motivatsiya quyidagi faktorlarning o‘zaro ta’siridan kelib chiqadi:

- xohish yoki talabning kuchliligi;
- maqsadga erishilgandan keyin qo‘lga kiritiladigan mukofotning qiymati;
- shaxsning va atrofida qilarning kutganlari.

Motivatsiya ta’lim jarayoniga quyidagicha ta’sir qiladi:

- o‘quvchini ta’limiy maqsad va vazifalar sari yo‘naltiradi;
- kutilgan maqsad va vazifalarga erishish yo‘lida ko‘proq kuch sarflashga undaydi;
- kognitiv jarayonlarga ijobiy ta’sir qiladi;
- o‘rganish jarayonining samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Motivatsiya intrinziq (ichki) va ekstrinziq (tashqi) bo‘lishi mumkin. **Intrinziq (ichki)** motivatsiya o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishi, o‘rganish jarayonidan zavq olishi yoki o‘rganilayotgan narsalarni o‘zi uchun kerakli, muhim, ahamiyatli deb hisoblaganidan kelib chiqadi. Amerikalik taniqli psixolog, motivatsiya hodisasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan olimasi Syuzan Harter (*Susan Harter, 1939-*) tadqiqotlariga ko‘ra⁹, 3-9 sinflarda o‘quvchilarda intrinziq motivatsiya susayadi.

⁹ Harter, Susan. A New Self-Report Scale of Intrinsic versus Extrinsic Orientation in the Classroom: Motivational and Informational Components. University of Denver, 1981

Ekstrinziq (tashqi) motivatsiya o'quvchining tashqi rag'batlar (yaxshi baho olish, o'qituvchisi yoki ota-onasidan maqtovga sazovor bo'lish, mukofotga erishish) ta'siridagi xohishidir. Ekstrinziq motivatsiya qisqa muddatlarda samarali bo'lib ko'rinsa ham, uzoq muddatli maqsadlarga erishish va o'qish-o'rganish jarayonining o'quvchilarga foydali bo'lishini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri ularda intrinziq motivatsiyani shakllantirishdir. Darsga qiziqmagan o'quvchi dars oldiga qo'yilmagan vazifalarga erishmaydi va erishishga harakat qilmaydi, shu bilan birga, dars jarayoniga xalaqit berishi mumkin. O'quvchilarda motivatsiya uyg'otish uchun o'qituvchi:

- o'quvchilarni rag'batlantirib borishi (nafaqat baho bilan, balki so'zlar, dalda berish orqali);
- o'quvchilarni darsning passiv kuzatuvchisi emas, faol ishtirokchisiga aylantirishi;
- dars jarayonida bir xillikdan qochishi;
- darsni o'quvchi hayoti bilan bog'lashi lozim.

Intrinziq motivatsiyani kuchaytirish quyidagi **strategiyalarga** tayanadi:

1. O'quvchida o'rganiladigan materialga nisbatan **qiziqish** uyg'otish, o'rganiladigan material yoki shakllantiriladigan ko'nikmani **o'quvchi hayoti** bilan bog'lash (hayotda qanday kerak bo'lishini ko'rsatish).

2. Materialni taqdim qilishning **turli shakllaridan** (ma'ruza, savol-javob, o'yin, multimediyaviy vositalari) o'z o'rnida foydalanish.

3. O'quvchilarning o'z oldilariga **konkret va realistik maqsadlar** qo'yishlariga yordam berish.

O'quvchilarda motivatsiyani ushlab turish uchun quyidagi **tamoyillarga** amal qilish lozim;

1. O'quvchilardan **nima kutilayotgani** haqida o'quvchilarga **aniq** ma'lumot berish

O‘quvchilar o‘quv yili, semestr (chorak) va dars davomida nimalarni o‘rganishlarini hamda qanday baholanishlarini aniq bilsalar, bu ularning fanga bo‘lgan munosabatiga ijobiy ta‘sir qiladi. Shuningdek, dars yoki nazorat paytida o‘quvchilarga topshiriq berayotganda ulardan nima kutilayotgani, bu topshiriq qanday mezonlar asosida baholanishi haqida aniq ma‘lumot berilishi lozim. Amerikalik olimlar Grehem, Makartur va Shwartz (Graham, MacArthur and Schwartz) o‘tkazgan bir tajribada o‘zlashtirishi sust bo‘lgan beshunchi va oltinchi sinf o‘quvchilariga insholarini qaytadan yozish topshirilgan va bir guruh o‘quvchilarga “yaxshiroq yozinglar”, ikkinchi guruhga esa “inshongizga mavzu bo‘yicha kamida uch ma‘lumot qo‘shing” deyilgan. Ikkinchi guruh qaytadan yozib kelgan insholar yaxshiroq bo‘lgan, chunki ular nima qilishlari kerakligini aniq bilishgan.

2. Aniq **fidbek** berish

Fidbek (inglizcha “feedback”) – birovning mehnati, xatti-harakatlari natijalari to‘g‘risida ma‘lumot. Fidbek aniq bo‘lishi lozim, masalan, o‘quvchiga inshosi haqida fidbek berayotganda “yaxshi yozibsan, **inshoing** menga yoqdi” degandan ko‘ra “yaxshi yozibsan, **inshoing** menga yoqdi, Kumush va Zaynab obrazlarini solishtirib, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini ochib beribsan, fikrlaringni asoslash uchun asardan misollar keltiribsan” deyish o‘quvchiga yaxshiroq ta‘sir qiladi va o‘quvchi aynan nima uchun inshosi yaxshi baholanganligi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga ularning dars davomida yoki darsdan tashqari bajargan mashq va topshiriqlari yuzasidan aniq, o‘z vaqtida va tez-tez ma‘lumot bersa, o‘quvchilar o‘zlarining yutuq va kamchiliklari nimalardan iborat ekanligi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lsalar, bu ularning motivatsiyasiga ijobiy ta‘sir qiladi.

3. Ekstrinziq motivatsiya beruvchi faktorlarning **qiymatini** oshirish

O‘quvchilar qilingan harakatlari uchun rag‘batlantirilishlari lozim, shu bilan birga, eng yuqori rag‘batga erishish hech qaysi o‘quvchi uchun oson bo‘lmasligi lozim. Ayrim o‘qituvchilar a‘lo baho olib yurgan o‘quvchiga sifatsizroq bajarilgan ishi


uchun ham a'lo baho qo'yishga moyil bo'ladilar, bu holat o'quvchida "nima qilsam ham a'lo baho olaverar ekanman" degan xulosaning shakllanishiga olib keladi va o'quvchining o'z ustida ishlashga bo'lgan motivatsiyasiga salbiy ta'sir qiladi.

Darsni rejalashtirish

Dars rejasi – dars oldiga qo'yilgan vazifalar, bu vazifalarni samarali amalga oshirish yo'llari (usullar va vositalar) hamda bu vazifalarning qay darajada bajarilganligini tekshirish yo'llari aks etgan o'qituvchi uchun "yo'l xaritasi"dir. Darsni samarali rejalashtirish uchun quyidagilar aniqlab olinishi lozim:

- dars oldiga qo'yilgan vazifalar;
- darsda qo'llaniladigan metodlar;
- o'quvchilarning tushunishini tekshirish strategiyalari.

Dars oldiga qo'yiladigan vazifalar (o'quvchilar dars jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar, rivojlantirilishi ko'zda tutilgan kompetensiyalar) aniqlashtirib olingandan keyin bu vazifalarni amalga oshirishga yordam beradigan metodlar tanlanadi va dars oldiga qo'yiladigan vazifalarga qay darajada erishilganligini tekshirish yo'llari belgilab olinadi. Umuman olganda, **ta'limiy vazifalar, o'qitish metodlari va baholash usullari o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash** ta'lim jarayonining muhim shartlaridan biridir.



Darsning tarkibiy elementlari

Darsni rejalashtirish quyidagi **bosqichlardan** iborat:

1. Darsning oldiga qo'yilgan vazifalarni aniqlashtirib olish

Darsni rejalashtirishda darsning oldiga qo'yilgan vazifalarni, ya'ni o'quvchilar darsning oxirida egallashi lozim bo'lgan bilimlar va ko'nikmalar majmuini aniq belgilab olish juda muhimdir, chunki darsda qo'llash uchun tanlanadigan metodlar va o'quv materiallarining barchasi aynan shu vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan bo'ladi.

Shu o'rinda, **maqsad** va **vazifalarning** farqini aniqlashtirib olish lozim. Maqsad – fanni yoki uning qismini o'qitish natijasida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar yoki o'quvchilarda rivojlantirilishi lozim bo'lgan kompetensiyalar yig'indisidir, vazifa esa maqsadga erishish yo'lidagi kichik bir qadam bo'lib, konkret kognitiv jarayonlarga qaratilgan. Bunda o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan murakkab ko'nikma va kompetensiyalar kichik konkret kognitiv malakalarga bo'linishi va har bir malaka izchil rivojlantirilishi talab qilinadi. Masalan, o'quvchilarga she'riy vaznlarni ajrata olishni o'rgatish maqsad sifatida qo'yilgan bo'lsa, bu maqsadga erishishni "o'quvchi barmoq vaznida yozilgan she'rlarni aniqlay

oladi”, “o‘quvchi aruz vaznida yozilgan she’rlarni aniqlay oladi” singari vazifalarga bo‘lish mumkin.

Amerikalik psixolog va pedagog olim, ta’limga “mezonlarga asoslangan ta’lim” (*criterion-referenced instruction*) yondashuvini olib kirganlardan biri Robert Meyjerning (*Robert Mager, 1923-*) ta’kidlashicha, dars oldiga qo‘yilgan vazifa quyidagi **uch komponentdan** iborat:

- o‘quvchi dars oxirida **nimani bajara** olishi – bu fe’l orqali ifodalanadi va dars oxirida o‘quvchi bajara oladigan, o‘qituvchi esa kuzatib, baho bera oladigan konkret xatti-harakatdan iborat bo‘ladi;
- o‘quvchi bu narsani **qanday sharoitda** bajara olishi;
- o‘quvchi bu narsani muvaffaqiyatli bajargan yoki bajarmaganligi **qanday mezonlar** asosida baholanishi (bu komponent yozilmagan bo‘lishi mumkin, lekin o‘qituvchi mezonlarni o‘zi uchun aniqlashtirib olishi kerak).

Masalan: “Darsning oxirida o‘quvchilar berilgan hikoyada ekspozitsiyani topa oladi va uning ahamiyatini asoslab bera oladi”.

Ushbu vazifada: o‘quvchi dars oxirida nimani bajara oladi (birinchi komponent) – ekspozitsiyani topa oladi va uning ahamiyatini aytib bera oladi;

qanday sharoitda bajara oladi (ikkinchi komponent) – berilgan hikoya asosida; o‘quvchining xatti-harakati qanday mezonlar asosida baholanadi (uchinchi komponent) – ekspozitsiyani to‘g‘ri topa oladi va uning ahamiyati haqida asoslangan fikr bera oladi.

Demak, darsni rejalashtirishning birinchi bosqichi aniq, kuzatib, baho berish mumkin bo‘lgan vazifalar qo‘ya olishdan iboratdir. Agar vazifalar mavhum ifodalangan bo‘lsa, tegishli o‘qitish metodlari va baholash usullarini tanlash qiyin yoki imkonsiz jarayonga aylanadi. “Agar siz qayerga bormoqchi ekanligingizni aniq

bilmasangiz, ko‘zlagan joyingizga emas, boshqa joyga borib qolishingiz hech gap emas”, deydi Meyjer¹⁰.

2. Mavzuga kirish usullarini tanlash

Darsni rejalashtirishning bu bosqichida o‘qituvchi o‘tiladigan mavzuga o‘quvchilarni qanday **qiziqtirishni** (motivatsiya uyg‘otishni) va qanday qilib uni o‘quvchilarning **oldingi bilimlari bilan bog‘lashni** aniq belgilab olishi lozim.

3. Darsning oldiga qo‘yilgan vazifalarga erishish metodlarini tanlash

Bu darsni rejalashtirishning asosiy qismidir. O‘qituvchi darsda ishlatiladigan metodlarni tanlar ekan, quyidagi **tamoyillarni** hisobga olishi lozim:

- **tanlash va bo‘lish tamoyili:** o‘qituvchi darsda o‘tiladigan material hajmini aniq belgilab olishi va bu materialni mantiqiy qismlarga bo‘lgan holda o‘quvchilarga taqdim qilishi lozim. Shu bilan birga, materialning qaysi qismini berishda induktiv metoddan va qaysi qismini berishda deduktiv metoddan foydalanishini aniqlashtirib olishi lozim.

Deduktiv metod – o‘qituvchi yangi tushuncha yoki qoidani o‘quvchilarga tushuntiradi va o‘quvchilar bu tushuncha yoki qoidani mashqlar yordamida mustahkamlaydilar.

Induktiv metod – o‘quvchilar berilgan misollarni umumlashtirib, o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan tushuncha yoki qoidani o‘zlari “kashf qiladilar” va so‘ngra uni mustahkamlaydilar.

¹⁰ Mager, Robert F. Preparing instructional objectives a critical tool in the development of effective instruction (3rd ed.). Atlanta, Ga.: Center for Effective Performance, 1997.

**Vazifa: O‘quvchilar dramatik asarda sollilokuy va monologni ajrata
oladigan bo‘ladilar**

<i>Deduktiv metod</i>	<i>Induktiv metod</i>
O‘qituvchi qofiya va radifga ta’rif keltiradi, ularning farqini tushutiradi. O‘quvchilar lirik asardan qofiya va radifni topadilar.	O‘qituvchi qofiya va radifga misollar keltiradi. O‘quvchilar ularni solishtirib, o‘qituvchi qo‘ygan yo‘naltiruvchi savollar yordamida qofiya va radifning farqlarini topadilar, so‘ng lirik asardan qofiya va radifni topadilar.

Induktiv va deduktiv metodning darsda qo‘llanilishiga misol

- **ketma-ketlik tamoyili:** o‘quvchilar o‘rganilayotgan tushuncha va qoidalar oldin o‘rganilgan va keyin o‘rganiladigan tushuncha va qoidalarga qanday bog‘liqligi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari lozim.

- **o‘zlashtirish va integratsiya tamoyili:** qismlarga bo‘lib o‘rganilgan tushuncha va qoidalar dars so‘ngida birlashtirilishi va o‘quvchilar yaxlit kartinani ko‘ra olishlari lozim.

Darsda ishlatiladigan metodlar tanlashda o‘qituvchi o‘qish va o‘qitish nazariyalariga suyangan holda quyidagi savollarga javob bera olishi lozim:

- Benjamin Blumning (*Benjamin Blum, 1913-1999*) ta’limiy maqsadlar taksonomiyasi (*taxonomy of educational objectives*): o‘quvchilarda qaysi ko‘nikmalarni qaysi darajada rivojlantirish ko‘zda tutilgan va o‘quvchilarni bu darajaga olib chiqish uchun qanday metodlar samara beradi?
- Lev Vigotskiyning (*Lev Vygotsky, 1896-1934*) “yaqin rivojlanish zonasi” (*zone of proximal development*) nazariyasi: o‘quvchilar bajara oladigan ko‘nikmalar (o‘quvchilarning aktual rivojlanish zonasi) va men ularga o‘rgatmoqchi bo‘lgan

ko‘nikma orasidagi masofa haddan tashqari katta emasmi? Misol uchun, o‘quvchi asarda ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya singari syujet elementlarini mustaqil topa olsa, bu uning aktual rivojlanish zonasi hisoblanadi. O‘qituvchi o‘quvchiga ushbu syujet elementlarini topish asosida asarning nega aynan shunday qurilganligini, asar syujetining asar mazmuniga ta‘sirini tahlil qilishni o‘rgatishi mumkin – o‘quvchi o‘zi bajara oladigan ko‘nikmalar asosida o‘qitishning keyingi qadamlari rejalashtiriladi va o‘quvchining aktual rivojlanish zonasi kengayib boraveradi.

- Jerom Brunerning (*Jerome Bruner, 1915-2016*) “havoza” (*scaffolding*) nazariyasi: o‘quvchilarda ko‘nikmalarni shakllantirish uchun yetarlicha ko‘mak berilyaptimi?
- Hovard Gardnerning (*Howard Gardner, 1943-*) “turfa zakovatlar” (*multiple intelligences*) nazariyasi: dars uchun tanlangan metodlardan turli qobiliyatga ega o‘quvchilar bahramand bo‘ladilarmi va bu metodlar o‘quvchilarga o‘z qobiliyatlarini namoyish qilishga imkon beradimi?

4. O‘quvchilarning dars oldiga qo‘yilgan vazifalarga qay darajada erishganligini tekshirish usullarini tanlash

Bu bosqich darsning oldiga qo‘yilgan vazifalar bilan bevosita bog‘liq. O‘qituvchi o‘quvchilarning darsdan ko‘zlangan ko‘nikmalarni bajara olishlarini qanday usulda (og‘zaki, yozma) va qanday vositalar yordamida (savol-javob, test, amaliy topshiriq) tekshirishini oldindan aniq va puxta rejalashtirib olishi lozim. Bunda shuni hisobga olish kerakki, tekshirish usuli **valid**, ya‘ni tekshiriladigan ko‘nikmaga mos bo‘lishi kerak. Masalan, agar o‘qituvchi o‘quvchilarning o‘rganilgan hikoyada ishlatilgan badiiy san‘atlarni topib, ularning nima uchun ishlatilganligini izohlab bera olishini tekshirmoqchi bo‘lsa, bu ko‘nikmani hikoya syujetini qayta hikoya qildirish orqali tekshirib bo‘lmaydi.

5. Darsni xulosalash usullarini tanlash

Bu bosqichda o'quvchilar darsda nimani o'rganganliklari va nima uchun o'rganganliklari xulosa qilinadi. Xulosani o'qituvchining o'zi qilishi yoki o'quvchilarga qildirishi mumkin. Shu bilan birga, darsda o'rganilgan material bundan keyin o'rganiladigan material bilan bog'lansa, o'quvchilarda qiziqish kuchayadi va fanda mavzular orasidagi bog'liqlikni ko'rish imkonini beradi.

“O'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish” texnologiyasi


O'rganish jarayonini samarali tashkil etish va darslarni o'quvchilar uchun qiziqarli qilish vositalaridan biri bo'lmish “**O'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish**” texnologiyasi 1980-yillarda Amerika Qo'shma Shtatlarida Piaje, Vigotskiy va boshqa pedagog olimlarning nazariy qarashlari asosida yuzaga kelgan. Ushbu texnologiya asosida quyidagi fikrlar yotadi:

- har bir bola tabiatan **qiziquvchan** bo'lib, dunyoni o'rganishni istaydi hamda bu o'rganish jarayonida **murakkab muammolarni** ko'rib chiqib, original fikrlar berishga tayyor;
- o'qituvchining vazifasi – o'quvchining **fikrlash** jarayoniga yordam berish;
- tanqidiy fikrlash birinchi navbatda **bahs-munozara, matn bilan faol ishlash va yozish** orqali shakllanadi.

Texnologiya mualliflarining fikricha, tanqidiy fikrlar alohida olingan ko'nikma emas, balki ko'nikma va malakalar majmui bo'lib, qiziquvchanlikni namoyish qilish, o'z oldiga savollar qo'yib, bu savollarga tadqiqot yo'li bilan javoblar qidirish, sabab va oqibat bog'lanishlarini tahlil qilishdir.

O'rganish – **yangi** bilimlarning **mavjud** bilimlar bilan bog'lanishidir. O'rganish jarayoni samarali bo'lishi uchun u o'quvchida mavjud bilimlar asosida qurilishi lozim.

Ushbu texnologiya asosida o'rganish uch bosqichda tashkil qilinadi:



Ushbu texnologiya asosida darsni tashkil qilishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- asosiy maqsad – o'quvchiga ma'lumot yetkazish emas, balki tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- texnologiyaning samarasida ta'limiy muhit katta rol o'ynaydi – bu muhitda har bir o'quvchi fikr bildirish huquqi va imkoniga ega bo'lishi lozim;
- o'quvchilar erkin bo'lishlari lozim: o'zgalarning fikrini tinglash va fikr bildirish darsda qo'llab-quvvatlanadi.

Darsdan oldin o'quvchi badiiy matni bir necha mantiqiy qismlarga bo'lib, har bir qism bo'yicha muhokama uchun savollar tayyorlab qo'yadi. O'quvchilarning badiiy matn bilan bevosita ishlashi darsning "anglash" bosqichida amalga oshadi. Bu bosqichda o'qituvchi tayyorlab qo'ygan savollar o'quvchilar bilan muhokama qilib olinadi hamda o'quvchilar asarning keyingi qismida nimalar sodir bo'lishi yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildiradilar.

Misol uchun, Alfons Dodingning "So'nggi saboq" asari bilan ishlashda "muammo qo'yish" bosqichida quyidagi savollarni o'rtaga tashlash mumkin:

- *Ona tili siz uchun nima?*

- *Insonni ona tilidan mahrum etish mumkinmi? Bu qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?*

“Anglash” bosqichida muhokama uchun quyidagi savollarni o‘rtaga tashlash mumkin:

- *O‘sha kuni maktabdagi vaziyat boshqa kunlardagidan qanday farq qilardi?*
- *“Mana shu ikki og‘izgina so‘z meni larzaga soldi.” Nega ikki og‘iz so‘z bolani larzaga soldi? Fransning xayolidan nimalar o‘tdi?*
- *“Men seni koyimayman, Frans, o‘g‘lim, shundoq ham jazolanganligingni bilsang kerak”. Mosye Amel qanday jazo haqida gapirmoqda?*
- *Hikoya oxirida Mosye Amelning rangi nega oqardi?*


“Fikrlash” bosqichida “muammo qo‘yish” bosqichida qo‘yilgan savollarga yana qaytish va hikoya mazmunidan kelib chiqib yana bir marta muhokama qilib olish mumkin. Yakuniy topshiriq sifatida “Ona tilim” mavzusida ijodiy insho yozishni taklif qilish mumkin.

V BOB

ADABIYOT DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING KOGNITIV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH (BLUM TAKSONOMIYASI ASOSIDA)

1956 yilda Amerikalik olimlar Benjamin Blum (*Benjamin Bloom*), Maks Enghart (*Max Engleheart*), Edvard Furst (*Edward Furst*), Uolter Hill (*Walter Hill*) va Devid Krasvol (**David Krathvol**) tomonidan yaratilgan **ta’limiy maqsadlar taksonomiyasi** (aksar adabiyotlarda “Blum taksonomiyasi” deb yuritiladi) fanni o‘qitishda maqsadlarni soddadan murakkabga va aniqdan mavhumga qarab rejalashtirish uchun xizmat qiladi.

Blum taksonomiyasida **kognitiv ko‘nikmalar** (bilish, tushunish, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish bilan bog‘liq ko‘nikmalar) quyi darajadagi ko‘nikmalar va yuqori darajadagi ko‘nikmalarga bo‘linadi. Yuqori darajadagi ko‘nikmalar quyi darajadagi ko‘nikmalarga qaraganda murakkabroq jarayonlarni o‘z ichiga oladi va o‘quvchilarda ularni shakllantirish uchun o‘qituvchidan kreativ yondashuvlarni talab qiladi. Shu bilan birga, quyi darajadagi ko‘nikmalarni shakllantirmasdan turib yuqori darajaga o‘tish mumkin emas.



Quyi darajagi ko'nikmalarga quyidagilar kiradi:

1. Bilish - o'quvchi ma'lumotni eslab qoladi va uni qaytara oladi. Bu bosqichning asosiy xususiyatlari:

- kim, nima, qachon, qayerda, qaysi, nega singari faktual savollarga javob bera olish;
- nomini aytish, ajratib olish, topish, moslashtirish, ro'yxatini tuzish, qayta so'zlab berish, tasvirlash singari amallarni bajara olish.

Bu bosqichdagi savol va topshiriqlarga namunalar:

- Asar qahramonlarini sanab bering.
- Asar qahramonlari va ularning ta'riflarini moslashtiring.
- Quyidagi gaplarni asarda kim aytganligini toping.
- Asar voqealari qachon, qayerda kechishini aytib bering.
- Asardagi voqealar ketma-ketligini to'g'ri toping.
- Asarning syujetini qisqacha bayon qilib bering.

2. Tushunish - o'quvchi ma'lumotni tushuntira oladi, boshqa shaklga sola oladi, talqin qila oladi va tasniflay oladi. Bu bosqichning asosiy xususiyatlari:

- o'rganilayotgan hodisalarni solishtirib, o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsata olish;
- o'z talqinini bera olish;
- fikrni isbotlash uchun matndan misollar keltira olish;
- keyin nima bo'lishi mumkinligini bashorat qila olish;

Bu bosqichdagi savol va topshiriqlarga namunalar:

- Asarning janrini aniqlang.
- Asar nega shunday nomlanganligini izohlang.
- Asardagi muammo nimadan iborat va bu muammoning qanday yechim topdi?

- Asar qahramonlarini solishtiring.
- Asar qahramonlari o'zlarini qanday his qilishganini tasvirlab bering.
- Asardagi misralarni sharhlang.
- Asarda qo'llanilgan badiiy san'atlarning maqsadini tushuntirib bering.
- Asardagi tabiat (ob-havo) manzarasining nima uchun ishlatilganligini tushuntiring.
- Yozuvchining bu asarni yozishdan maqsadi nima deb o'ylaysiz?
- Asar voqealari kechayotgan joy tasvirini chizing.
- Asarga (asardagi bir epizodga) rasm chizing.

3. Qo'llash - o'quvchi ma'lumotni yangi hayotiy vaziyatlarda qo'llay oladi. Bu bosqichning asosiy xususiyatlari:

- muammoli vaziyatlarni yecha olish;
- asar qahramonlarini boshqa vaziyatlarga solib ko'ra olish;
- asarga o'zgacha (alternativ) yakun bera olish.

Bu bosqichdagi savol va topshiriqlarga namunalar:

- Asardagi muammoga boshqacha yechim toping.
- Tasavvur qiling, siz asar qahramonlaridan birisiz. Hayotingizdagi bir kunni tasvirlab kundalik yozing.
- Asardagi bir voqea o'zgarsa boshqa voqealar qanday rivojlangan bo'lardi?
- Asar qahramoni boshqa vaziyatda qanday yo'l tutgan bo'lardi?
- Asardagi voqealar boshqa zamonda (makonda) sodir bo'lsa nimalar o'zgargan bo'lardi?
- Asarga boshqacha yakun yozing. Nega aynan shunday yakunlaganingizni izohlang.
- Asardagi voqealarga o'xshash voqealar sizning hayotingizda sodir bo'lganmi?

- Siz qahramonning o‘rnida bo‘lganingizda nima qilardingiz?
- Asar qahramonidan (muallifidan) intervyu oling.

Yuqori darajadagi ko‘nikmalarga quyidagilar kiradi:

4. Tahlil - o‘quvchi murakkab tushunchani kichikroq qismlarga ajrata oladi va qismlar orasidagi bog‘liqliklarni izohlab bera oladi. Bu bosqichning asosiy xususiyatlari:

- asarni qismlarga yoki tarkibiy elementlarga (ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim) ajrata olish;
- asarning asosiy g‘oyasini aytib bera olish;
- yashirin (ochiq aytilmagan) fikrni topa olish.

Bu bosqichdagi savol va topshiriqlarga namunalar:

- Asardan uning asosiy g‘oyasini ochib bera oladigan uchta so‘z toping.
- Asar qahramonlarining asosiy xususiyatlarini toping.
- Asarni qismlarga bo‘ling. Har bir qismga sarlavha toping.

5. Sintez - o‘quvchi o‘rgangan narsalari asosida yangi narsa yarata oladi. Asarga yangi obraz qo‘shish, yangi sarlavha qo‘yish, asar asosida ssenariy (hikoya, she‘r va hokazo) yozish, musiqa bastalash, asarga plakat yaratish, asar asosida savollar (testlar) tuzish, sahna asari qo‘yish, video suratga olish singari topshiriqlar bu bosqichga misol bo‘la oladi.

Bu bosqichdagi savol va topshiriqlarga namunalar:

- Asarga sikvel (prikvel) yozing.
- Asar asosida beshta suratdan iborat komiks yarating.
- Tasavvur qiling, asarni sahnalashtirmoqchisiz. Asar qahramonlariga qanday kiyimlar tanlardingiz?

6. Baho berish - o'quvchi mezonlar asosida biron-bir voqea-hodisaga o'z munosabatini bildiradi. Asar qahramonlari xatti-harakatlarini oqlash (qoralash), asarga baho berish, taqriz yozish, asarni bировga tavsiya qilish uchun fikrlar bildirish bu bosqichga misol bo'la oladi.

Bu bosqichdagi savol va topshiriqlarga namunalar:

- Asardagi sizga eng yoqqan (yoqmagan) epizod qaysi? Nima uchun?
- Asar sizga yoqdimi? Nima uchun?
- Asarni do'stingizga tavsiya qilib xat yozing.
- Asardagi qaysi qahramon bilan do'st tutingan bo'ladingiz?


VI BOB

ADABIY TA'LIMDA INTEGRATIV YONDASHUV (GARDNERNING “TURFA ZAKOVATLAR” NAZARIYASI MISOLIDA)

Integrativ yondashuv o'rganuvchilarning ta'lim jarayonidagi faol ishtirokiga asoslangan, “o'quvchi-faol” muhitining yaratilishiga sabab bo'ladigan, ularning muvaffaqiyatlari, ijodiy, tanqidiy fikrlashlariga, adabiyotga, badiiy asarga munosabatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga xizmat qiladigan yondashuvlardan biridir. Demak, integratsiya, bugungi tasavvurimizdagi faqat fanlarning o'zaro aloqadorlikda o'rganilishi emas, balki o'quvchilarning bilim olish faoliyatiga rag'bat beradigan ta'limning har qanday yo'nalishi va bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etuvchi yondashuvlardan biridir.

Amerikalik olim Hovard Gardnerning (*Hovard Garner*) ta'kidlashicha, har qanday inson tug'ma iste'dod egasidir. Har bir insonga xos xususiy holatlar, masalan, mantiqiy fikrlash, muayyan voqelikni turli xil rakurslarda ko'ra olish, muayyan masalaga yondashuv prinsipi va yana bir qancha individual qobiliyatlar o'quvchilarda bir xil ko'rinish, holat yoxud vaziyatlarda namoyon bo'lavermaydi. Ularni yuzaga chiqarish uchun muayyan vositalar, subektiv yoki obektiv sabablar kerak bo'ladi.

Hovard Gardnerning 1991 yilda yaratilgan “turfa zakovatlar” (*multiple intelligences*) nazariyasi yuqorida ta'kidlangan – **har qanday inson individual tafakkur va dunyoqarash egasi** kabi qarashlarga asoslangan. Govard dunyoni anglash va bilish (shu bilan birga voqelikka munosabatida) nuqtai nazaridan bilim olishni sakkiz xil zakovat asosiga quradi:

<p style="text-align: center;">Gardner nazariyasi bo‘yicha zakovat turi</p>	<p style="text-align: center;">Namunaviy topshiriqlar (Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi asosida)</p>
<p>Lingvistik zakovat</p> <p>Lingvistik zakovatda</p>  <p>o‘quvchining qobiliyati matn lingvistikasi vositasida namoyon bo‘ladi. Aniqroq qilib aytganda, o‘quvchilardagi ushbu zakovat turi ko‘proq badiiy adabiyotning ritorik va poetik ifodasiga asoslanadi. Lingvistik zakovat orqali o‘quvchi muayyan badiiy matn yuzasidan o‘z fikr mulohazalarini ifoda etishi, boshqalarni o‘z g‘oyaviy qarashlariga ishonтира olishi mumkin bo‘ladi. O‘quvchilardagi lingvistik zakovatni yuzaga chiqarish va uni yanada rivojlantirish uchun badiiy matn bilan bog‘liq</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. A.Qahhorning “Dahshat” hikoyasi haqida qisqa syujetli axborot tayyorlang. 2. Hikoya asosida insho yoki bayon yozing. 3. Hikoya syujeti asosida biror bir she‘r yoki qisqa hikoya yarating. 4. Qahhorshunos olimlardan intervyular oling. 5. Qahhor romanlari yoki hikoyalari asosida yaratilgan kinossenariylar (agar mavjud bo‘lsa) haqida axborot tayyorlang va hikoyaning kinotalqinidagi farqlarga alohida urg‘u bering. 6. “Dahshat” hikoyasida sizga ta‘sir qilgan va hikoyaning badiiy g‘oyaviy, estetik mazmunida o‘ziga xos ahamiyat kasb etgan so‘z va so‘z brikmalarni matndan topib belgilang hamda ularni izohlang.

Mantiqiy-matematik zakovat




Mantiqiy-matematik zakovat

asosan **matnning yozilgan qismlari asosida yozilmaganlarini kashf etish**, asarning ramziy ma'nolarini **deduksiyaga** (umuiy vaziyatlardan xususiy xulosalar chiqarish) asoslangan xolda inkishof etish. O'quvchilardagi bunday qobiliyat asosan ilmiy va matematik tafakkurga asoslanadi.

1. Hikoyadagi muammoli vaziyatlarni toping va tahlil qiling.
2. Adabiyotshunoslikdagi makon va zamon tushunchasini "Dahshat" hikoyasi misolida izohlang.
3. Hikoyaning mantiqiy asosini ishlab chiqing.
4. "Dahshat" hikoyasi syujeti dinamikasini jadval asosida tushuntiring.
5. Hikoyaga tanqidiy baho bering.
6. Hikoyadagi vaqt jadvalini yarating.

Jismoniy harakatga asoslangan zakovat



Jismoniy harakatga

asoslangan zakovat – muayyan badiiy matni, kitobxon fikr mulohazalarini **tana a'zolari vositasida ifodalash** usuli. O'rganishning bu turi inson tana a'zolari harakatiga asoslangan bo'lib, bunday zakovatga ega o'quvchilar jismoniy faoliyat vositasida muloqot qilishni sevadilar, ayni o'rinda ularga biror-bir badiiy asarni sahna ko'rinishlari, turli xil harakatlar orqali o'rgatish ko'proq samara beradi.

1. A.Qahorning "Dahshat" hikoyasi asosida sahna asari yarating.
2. Hikoyadagi Dodxo obraziga xos xususiyatlarni harakatlar orqali ko'rsatib bering.
3. Unsinning qabristondagi holatini jismoniy harakatlar orqali qanday tasvirlagan bo'lardingiz?

Musiqiy zakovat



Musiqiy zakovat –

musiqiya vositasida o‘rganish usuli.

Musiqiy zakovat egalarida chuqur idrok, ohang va tovushlarga sezuvchanlik qobiliyati namoyon bo‘ladi. Bunday zakovat egalarida musiqaga muhabbat alohida ahamiyat kasb etadi va ular atrofidagi tovushlarga nisbatan o‘ta sezuvchan bo‘ladilar. Bunday iste’dod egalariga badiiy matnni musiqaga, musiqiy nutq, tovushlar, ohanglar orqali o‘rgatish ijobiy natijalar beradi.

1. “Dahshat” hikoyasi ruhiga mos musiqiya yarating.

2. Hikoyadagi Unsunning his-tuyg‘ulari, iztiroblarini qanday ohanglarda ifodalash mumkin? Rejissyorga tavsiyalar bering.

3. Hikoya asosida she‘r yarating va unga musiqiya bastalang

Voqelikni tashqi belgilar orqali ko‘rish qobiliyati



Voqelikni tashqi belgilar

orqali ko‘rish qobiliyatiga ega o‘quvchilarga muayyan badiiy matnni **kartalar, suratlar, illyustratsiyalar, uch o‘lchamli modellar, videolar, videokonferentsiyalar, televideniye, suratli rasmlar, grafiklar va chartlar** orqali o‘rgatish tavsiya etiladi. Bunday zakovat egalarining o‘zlari ham asarni mana shunday tashqi omillar orqali

1. A. Qahhorning “Dahshat” hikoyasi syujetini ranglar orqali ifodalang.

2. “Dahshat” hikoyasidagi Dodxoh, Unsin va maymun obrazlarini rangli tasvirlarda bering va yaratilgan san’at asaringizni matn bilan qiyoslab izohlang.

3. Hikoyani grafik organayzerlar orqali tahlil qiling

4. Abdulla Qahhor yashagan va “Dahshat” hikoyasida tilga olingan hududlarning geografik kartasini

o'rganishga hayrixoh bo'ladilar. Gardner nazariyasiga asoslangan bunday yondashuv uslubi bir paytning o'zida ham ko'rish, ham eshitish va ham tafakkur qilish orqali muayyan badiiy asar mohiyati, muallifning poetik tasvirlash mahoratini chuqur idrok eta olish imkoniga ega bo'ladilar.

yarating.

5. Asardagi siz uchun eng ta'sirli epizodni rang tasvir orqali ifodalshga harakat qiling.

O'zaro muloqotga asoslangan zakovat

O'zaro muloqotga asoslangan zakovatda



o'quvchilar asosan **guruhlarda ishlash orqali** o'z qobiliyat va zakovatlarini namoyan qiladi. O'quvchilar badiiy matn anglovida boshqalarning qarashlari, fikr mulohazalariga ham tayanadilar. Atrofidagilarning fikri ularda yangi g'oyalarning tug'ilishiga rag'bat berishi mumkin. O'zaro muloqotga asoslangan zakovat turida guruhlar bilan ishlash, muayyan badiiy asardagi muammoli vaziyatlarni birgalikda hal qilish, badiiy asar asosida guruh loyihalarini yaratish, qahramonlar nutqi asosida dialoglar tuzish tavsiya etiladi.

1. Guruhlarga bo'linib, o'z dunyoqarashingiz, fikrlashingiz va ijodkorlik qobiliyatingizdan kelib chiqib A. Qahorning "Dahshat" hikoyasini yakunlang. Hikoya asosidagi yakunlaringizni asar yaratilgan davr, o'sha paytdagi ijtimoiy-siyosiy hayot, xalq turmush tarzidan uzoqlashmagan holda izohlang. Fikr isbotida aniq dalillarga tayanishga harakat qiling.

2. "Unsinning fojiasiga kim aybdor?" A) Dodho B) Ijtimoiy tuzum C) Unsinning o'zi D) Maymun

Guruhlarga bo'lining. Har bir guruh javoblar tanlovidan kelib chiqib o'z javoblarini matn, hayotiy tajribasi, avval olgan bilimlariga asoslanib fikrlarini asoslashga harakat qiladi. Keng mantiqiy xulosalarga asoslangan fikrlar,

	qarashlarni bildirgan o‘quvchilar g‘olib deb topiladi.
<p>Shaxsning ichki muloqotiga asoslangan zakovat</p> <p>Shaxsning ichki muloqotiga asoslangan zakovat – insonning badiiy asar bilan bog‘liq kechinmalari, ichki his-tuyg‘ularini aniq bir usul (yoki yondashuv) orqali tushunish.</p>	<p>1. "Dahshat" hikoyasi asosida reja tuzing.</p> <p>2. Hikoya qahramonlariga maktub yozing.</p> <p>3. Hikoya xususida yozilgan ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalarga taqriz yozing.</p> <p>4. Asarda Unsin obraziga xos qaysi jihatlar tabiat bilan uyg‘un tasvirlangan.</p> <p>5. Hikoyadagi siyosiy, ijtimoiy, maishiy g‘oyalarni tasniflang va uni muallif yashagan davr hayoti bilan bog‘lab tahlil qiling.</p>



Xulosa qilib aytish mumkinki, bugun ta’limi rivojlangan mamlakatlarda Gardnerning “Turfa zakovatlar” nazariyasi asosida shakllangan integrativ yondashuv nafaqat adabiyotda, balki butun bir ta’lim sohasida o‘qitishga integrativ yondashuv bo‘lib, bunday yondashuv talabalardagi turli xil zakovatlarini yuzaga chiqarishda, biror-bir masalaga individual yondashuvda muhim ahamiyat kasb etadi.

VII BOB

METOD VA TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA NAMUNAVIY DARS

ISHLANMALARI

O‘QISHDAN OLDINGI, O‘QISH DAVOMIDA VA O‘QISHDAN KEYINGI

TOPSHIRIQLARNI QO‘LLASH:

“MUZQAYMOQ” HIKOYASI BO‘YICHA NAMUNAVIY DARS

ISHLANMASI



Odil Yoqubov Qozog‘iston Respublikasi Chimkent viloyati Turkiston tumanining Qarnoq qishlog‘ida xizmatchi oilasida 1926 yili tug‘ilgan. 1944 yilda o‘rta maktabni tugatgach, urushda qatnashish uchun yoshini katta ko‘rsatib, Yaponiya frontiga jo‘nadi va sovet-yapon urushi muhorabalarida ishtirok etdi. 1951—1956 yillarda O‘rta Osiyo Davlat universitetining filologiya fakultetida o‘qidi. O‘zbekiston Yozuvchilari uyushmasida maslahatchi, «Literaturnaya gazeta» ning respublikamizdagi maxsus muxbiri, «O‘zbekfilm» kinostudiyasida va Respublika kinematografiya qo‘mitasida bosh muharrir, G‘afur G‘ulom nashriyotida bosh muharrir o‘rinbosari, «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati» gazetasining bosh muharriri bo‘lib ishlagan. «Tengdoshlar», «Muqaddas», «Tilla uzuk», «Bir feleton qissasi», «Larza», «Qanot juft bo‘ladi», «Matluba», «Izlayman», «Billur qandillar» kabi qissalari, «Er boshiga ish tushsa...», «Ulug‘bek xazinasini», «Diyonat», «Ko‘hna dunyo», «Oq qushlar, oppoq qushlar», «Adolat manzili» romanlari e‘lon qilingan, «Chin muhabbat», «Olma gullaganda», «Yurak yonmog‘i kerak», «Aytsam tilim kuyadi, aytmasam dilim», «Fotihi Muzaffar yohud bir parivash asiri», «Bir koshona sirlari» kabi dramalari sahnalashtirilgan.

ASARNI O‘QISHDAN OLDIN ...


1. Plakatda tasvirlangan va hujjatda keltirilgan davr haqida nimalarni bilasiz?
2. NKVD (Ichki Ishlar Xalq Komissarligi) qanday tashkilot edi?
3. “Xalq dushmani” iborasi nimani bildirgan? Bu oddiy ibora edimi yoki yuridik atama?



NKVD emblemasi



1930-yillar plakati. Mazmuni: “Ogoh bo‘l! Dushmanni har qanday niqob ostida fosh qil!”



Ichki Ishlar Xalq Komissari Beriyaning Iosif Stalin va Politbyuroga yozgan xati. Qisqacha mazmuni: “NKVD qamoqqa olingan xalq dushmanlari (457 kishi) ustidan tergovni tugatdi. 346 kishiga nisbatan otish jazosi, qolgan 111 kishiga nisbatan 15 yildan kam bo‘lmagan muddatga surgun jazosi. Ruxsat berishingizni so‘raymiz.”

ASARNI O‘QIYMIZ ...

O‘sha oilamiz boshiga og‘ir kulfat tushgan kuni, men, o‘n yashar bola, nimadandir ko‘nglim g‘ash, uyimiz ro‘parasidagi paxsa devorga chiqib, o‘zimcha go‘yo otga minib o‘tirardim.

U mahalda biz Turkiston shahrining eng so‘lim joylaridan biri — Lager ko‘chasida ikki xonadan iborat, oldi ayvon, o‘sha zamon imkoniyatiga ko‘ra tuzukkina uyda istiqomat qilardik. Bu uyning kattagina hovlisi ham bor edi. Ikki qavatli ulkan darvoza orqali kiradigan bu hovlida bizdan tashqari yana bir nechta xonadon yashardi. Darvozaning ustida quruq pichan saqlanadigan boloxona bo‘lar, biz, bolalar oqshom paytlari berkinmashoq o‘ynaganda boloxonaga chiqib pichan tagida «jon saqlardik».

Oilamiz boshiga musibat tushgan o‘sha mash‘um kundan bir necha oy muqaddam dadam uyimizdagi deyarli barcha kitoblarni uch-to‘rt qopga solib, beda tagiga yashirganu, boloxona eshigiga otning kallasidek qulf osib qo‘ygandilar. Endilikda boloxonaga hech kim kirolmas, faqat men goho-goho tuynukdan tushib, qoplardagi kitoblarni, ayniqsa sersurat, qalin kitoblarni tuynuk shu‘lasiga solib, tomosha qilib o‘tirishni yoqtirardim.

O‘YLAB KO‘RING:

Nega bolaning dadasi kitoblarni boloxonaga yashirdi?

Bu suratlar ham juda g‘alati, ularning aksari charm palto kiyib, bellariga qilich va to‘pponcha taqib olgan harbiy, ba‘zilari esa ot o‘ynatgan, qizil alvon ko‘tarib dushman sari ot surib ketayotgan mardu maydonlar bo‘lsa ham, negadir barchasining ko‘zlari o‘yib olingan yoki yuzlariga ko‘k siyoh tortilgan edi. Nega shunday? Men bu sir-asrorning tagiga yetolmay qiynalardim, dadamlardan so‘rashga esa yuragim dov bermas, sababi, dadamlar qahri qattiq odam edi, «bu kitoblarni senga kim ko‘rsatdi» deb dashnom berishlari mumkin edi.

TUSHUNTIRIB BERING:

Kitoblarda surati tasvirlanganlar kimlar? Nega ularning ko‘zlari o‘yib olingan yoki yuzlariga ko‘k siyoh tortilgan edi?

O‘sha qora kun ham, nimadandir ko‘nglim notinch, kitob titish esimga tushib tomga chiqdim. Ammo tanish tuynukka yaqinlashganimda ko‘chaning boshida qo‘sh ot qo‘shilgan chiroyli foytunga ko‘zim tushdi. Sal o‘tmay, foytun darvozamiz ro‘parasiga kelib to‘xtadi. Undan o‘sha paytlarda barcha kattalar uchun rasm bo‘lgan yashil rang galife shim va gimnasterka kiygan o‘rta yashar ikki kishi bilan qizil ko‘ylakli, ko‘zlari qiyg‘och bir ayol tushdi. Erkaklardan biri tomda meni ko‘rib qolib:

— Egamberdi Jaqipovning uyi shulma? — deb so‘radi.

— Shu, — dedim men. Shu payt hovlidan chiqqan oyimlarning:

— Kelinglar, mehmonlar, xush kelibsizlar, — degan ovozi eshitildi. Men boloxona ustunidan sirpanib, yerga sakrab tushdim. Mehmonlar ichkariga kirishgan, oyimlar allaqanday hayajonda edilar.

— Dadangning mahkamasiga chop! — dedilar oyimlar negadir shivirlab — Ayt:



SAKU – O‘rta Osiyo Kommunistik Universiteti (Среднеазиатский коммунистический университет)

SAKUda birga o‘qishgan og‘aynilaringiz kelishdi, de! Kutib o‘tirishibdi, tezroq kelar ekansiz, de! Ha aytmoqchi, biryo‘la maktabga borib, onang bilan pochchangga ham ayt — tezroq kelishsin. Dasturxon-pasturxonga qarashib yuborishsin!

Men negadir, aftidan «mehmon» so‘zidan ko‘nglim yorishib, ikki oyog‘imni qo‘limga olib chop ketdim. Garchi pochcham bilan katta opamlar o‘qituvchilik qiladigan maktab dadamlar ishlaydigan mahkamadan xiyla narida bo‘lsa-da, avval o‘sha tomonga o‘tib, oyimlarning gapini opamlarga aytdim, so‘ng, hamon ikki oyog‘im qo‘limda, yalangoyoq, yalangbosh, ko‘cha changitib dadamlarning mahkamasiga qarab chopdim.

Xalq komissari - xalq komissarligi boshlig'i, hozirgi til bilan aytganda vazir

Birinchi kotib - hozirgi til bilan aytganda hokim

Dadamlar bir mahallar Qozog'iston Xalq komissarlari kengashi qoshida tuzilgan mayda millatlar (asosan o'zbeklar) xalq komissari lavozimida ishlagan. SAKUni tugatganlaridan keyin esa hozirgi Chimkent viloyatining Sayram rayonida birinchi kotib, keyinroq esa Qozog'iston temir yo'li Siyosiy boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari vazifalarida xizmat qilganlar. Lekin keyingi yillar «Otang so'fi bo'lgan, sen buni yashirgansan», — degan aybnoma bilan pastga surila-surila, yumalay-yumalay oxir-pirovardida Turkiston tumani moliya bo'limiga mudir etib tayinlangan edilar.

BILIMINGIZNI ISHGA SOLING:

Komissar, so'ngra rayonda birinchi kotib, hozir esa tuman moliya bo'limiga mudir. Bu ma'lumotdan bolaning dadasi haqida qanday xulosa chiqarish mumkin?

Rahmatli buvamlar Yoqub (jonlari jannatda bo'lg'ay!) haqiqatan Qarnoq qishlog'ining eng katta masjidida to inqilobgacha so'filik qilgandilar. Odamlarning aytishicha, u kishining ovozlari shu darajada zo'r bo'lgan emishki, har subhidam masjid mezanasi chiqib azon aytganlarida nafaqat o'n ming kishilik Qarnoq ahli, balki o'ttiz chaqirim naridagi Turkiston namozxonlari ham eshitgan emishlar. Shu boisdan Qarnoq ahli buvamlarining ismlariga Shayx so'zini qo'shib, Yoqub shayx deb ataganlar... Lekin o'n oltinchi yilgi qattiq qurg'oqchilikda bobomiz Yoqub shayx og'ir ahvolga tushganlar. Shu bois otamiz oilasini boqa olmay, bir-ikki qo'y, bir-ikki qop g'alla evaziga bir boyning o'g'li o'rniga mardikorlikka ketganlar-u, uyoqdan bolshevoy bo'lib qaytganlar. Shu-shu, ota-bola biri — shayx, biri — bolshevoy, qip-qizil sinfiy dushmanga aylanganlar.

ESLANG:

Mardikorlikka ketish, bolshevoy ... Qaysi davr voqealari haqida gap ketmoqda?

Dadamlarning mahkamasi ulkan savdogar qurgan va endilikda partiya qo'mitasi joylashgan ko'rkam binoning shundoq biqiniga joylashgan edi. Men borganimda

dadamlar ham idoradan chiqqan ekanlar. Meni uzoqdan ko‘rib darvoza oldida to‘xtadilar. Dadamlar to‘ladan kelgan, novcha, qirraburun, o‘sha davrda rasm bo‘lgan to‘mtoq mo‘ylovli, xushqad, salobatli kishi edilar. Egnidagi libosi hozir xotiramda yo‘q, agar yanglishmasam o‘sha mahalda Stalinga taqlidan kiyiladigan ko‘krak



I.V.Stalin — 1922-1953
yillarda SSSRni
boshqargan. Uning
hukmronligi davrida
millionlab odamlar
qatag‘on qilingan.

cho‘ntakli yashil kostyum va galife shim kiygan, oyoqlarida ham o‘sha zamonlarda rasm bo‘lgan g‘arch-g‘urch xrom etik.

Rahmatlik dadamlar, uyqusizlikdanmi, boshqami — ko‘zlari qizargan, allaqanday horg‘in ko‘rindilar menga. U kishi hansiray-hansiray aytgan gaplarimni eshitdilar-u, chehralari sal yorishib:

— Yur, bolam! — dedilar boshimni silab. — Senga bitta muzqaymoq oberay!

Boya aytganimdek, dadamlar diydasi qattiqroq, o‘ktam, kamgap odam edilar. O‘sha kungacha men u kishining biror marta boshimni silaganlarini bilmasdim. Aksincha, hanuz esimdan chiqmaydi: dadamlar ur kaltak, sur kaltak tagidan chiqolmay, ishdan haydala-haydala oxir pirovardida qishloqqa qaytib, uyda ko‘kragini zaxga berib yotgan paytlar. Bir kun oyimlar qo‘limga pul va ikki-uch litrli grafin (dadamlar katta lavozimlarda ishlagan mahalda orttirgan nodir matoh) tutqazib:

— Do‘konga kirib qimiz olib chiq, dadang aytdilar! — dedilar.

Do‘konga kirsam qimiz tugagan ekan. Men parvoyi falak, qo‘limdagi grafinni o‘ynatib uyga qaytdim. Yo‘lim yog‘och va temir qoziqlar qoqilgan mol bozoridan o‘tardi. To‘satdan nimadir «shaq» etdi. Qarasam, qo‘limdagi grafin temir qoziqlardan biriga tegib, tangaday joyi o‘pirilib tushibdi. Yuragim orqamga tortib ketdi. Uyga qaytishga jur‘at qilolmay anchagacha bog‘imiz poyidagi soy bo‘yida aylanib yurdim. Nihoyat, yuragimni hovuchlab uyga kirib bordim. Oyimlar meni ko‘rib:

— Qayoqlarda daydib yuribsan, bevosh? Dadang sho‘rlik kutaverib diqqinapas

bo‘p ketdilar-ku! — deb koyidilar, so‘ng grafindagi teshikka ko‘zlari tushib, qo‘limdan ushlagancha ichkariga sudradilar.

Dadamlar ulkan, chorxari uyimizning to‘rida kitob varaqlab, yonboshlab yotardilar..

— Do‘konda qimiz yo‘q ekan, bu ham yetmagandek, o‘g‘lingiz grafinni sindirib qo‘yibdi... — Oyimlar shunday deb grafinni dadamlarning oldidagi xontaxtaga qo‘ydilar.

Keyinchalik oyimlar bu ishlaridan pushaymon bo‘lib ko‘p gapirganlar. «Nega shunday qilganimni o‘zim ham bilmayman, bolam, dadanglarning nochor ahvoli hammamizni ezib qo‘ygan edi», deguvchi edilar, rahmatlik.

Dadamlar shitob bilan qadlarini rostladilar-u xontaxtadagi grafinni olib, menga qarab otdilar. Zarb bilan otilgan grafın shundoq qulog‘im tagidan o‘tib (chamasi, jonholatda boshimni olib qochgan bo‘lsam kerak!) devorga tegib chil-chil sindi.

Men tura qochdim, qocharkanman, oyimlarning:

— Qimiz ham o‘lsin! Qimiz deb bolamni o‘ldirmoqchimisiz, adasi? — degan achchiq faryodini eshitdim.

XULOSA CHIQARING:

Bu epizoddan bolaning dadasi haqida qanday fikrga keldingiz?

Oyimlarning aytishicha, keyinchalik dadamlar ham bu qilmishidan pushaymon bo‘lganlar. Kim bilsin, ehtimol boshiga og‘ir musibat tushishini sezib yurgani uchundir, ehtimol bir mahal dilimga ozor bergani esiga tushib, uni ko‘nglimdan chiqarmoqchi bo‘lgandir, har qalay, umrimda birinchi bor boshimni silab, muzqaymoq oberishga ahd qildilar.

Ko‘chaning narigi yuzida shahar bog‘i bo‘lar, bog‘ oldidagi maydonchada har xil suv, meva sharbatlari, muzqaymoq sotiladigan mitti-mitti do‘konchalar bo‘lardı. Borsak, do‘konlar yopilgan ekan. Dadamlar astoydil ranjidilar.

— Umrimda bir marta senga muzqaymoq olib bermoqchi bo‘lgandim, bu ham nasib qilmadi-yov, bolam! — dedilar, u kishi allaqanday chuqur o‘kinch bilan.

Uyga borganimizda chiroqlar yongan, hovlidagi o‘choqqa qozon osilgan, bizdan avval yetib kelgan katta opamlar bilan oyimlar o‘choq atrofida kuymalanib yurishar, pochchamlar ko‘rinmas edilar.

Dadamlar ichkariga kirib ketdilaru darhol qaytib chiqdilar. Chehralari ochilgan, kayflari chog‘ edi.

— SAKUda birga o‘qigan eski qadrdonlarim kelishipty. Qalay, tuzukroq go‘sh-t-po‘sh-tlaring bormi, Gulshan? — dedilar dadamlar oyimlarga qarab. — Bor bisotingni dasturxonga to‘kasan bugun...

Marhum volidamizda jindak shaddodlik bo‘lardi.

— Siz qozon-o‘choq atrofida aylanavermay ichkariga kirib mehmonlaringizga qarayvering! — dedilar shartta kesib.

Dadamlar oyimlarning bu sal yasama qo‘rsligiga kulimsirab, ichkariga kirib ketdilar.

Hovlimizda, shundoq o‘choq yonida bir tup gujum o‘sar, gujum tagida chuqur quduq bo‘lar, issiq yoz va iliq kuz kunlari go‘sh-t-ni shu quduqda asrardik.

Oyimlar menga quduqdan go‘sh-t olib ber, — dedilar. Men quduq chang‘irog‘ining dastasini aylantirib, go‘sh-t osilgan changakni torta boshladim-u, to‘satdan ko‘chadan kirib kelgan ikki harbiyga ko‘zim tushib, negadir yuragim orqamga tortib ketdi. Ular o‘choq atrofida kuymalanib yurgan oyimlar bilan opamlarga bir qarab qo‘ydilar-da, etiklari bilan yerni tap-tap bosib ayvonga chiqishdi. Ayvondan uyga kirishdi. Harbiylarni ko‘rishlari bilanoq turgan joylarida tosh qotib qolgan oyimlar bilan opamlar birdan dod solishib, uyga qarab yugurishdi. Quduq chang‘irog‘ini beixtiyor qo‘yib yuborib men ham ketlaridan chopdim.

TAHLIL QILING:

Nega harbiylarni ko‘rib bolaning yuragi orqasiga tortib ketdi? Oyisi bilan opasi nega dod solishdi?

Men o‘sha paytlar mamlakatimizda va hatto shahrimizda nima bo‘layotganidan bexabar edim, albatta, shu bois oyimlar bilan opamlarning harbiylarni ko‘rishlari

bilanoq faryod chekib, ichkariga otilishlari sababini anglamadim. Ammo ular mudhish maqsad bilan kelishganini aql bilan bo'lmasa-da, yurak bilan his etgandim. Keyin bilsam, o'sha davrda hamma joyda bo'lganidek, Turkistonda ham har kuni, har daqiqada ko'plab odamlar hibsga olingan ekan. Oyimlar va opamlar bundan boxabar bo'lganlari uchun ham harbiylarni ko'rib dod solishgan ekan. Eshikdan kirishim bilan harbiylardan biri — novchadan kelgan, malla sochlarining uchlari qoshlariga nafis egilib tushgan xushsurat o'ris kapitan polni g'arch-g'urch bosib, eshikka keldi-da, uning ilmog'ini solib:

— Tintuv tutaguncha endi hech kim uyga kirmaydियam, chiqmaydियam! — dedi yurakka g'ulg'ula soluvchi bir qat'iyat bilan.

Uyda qiy-chuv boshlangan, katta opamlar o'rta eshikda haykalday qotib qolgan dadamlarning bo'yniga osilib yig'lamoqda, oyimlar ham dadamlarnig yelkasiga suyanib, unsiz titramoqda, kichik opamlar bilan ukalarim burchakka tiqilishib, xuddi kalxatlardan qo'rqqan jo'jalarday, ko'zlari ola-kula, bir-birining pinjiga kirib olishgandi.

Ikki tavaqali o'rta eshik ochiq, ichkari xonaning to'rida SAKUda dadamlar bilan birga o'qigan mehmonlar, ranglarida rang yo'q, tippa-tik serrayib turishardi. Ikkinchi harbiy esa ichkari uydagi katta qizil shkafga terilgan kitob va albomlarni bitta-bitta ko'zdan o'tkazmoqda edi.

Kitoblarning deyarli hammasi qizil jildli Lenin asarlari edi. Tintuv boshlagan harbiy Lenin asarlariga tegmas, qalin, sersurat albomlarni esa varaqlab ko'rib bepisand, yerga tashlar edi. Hanuz esim-da: bu albomlar ham xuddi boloxonadagi kitoblar kabi, allaqanday rahbarlarning suratlariga to'la bo'lib, ularning ham aksari allaqachon qamalgani uchun (buni men keyin bildim, albatta) yuzlariga ko'k siyoh chaplangan, ko'zlari o'yib olingan, ba'zi suratlarining kallalari «kesib» tashlangan edi. Bepisand harbiy (agar yanglishmasam, u ham kapitan edi) albomlarni ko'zdan kechirarkan, dam ulardagi ko'zlari o'yilgan, boshlari «kesilgan» suratlariga, dam dadamlarga qarab:

— Ko‘rinib turibdi, ja g‘oyaviy ekanlar! — derdi miyig‘ida kulimsirab.

Xushsurat mallosoch kapitan esa tashqi xonadagi qutilar, sandiq va sandiqchalar, shkaflarning tortmalarini ochib, ulardagi buyumlarni titkilar, latta-puttalar orasidan allanimalarni qidirar edi. Navbatdagi shkafga kelganda harbiy urinmasin, uning pastki tortmalarini ocholmadi. Uyda birorta sandiq, yo shkaf yo‘q ediki, men uni ocholmasam. Kapitanning qiynalayotganini ko‘rib, men qo‘limga mix oldimu pildirab borib shkafning tortmasini shartta ochib berdim. Kapitan chehrasi yorishib kuldi-da:



O‘z otasini sotgan Pavlik Morozovga qo‘yilgan haykal

— Malades! — dedi boshimni silab. — Kelgusida zo‘r odam chiqadi sendan!

OYLAB KO‘RING:

Nega harbiy bolani maqtadi?

Kapitanning bu kutilmagan maqtovidan yuragim «jiz» etdi. Keyinchalik, katta bo‘lganimda, men uydagi dod-faryodga qaramasdan otamni qamashga kelgan jallodning maqtovidan bir zumgina bo‘lsa-da, yayrab ketganimni har eslaganimda bir o‘zimdand ijirg‘anib yurdim. Ammo o‘sha daqiqada, afsus-nadomatlar bo‘lsinkim, uning so‘zlaridan g‘ururlanib ketganim ham haqiqat, mudhish haqiqat!

Shu payt dadamlarning:

— Suv! — degan ovozlari eshitildi. — Bir piyola quduq suvi beringlar, yuragim kuyib ketyapti!

Uyda suv yo‘q ekan. Opam yig‘idan to‘xtab:

— O‘rtoq kapitan! — dedilar hiqillab. — Ruxsat bering, ukam quduqdan suv olib kirsin!

Kapitan shkaf tortmasidan boshini ko‘tarib:

— Agar dod-voyingni qo‘ysang — ruxsat beraman! — dedi va kuldi: — Shunday chiroyli qiz ham bunaqa yig‘loqi bo‘ladimi?

Kapitanning opamlarga qilayotgan soxta xushomadi yoqmadi. Lekin nima ham

qilardim? Chelakni olib tashqariga otildim. Hovlidagi chiroq o'chgan, ayvondan uzoqroqda, quduq yonidagi gujum panasida kimdir qoqqan qoziqdek qaqqayib turardi. Bu — pochchamlar edi. U lom-mim demasdan qo'lidagi chaqaloqni menga tutqazib, quduqdan yarim chelak suv olib berdi-da, sharpasiz odimlab hovlining qorong'i burchagiga qarab ketdi.

BAHO BERING:

Pochchasi ketib to'g'ri ish qildimi?

Keyinchalik marhum oyimlar ko'p aytguchi edilar:

— O'sha kuni pochchangni xudo o'zi asradi! Agar pochchang opang bilan birga kelganida, kim bilsin, uni ham birga opketisharmidi bu toshbag'irlar?

Oyimlarning bu gapida jon bor edi, chunki tintuv tutab, dadamlarni olib ketayotganlarida harbiylar SAKUchi sho'rlik mehmonlarga Turkistondan ketishdan avval NKVDga borib, ruxsat olishlari shart ekanini uqtirishib, qo'llaridan tilxat olishdi.

Men yarim chelak suvni ko'tarib, ichkariga kirganimda, dadamlar stulda o'tirib, oyoqlari tagida hamon dod solib yig'layotgan katta opamlar bilan oyimlarni tinchitishga urinardilar. Azaldan qoramag'iz odam, dadamlar bir zumdayoq bamisoli olovda qolgan archadek qorayib ketgandilar. Oyimlar tokchadan kosa olib berdilar. Dadamlar bir kosa muzday quduq suvini bitta sipqorib:

— Qo'y, yig'lama, qizim, yig'lama, Gulshan! — dedilar og'ir hansirab. — Hukumat oldida tariqcha gunohim yo'q! O'rtoq Stalin tirik ekan, bu tuhmatlardan qutqarib oladi hali!

Dadamlar quduq suvini kosalab sipqorar edilaru shu bitta gapni qayta-qayta takrorlardilar:

— Hukumat oldida begunohman, Gulshan! O'rtoq Stalin barhayot ekan, bizni bularning oyog'i ostiga tashlab qo'ymaydi!

OYLAB KO'RING:

Dadasi Stalin haqidagi gaplarni chin dildan aytdimi?

Men hozir, shaxsga sig'inish davrining mudhish kirdikorlari, mudhish inqilob dohiylari, ayniqsa, Stalin hukmronligi davrida yuz bergan shafqatsiz qatl-u qirg'inlar, million-million begunoh kishilarning boshiga tushgan g'urbatlar, ota boladan, bola otadan ayrilib, odamlarning ko'zyoshi daryo bo'lib oqqan o'sha zimiston yillar haqida o'ylaganimda, dadamlarning Stalin to'g'risida gaplarini eslab, hayron bo'laman. «Nahot otam bu qirg'inbarotni ko'rmagan-sezmagan bo'lsalar, nahot Stalin bu jabr-u sitamlardan bexabar edi, degan sodda, bemantiq so'zlarga ishongan bo'lsalar?», degan fikr bot-bot ko'nglimdan o'tadi.

Lekin unday desam... o'sha davrda hukm surgan inqilob chavandozlari orasida mash'um Inqilobning soxta otashin chaqiriqlar, jo'shqin qo'shiqlar, alvonlari, «dohiy»ning alangali nutqlariga astoydil ishongan, bo'layotgan qatl-u qirg'inlarning hammasi insoniyat baxti uchun qilinyapti, degan mudhish yolg'onga uchgan soddadil, oqko'ngil odamlar oz bo'lganmi?

Albatta, yurakni zirqiraturvchi bu o'ylar mening xayolimga ko'p yillardan keyin o'sha davrlardagi dahshatli voqealar fosh qilinib, ko'zimiz ochilganda keldi. U mahalda esa...

Bilmadim, tintuv qancha davom etdi. Lekin dadamlar quduq suvini sipqora-sipqora, «O'rtoq Stalin sodiq farzandlarini xor-zor qilib qo'ymaydi», degan gapni takrorlay-takrorlay yarim chelak suvni ichib tugatganlari hanuz esimda.

Men keyinchalik, bu gapni aytsam ko'plar ishonmay:

— Qo'ying-e, odam bolasi yarim chelak suvni icha oladimi? — deguvchilar ham bo'ldi, ammo men, o'n-o'n bir yashar bola, buni o'z ko'zim bilan ko'rganman, dadamlarning o'sha so'zlarini o'z qulog'im bilan eshitganman! Ichi yonib ketayotgan odam yarim chelak u yoqda tursin, bir chelak suvni ham ichadi!

Nihoyat, tintuv tugadi. Dadamlarga kiyinishni buyurdilar. Oyimlar bilan opamlarning nolasi ko'kka chiqib, uyimiz achchiq faryoddan zir titradi. Oyimlar dadamlarning yelkasiga paltosini ildilar. SAKUni bitirgan sho'rlik mehmonlarga tuzalgan dasturxondan ilingan narsani ro'molga tugib, qo'llariga tutqizdilar.

Boyagidan ham battar qorayib, bir zumda allaqanday ozib, munkayib qolgan dadamlar avval hamon faryod chekayotgan oyimlar bilan opamlar, so‘ng qaqshab-qaltirab qolgan ukalarimning peshonalaridan o‘pdilar-u, navbat menga kelganda:

— Hay, attang! — dedilar to‘satdan ko‘zlariga yosh olib. — Umrimda bir marta senga muzqaymoq olib bermoqchi bo‘luvdim. Shuniyam evlayolmadim-ov, bolam!..

Butun tintuv davomida ko‘zinga yosh olmagan, «kelgusida zo‘r odam bo‘lasan», degan so‘zlardan shishib ketgan norasida, birdan hamma narsa — dadamlarning hech qachon erkalamaganini ham, do‘kondan qimiz topolmay qaytanimda grafinni qulochkashlab otganlari ham — hammasi esimdan chiqdi-yu alamli chinqiriq bilan dadamlarning tizzalarini quchoqlab oldim...

...Bir necha oy o‘tdi. Bu orada xonadonimiz motamsaro bir makonga aylandi. Qish yaqinlashib qolgan, kun sayin uning qahrli nafasi kuchayib borar, uyda esa na o‘tin bor, na ko‘mir!.. Biz tancha qurib, bir amallab kun kechiramiz.

Haftada bir marta, yanglishmasam, shanba kunlari dadamga ovqat olishadi. Oyimlar bir amallab topgan-tutganlarini pishiradilar-u tong mahal u kishi bilan birga avaxtaga ravona bo‘lamiz.

Turkistonda Qul Xo‘ja Ahmad Yassaviy maqbarasining shundoq biqinida O‘rta Osiyoni zabt etgan general Chernyaev qurdirgan besh-oltita mustahkam g‘ishtin binolar bo‘lardi. Chernyaev bu binolarni chor askarlari uchun qurdirgan. Sho‘ro hokimiyati esa ularni qamoqxonaga aylantirgan-u atrofini tikanli sim bilan o‘rab tashlagan.

Har shanba tikanli sim bilan chegaralangan bu qal‘a ro‘parasiga kamida 150—200 ayol, chol-kampirlar yig‘ilishadi, bular «xalq dushmanlari»ning oila a‘zolari. Yosh-yosh juvonlar qaqshab-qaltirab qolgan keksalar hibsxona xodimlarining ovqat qabul qilishini kutib, ertalabdan kechgacha tikanli sim oldida diydirab turishadi. Oyimlar qamoqxonaga gohida meni ham yetaklab borishlariga sabab — mabodo dadamlar bilan yuz ko‘rishish nasib etsa otamlar meni ko‘rib qolsinlar degan niyatda edilar. Lekin dadamlarni biror marta ko‘rsatishmadi, ko‘rsatishmaganlari ham mayli,

bot-bot olib borgan ovqatlarimizni qabul qilmasdan qaytarib yuborishardi. Goho men bir necha soat mahtal bo‘lib kutganimdan keyin biror bahonani ro‘kach qilib, hibsxonaning shundoq yonginasidagi shahar bog‘iga qarab chopardim. U yerda xudoning kuni borki, miting bo‘lar, shahar maktablaridan nog‘oralar gumburi va karnay-surnaylar sadosi ostida bolalar saf tortib boqqa kelishardi. Bog‘ o‘rtasiga qizil alvon bilan o‘ralgan ulkan minbar o‘rnatilgan bo‘lib, charm palto kiygan, to‘pponcha taqqan faollar unga chiqib va‘z aytishar, va‘zlarning aksariyati trotskiychilar va ularning «dum»larini fosh qilishga bag‘ishlanardi. Bu va‘zxonliklarning dahshatli tomoni shunda ediki, bugun Trotskiyning «dum»larini fosh etib, otashin nutq so‘zlagan notiqning aksari ertasiga o‘zlari «dum»ga aylanib, fosh etilganlar ro‘yxatiga tushib qolishardi.



L.D.Trotskiy—
SSSRda yuqori
lavozimlarda
ishlagan, Stalin
hokimiyatga
kelgach,
mamlakatni tark
etishga majbur
bo‘lgan

TAHLIL QILING:

Qamoqxonadagi vaziyatni bola qanday tasvirlayapti? “Trotskiychilar” va ularning dumlari kimlar?

Meni bu mitinglarga borishga nima chorlaganini hanuz tushunolmayman. Aftidan, karnay-surnay va nog‘oralar sadosi saf tortib o‘tadigan tengdoshlarimning quvnoq va jo‘shqin qo‘shiqlari bo‘lsa, ajab emas. Chunki bu gumbur-gumbur sadolar, otashin qo‘shiqlar qulog‘imga chalinishi bilan xuddi nog‘oraga o‘rgangan harbiy otday oyoqlarim o‘z-o‘zidan raqsga tushib, yuragim hapriqib ketaverardi. Faqat bir narsa murg‘ak qalbimni ezar, u ham bo‘lsa, minbardan turib aytiladigan nutqlarda ba‘zi-ba‘zida dadamlarning nomi ham «dum»lar qatori tilga olinadi. Lekin shunday paytlarda dadamlarning Stalin to‘g‘risidagi so‘zlari esimga tushardi-yu yuragimga quyilib kelgan alamli tuyg‘uni haydardim. Bu hol toki shahar yoshlar qo‘mitasining kotibi bilan yuzma-yuz kelgunimcha davom etdi.

Bu yosh, xushqad, xushsurat yigitcha bizga qo‘shni edi. Oilamiz boshiga

musibat tushgunga qadar, u xonadonimizga boʻzchining mokisidek qatnar, dadamlar bilan kechalari uzoq suhbatlashib oʻtirardi. U oʻsha yozda uylangan, xotini ham, oʻziga oʻxshash koʻhlik, xushqad, xushsurat edi. Damlar ularning toʻylariga toʻyboshi boʻlgan, oyimlarning aytishicha, dadamlar unga moddiy yordam ham bergan ekanlar.

Dadamlar qamalganlaridan keyin yon qoʻshnimiz qorasini ham koʻrsatmaydigan boʻldi. Bunga ajablanmasa ham boʻlardi, chunki shogird tugul qarindosh-urugʻlar ham bu ogʻir, gʻurbatli kunlarda uyimizni chetlab oʻtishar, bitta-yarimta kelsa ham kechalari qoʻrqa-pisa kelib, soʻng devor panalab qaytib ketardi.

BAHO BERING:

Qoʻshni va qarindoshlar nega bu oiladan oʻzlarini olib qocha boshladilar?

Ularning bunday harakatlarini oqlash mumkinmi?

Shanba kuni edi. Chamasi, qamalganlar soni koʻpaygan, chunki avaxtaga ovqat koʻtarib kelganlar soni ancha ortgan, navbat kutayotganlarning dumi koʻrinmasdi. Kun sovuq, sevalab mayda yomgʻir yogʻardi. Shu boisdanmi, boshqami, oyimlar men soʻramasdan oq uyga ketishimga ruxsat berdilar. Men tinimsiz maydalab yogʻayotgan yomgʻirdan diydirdim, uyimizga tomon ravona boʻldim toʻsatdan bogʻ tomonda yangragan nogʻoralar gumbiriyu karnay-surnaylar sadosini eshitib, beixtiyor toʻxtadim.

Nogʻoralar va karnay-surnaylar sadosi tobora avjga chiqmoqda, chamasi, odatdagidan ham katta miting boshlanmoqda edi. Oʻrgatilgan otga oʻxshab yana nogʻoralar gumbirlayotgan tomonga burildim. Haqiqatan ham yomgʻirga qaramay, bolalar har tomondan saf-saf boʻlib boqqa yopirilib kelishardi.

Darvozaga yaqinlashib qolganimda nogahon roʻpara tomondan kelayotgan qoʻshnimiz — shahar yoshlar qoʻmitasining kotibiga koʻzim tushdi. U bir oʻzi emas, charm paltolik harbiy odam bilan uch burchak soqol qoʻygan, jikkakkina moʻysafid qurshovida kelardi.

Kotibni koʻrishim bilan yuragim negadir «shuv» etib, boqqa shoʻngʻishga chogʻlandim, ammo kotib bir sakrashda yoʻlimni toʻsib, bilagimdan shappa ushladi-

da:

— Ha, qashqirdan tugʻilgan qashqircha! — dedi titroq bosib. — Bitta shaltoq buzoq bir toʻda podani buzadi! Boʻyningga soxta qizil galstuk taqib, bu sofdil qizil pionerlarni buzmoqchimisani? — U qoʻlimni ogʻritib siqqancha oʻziga torta boshladi. Lekin shu payt jikkak moʻysafid:

— Qoʻyib yubor, bolapaqirni, — dedi oraga tushib.— Oʻrtoq Stalin aytdi-ku, bola otasi uchun javob bermaydi, deb? Gunohi nima bu norasidaning!

Yosh kotib qovogʻidan qor yoqqanicha bir qariyaga, bir charm paltoli harbiyga qaradi-da, qoʻlimni qoʻyib yubordi va: «Yoʻqol koʻzimdan!» — deb oʻshqirdi.

BAHO BERING:

Qoʻshni yigitning ozini bunday tutishini qanday izohlaysiz?

Shundan keyin nima boʻldi, nima qoʻydi — hozir esimda yoʻq, faqat kotibning ombirdek metin changalidan chiqdimu tomogʻimni gʻip boʻqqan koʻz yoshini yuta-yuta, saf-saf boʻlib oʻtayotgan baxtli tengdoshlarim yonidan katta koʻcha tomon otildim...

Dadamlar hibsga olingandan soʻng uch-toʻrt oy oʻtdi hamki, u kishi bilan biror marta koʻrishga olmadik. Butun shahar hanuz tahlikada, hamma joyda, hatto maktablarda ham dushman qidirish hamon davom etardi. Sira esimdan chiqmaydi. Oʻsha yili ulugʻ rus shoiri Pushkin vafotining 100 yilligi nishonlanar edi. Bu gʻamgin sanaga atalib qanaqa tadbirlar belgilandi, qanaqa kitoblar chiqarildi, qanaqa majlislar, adabiy kechalar oʻtkazildi — buni bilmayman. Ammo oʻsha sanaga atalib oʻquvchilar uchun daftar chiqarilgani yodimda. Million-million nusxada chiqarilgan bu daftarlarning oldi muqovasida bolalikdan hammamizga tanish jingalak soch, habashchehra shoirning surati solingan, muqovaning oxirgi betiga esa shoir ertaklaridan biriga chizilgan surat berilgan edi. Avval boshda hech qanday gap yoʻq edi. Keyin toʻsatdan shaharda, jumladan men oʻqiydigan maktabda ham vahimali mish-mishlar tarqaldi. Goʻyo Pushkin yubileyiga chiqarilgan bu daftarlar, toʻgʻrirogʻi, daftar muqovasidagi suratlariga aksilinqilobiy soʻzlar bitilgan emish! Kimki

Pushkinning soch va soqollari, ayniqsa, muqova oxiridagi ertaklarga chizilgan suratlarni e'tibor bilan ko'zdan kechirsa, shoirning jingalak sochlariyu ertaklarga chizilgan suratlarni hushyorlik bilan nigohidan o'tkazsa, makkorona bitilgan aksilinqilobiy so'zlarni topishi mumkin emish!

TAHLIL QILING:

Qanday qilib Pushkin suratiga va Pushkin ertaklariga chizilgan rasmlarga davlatga qarshi so'zlarni yashirish mumkin?

Men o'qiydigan 3-«A» sinfida yoshi anchaga borgan, tishlari to'kilib qolgan, ammo juda muloyim, mehribon rus kampiri dars berardi. Bir oydan beri bu kampir — hozir ism-shariflari yodimda yo'q — kasal bo'lib, o'rniga yosh tatar yigitcha dars bera boshlagan edi. Qattiq oqsoqlanib yuradigan bu yigitcha bizga qo'shni bo'lmish raykom kotibining qaynisi bo'lib, dadam qamalganlaridan keyin menga o'qrayib qaray boshlagan edi. Ammo hayotning o'yinini qarangki, dadamlardan keyin bir hafta o'tar-o'tmas yosh o'qituvchimizning pochchasi ham hibsga olinib, «xalq dushmani» deb e'lon qilingan edi. Shu-shu battar mung'ayib, avvalgidan battar oqsoqlanib qolgan o'qituvchi menga achinib qaraydigan, yo'lakdami, hovlidami — tanho yurganimni ko'rsa, boshimni silaydigan bo'lib qolgandi. «Pushkin suratlari ichiga qabih aksilinqilobiy so'zlar yozilgan emish», degan gap tarqalgan kuni yosh o'qituvchimiz sinfimizga juda xomush bir qiyofada kirib keldi. U mungli ko'zlari bilan bolalarga uzoq tikilib turgach:

— Bolalar! — dedi allaqanday yolvorib. — Qani, kecha tarqatilgan daftarlaringni olinglar-chi! Haligi... muqovalariga Pushkin surati solingan daftarlaringni aytyapman!.. Oldilaringmi? Ehtimol, eshitgandirsizlar, ashaddiy dushmanlarimiz makkorona chizilgan harflar vositasida SSSRga qarshi so'zlar yozishipti! Bu mudhish so'zlarni topgan bolalar bor. Ularning suratlari ertaga faxriy doskaga osiladi. Nahot bizning sinfimizda birorta hushyor o'quvchi bola topilmasa? Qani, suratlariga yaxshilab qaranglar! Shoyad sizlar ham dushmanlarimizning bu qabih so'zlarini topib, ularni fosh etsalaring!

Yosh o‘qituvchi shunday deb menga o‘zgacha bir umid bilan qarab qo‘ydi. Har qalay menga shunday tuyuldi-yu oldimdagi daftarga chizilgan suratlarga tikilib, jonjahdim bilan makkorona chizilgan harflarni qidira boshladim...

Asablarim tarang tortilgan, miyam nazarimda lahcha cho‘qqa aylangan edi. «Nahot jonajon hukumatimizga qarshi yozilgan bu mudhish so‘zlarni topib, dushmanlarning kirdikorlarini fosh etolmasam? Yo‘q, topaman! Topganda ham birinchi bo‘lib topaman. Ikkinchi bo‘lishning foydasi yo‘q!.. To‘xta, shoir yelkasidagi mana bu gajak tola nimani eslatadi? «S» harfining o‘zginasi-ku!.. Uning yonidagi gazak-chi! U ham «S»! Uning yonidagisi ham!» Mana bunisi «R»ning o‘zginasi-ku! Voy, tavba! Bu battollar «SSSR» deb yozib qo‘yishibdi-ku, boyadan beri shuni ham ko‘rmapman-a?... Mana bu gajak tola-chi? Quyib qo‘ygandek «D» ku! Undan keyingi gajak-chi? «O»ning xuddi o‘zginasi-ku! «O» bo‘lgan joyda «L» ham bo‘lishi kerak? Mana «L»! Yonginasida esa «Oy»ga o‘xshash ikkita gajak qatorlashib turibdi! «Doloy SSSR!, ya’ni «Yo‘qolsin SSSR!» degan gap-ku bu!».

O‘YLAB KORING:

Suratda davlatga qarshi yozuv bo‘lganmidi?

Men hayajondan nafasim bo‘g‘ilib:

— Topdim, muallim, topdim! — deb baqirib yubordim.

Majruh o‘qituvchim tekis polda qoqilib-surinib oqsoqlana-oqsoqlana yonimga keldi. Sinf to‘la o‘quvchilar ham «gurr» etib o‘rnilaridan turdilar-da, ustimga yopirildilar.

Men xuddi bezgak tutgandek dir-dir titrab, ulug‘ shoirning jingalak sochlari orasidan topgan mudhish harflarni ko‘rsata boshladim. Nihoyat, ko‘rsatib bo‘lib, tengdoshlarimga mag‘rur qaradim. Sinfga cho‘kkan og‘ir sukunat ichidan to‘satdan o‘qituvchimizning:

— Malades! — degan xitobi eshitildi. — Hushyor pioner deb shuni aytadilar!

Hamma menga hasad bilan qarar, men o‘zimni chinakam qahramon his qilardim.

— Qani, daftarlaringni yig‘ib beringlar! Bir soatdan keyin sport maydoniga

butun maktab to‘planadi. Hammamiz birga bu mudhish daftarni yoqish marosimida qatnashamiz!

O‘qituvchimiz oqsoqlana-oqsoqlana sinfdan chiqib ketdi, lekin bir soat tugul ikki soat o‘tdi hamki, u qaytmadi. So‘ng daftarlarni yoqish marosimi boshqa kunga qoldirilipti, degan xabar keldi-yu uy-uyimizga tarqaldik.

Kechqurun men kunduzi bo‘lgan voqeani hayajondan entika-entika oyimlarga aytib berdim.

Oyimlar men kutgan maqtov o‘rniga:

— Hoy, bolam-ov, bolam-ov! — dedilar to‘satdan ko‘zlariga yosh olib. — Senga nima bo‘ldi, bolam-ov!

— Menga nima bo‘pti? Nega bunday deysiz, oyijon? — dedim ranjib.

— Hech nima... Iloyo dadangga o‘xshab qahri qattiq bo‘lma. Ollodan bitta-yu bitta tilagim shu, bolam.

TAHLIL QILING:

Nega onasi bunday dedi?

Oyimlarning gapiga yaxshi tushunmadim. Ertalab maktabga, to‘g‘rirog‘i, zalda osilgan hurmat taxtasiga qarab chopdim. Nadomatlar bo‘lsinkim, ro‘yxatga bir necha marta ko‘z yugurtirib chiqdim: yo‘q, na nomim, na suratim bor! Dushmanning yovuz kirdikorini fosh etgan hamma hushyor pionerlarning surati hurmat taxtasiga osilgan-u, bitta mening suratim yo‘q! Aftidan, kimdir hushyorlik qilib xalq dushmani farzandining suratini hurmat taxtasiga osish mumkin emasligini aytib, mendan ham hushyorroq bo‘lgan!

Mana, bu voqealarning sodir bo‘lganiga yarim asrdan ko‘proq vaqt o‘tdi. Shaxsga sig‘inish davrining ne-ne jinoyatlari fosh etildi. Bu jinoyatlar qanday dahshatli bo‘lmasin, nazarimda, ularning eng yomoni — kattalar yetmagandek, menday go‘daklarni ham hamma narsaga shubha bilan qarash, hammayoqdan yovuz kirdikorlar qidirishga qaratilgan urinishlar deb bilaman.

Nihoyat, dadamlar bilan vidolashadigan kun ham keldi. Vidolashishga uch

kishiga ruxsat berishgandi: oyimlar, katta opamlar va menga! Shu boisdan bo'lsa kerak, qarindosh-urug'lardan hech kim, na dadamlarning ukalari, na yor-do'stlari — hech kim kelmadi.

Oyimlar bilan opamlar kechasi uxlashmay, dadamlar uchun bug'doy talqon, so'k talqon va yana allaqanday narsalar tayyorlashdi. Chunki bu payt dadamlar ozod bo'ladi degan umid ojiz miltirab turgan shamday so'ngan, u kishini uzoqlarga olib ketishlari chamasi oyimlarga ayon edi.

Ertalab to'rva-xaltalarni ko'tarib qamoqxonaga qarab yo'l oldik. Bu safar bizni ko'p kuttirishmadi. Beliga choynakdak to'pponcha taqib olgan harbiy bizni uzun, tor, nimqorong'i yo'lakdan ichkariga boshladi. Yo'lakning yarmiga borganda o'ng qo'ldagi eshikni ochib, bizga yo'l berdi. Chog'roqqina to'rtburchak xonaning to'ridagi stol oldida gimnastyorka kiygan, sochlari oppoq bir odam allanimalarni yozib o'tirardi.

Dadamlar burchakda kursida o'tirgan ekanlar (men avval u kishini tanimay qolibman!) biz kirishimiz bilan dik etib o'rnidan turdilar. Azaldan barvasta, to'ladan kelgan, novcha odam bir-ikki oy ichida cho'pday ozib, lunjlari ichiga botgan, ko'zlari kirtayib, qiyg'ir burni so'rrayib qolgandi.

Yana qamalgan kechasidagidek yig'i-sig'i boshlandi. Oyimlar-ku, yuzini ro'moliga yashirib, jimgina titrab yig'lar, lekin opamlar... dadamlarning bo'yinlariga osilib olgan opamlarning faryodi tor xonani zir titratardi.

Keyinchalik marhum oyimlar ko'p aytguchi edilar:

— Noinsoflar jilla qursa yarim soat ham fursat bermadilar. Dadang sho'rlikning diydoriga ham to'y madik. Bergan chorak soatlari ko'z ochib yumguncha o'tib ketdi...

Bu safar chorak soat davom etgan vidolashuv davomida dadamlar biror marta Stalinning nomini tilga olmadilar, qamalgan kunlaridagidek: «Men partiya oldida gunohkor emasman! O'rtoq Stalin barhayot ekan, meni oyoqosti qilib qo'y maydi!», — demadilar. Bil'aks, bir necha marta ko'zlariga yosh olib:

— Meni kechir, Gulshan. Ayol boshing bilan besh bolani qanday boqasan —

aqlim bovar qilmaydi. Endi yuz ko‘rishimizga ham ko‘zim yetmaydi, kechir meni!
— dedilar.

O‘YLAB KO‘RING:

Nega dadasi kechirim so‘radi?

Har safar dadam shunday deganlarida stolga mukka tushib, allanimalarni yozayotgan kishi:

— Hoy, Yoqubov! — derdi qog‘ozdan bosh ko‘tarmay.— Senga nima bo‘ldi? Yosh bolamisan, Yoqubov!

Nihoyat, bu odam qarshisidagi devorga osilgan almisoqdan qolgan devor soatiga ko‘z tashlab:

— Fursat tugadi, Yoqubov. Endi xayrlashinglar! — deb buyurdi.

Opamlarning nidosi battar avjiga chiqdi. Oyimlar ozgina pul olib kelgan ekanlar, dir-dir titragan qo‘llari bilan dadamlarga tutdi, dadamlar esa:

—Bolalaringga yarat, Gulshan! — deb yolvorar edilar. Lekin oyim ko‘nmay, axiri pulni olishga majbur qildilar.

Oyimlar keltirgan pul bor-yo‘g‘i ellik so‘m bo‘lib, o‘nta besh so‘mlikdan iborat edi. Dadamlar pulni qiynala-qiynala olarkanlar, besh so‘mliklardan birini menga uzatdilar. Oyimlar pulni mendan olib, dadamlarga qaytarib bermoqchi bo‘lgandilar, dadamlar ko‘nmadilar, kaftlarini boshimga qo‘yib:

— Sen endi bu uydagi eng katta erkaksan, bolam, — dedilar va yana ko‘ziga yosh oldilar. — Oyingga yordamlashib, ukalaringga qarab turgin, bolam!

TAHLIL QILING:

“Sen endi bu uydagi eng katta erkaksan”. Dadasi nega bunday dedi?

Dadamlar shunday deb besh so‘mlikni cho‘ntagimga soldilar.

— Umrimda bir marta senga muzqaymoq olib bermoqchi bo‘lgan edim, bu ham nasib etmadi Bu pulga daftar-kitob ol! Qolganiga muzqaymoq olib ye, o‘g‘lim!..

Boyadan beri oyim va opamlarga qo‘shilib yig‘lashni o‘zimga ep ko‘rmay serrayib turgan bola, to‘satdan, xuddi dadamlarni olib chiqib ketayotgan paytlaridagidek yuragimda nimadir darz ketganday tuyuldi-yu, NKVD xodimining maqtovlari ham, aksilinkilobchilar kirdikorlarini fosh etgan hushyor pioner ekanligim ham — bari yodimdan chiqib, «Dadajon!», degancha otamning tizzasini quchoqlab oldim.

Bu mash‘um voqealardan keyin ko‘p yillar o‘tdi, ko‘p suvlar oqib ketdi. 1955 yili Xrushchyovning butun dunyoni larzaga solgan mashhur nutqidan keyin oilamiz, shaxsga sig‘inish zulmidan jabr chekkan million-million oilalar kabi dadamlarning taqdirini, o‘lik yo tirik ekanini (ungacha yozgan o‘nlarcha xatlarimizning bittasiga ham javob ololmagandik) so‘rab, yuqori tashkilotlarga murojaat qildik.



SSSR boshlig‘i
Nikita Xrushchyov
Stalin davri
qatag‘onlarini fosh
qilib nutq
so‘zlagan

Maktublarning bittasini Qozog‘iston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasiga, ikinchisini SSSR Davlat xavfsizligi qo‘mitasiga yo‘lladik. Taxminan to‘rt-besh oydan keyin birin-ketin ikkita javob keldi. Javoblarning birinchisi Qozog‘iston Markaziy Qo‘mitasidan bo‘lib, unda dadamlarning partiyaviy ishi ko‘rib chiqilgani, u kishi Stalin shaxsiga sig‘inish qurboni bo‘lganligi e‘tirof etilgan va 1918-yildan e‘tiboran partiya a‘zosi sifatida tiklangani xabar qilingan edi.

Ikkinchi javob Moskvadan, Davlat xavfsizligi qo‘mitasidan bo‘lib, unda aytilishicha, dadamlar Uzoq Sharqdagi qaysi bir o‘rmon xo‘jaligida daraxt kesuvchi bo‘lib ishlagan, 1943-yil qish oylarida (vaqti aniq aytilmagan) daraxt kesayotgan paytida yiqilib vafot etgan.

Birinchi javobdan farqli o‘laroq, bu xatda shunday ilova ham bor edi. Agar validamiz (men yozgan xat, tabiiy, oyimlar nomidan bitilgan edi) nafaqa yoshida bo‘lsalar, u kishiga davlat tegishli miqdorda nafaqa to‘laydi. Agar oyimlarning turar joyi bo‘lmasa, u kishi qo‘mitadan kelgan ushbu javob asosida shahar kengashiga murojaat qilib, navbatsiz uy oladilar...

Har ikkala xat ham haqiqatni qaror toptirish, adolatni tiklashga qaratilgan edi.

Ammo men negadir, ehtimol, Uzoq Sharqda olti yil oddiy soldat bo‘lib, butun qiyinchiliklarni boshimdan o‘tkazganim uchundir, nogahon o‘zim ko‘rgan bepoyon sovuq o‘rmon, qor tagida egilib turgan daraxtlar, qish ko‘z oldimga keldi. Bir zum nigohim oldiga bu qorong‘i o‘rmonda behol imillab daraxt kesayotgan dadamlar keldi, keldi-yu, alam, iztirob, mehr-shafqat va xo‘rlik tuyg‘ulari toshqinday guvillab vujudimni qaqshatib yubordi.

«Yo‘q! Bu nopoklar 1918 yildan firqa a‘zosi bo‘lmish otamni nohaq qamaydilar, qariganida ham ozod qilishni istamay, qahraton qishda ham o‘rmon kesdirib, o‘limga mahkum etadilar-u, endi o‘z gunohlarini yuvish umidida judolik azobidan ikki bukilib qolgan bevasiga nafaqa to‘larmishlar, boshpana berarmishlar! Yo‘q, men bitta onamni ular bergan sadaqasiz ham boqib olaman, ularsiz ham boshpana topib beraman!»

Xayolan shunday deb, yaxshi niyat bilan yozilgan ikki xatni burda-burda qilib yirtib tashladim...

BAHO BERING:

Hikoya qahramoni to‘g‘ri ish qildimi?

ASARNI O‘QIB BO‘LGACH ...

- Quyida Pushkin o‘limining yuz yilligiga bag‘ishlab chiqarilgan daftar muqovasi berilgan. Muqovadagi Pushkin suratidan “Doloy SSSR” (Долой СССР) degan yozuvni topishga urinib ko‘ring.

- Badiiy asarda bayon qilinayotgan voqealardan oldin bo‘lgan voqeani eslash **retrospektiva** yoki **fleshbek** (inglizcha “flashback” - “ortga nazar”) deyiladi. Asarda retrospektiva qo‘llanilgan



o‘rinni toping. Ushbu epizodsiz asar mazmunini to‘liq tushunish mumkinmi?

- Asardagi voqealar bola tilidan hikoya qilingan. Voqealarni boshqa qahramonlar

(otasi, onasi, otasining SAKUda birga o‘qigan orto‘qlari) nomidan hikoya qilib ko‘ring.

- Asarning **kulminatsion** (eng yuqori) nuqrasini topib, sahnalashtiring.
- Surgundagi otasi nomidan o‘g‘liga va o‘g‘li nomidan surgundagi otasiga xat yozing.
- Quyida rus shoiri Osip Mandelshtam 1930-yillarda yozgan she‘r keltirilgan. Bu she‘r shoirning qamoqqa olinishiga sabab bo‘lgan. She‘r “Muzqaymoq” hikoyasida tasvirlangan davr ruhiyatini qay darajada aks ettirgan? She‘rda “tog‘lik” deb kim nazarda tutilgan?

Yashaymiz Vatanni goh sezib-sezmay,
Biroq ruhi hargiz ustivor kezgay.

Kremlidagi tund tog‘likni nogoh
Eslab, qudrat nima – bo‘lurmiz ogoh.

Uning barmoqlari misli semiz qurt,
Uning har so‘zidan titrar buyuk yurt.

Suvaraknikidek ko‘zlari nurli,
Cho‘tir chehrasida shahd bor huzurli.

Tegrasi serta’zim dahochaladir,
Qahr-la mahv etar ularni bir-bir.

Arkonlar so‘z demoq payida garchand,
Faqat uning gapi hukmron, baland.

Nag'al ulashgandek tarqatar farmon,
Kimgadir qalqon bu, kimga – laxta qon.

Kimdir – yer ostiga, kimdir – yuqori,
Shundan surur tuyar tog'lik viqori.

ADABIYOT VA TARIX

Stalin davrida SSSRda hukm surgan tuzum tarixda **totalitar tuzum** deb nomlanadi. Asarni o'qish davomida o'rganganlaringizga tayanib totalitar tuzum va fuqarolik jamiyatining xususiyatlarini solishtiring. Jadvalni davom ettiring.

Totalitar tuzum	Fuqarolik jamiyati
Odamlar sud hukmigacha ham aybdor deb e'lon qilinishi mumkin	Faqat sud birovning aybdor yoki aybsizligini hal qilishi mumkin

ADABIYOT O‘QITUVCHISIGA:
“MUZQAYMOQ” HIKOYASI BOYICHA NAMUNAVIY DARS
ISHLANMASI TAHLILI

Muzqaymoq hikoyasi asosida berilgan namunaviy dars ishlanmasini tahlil qiling:

1. O‘qishdan oldin qanday topshiriqlar berilgan va bu topshiriqlarning maqsadi nima?
2. O‘qish davomida beriladigan topshiriqlarning qaysi turidan foydalanilgan? Bu strategiya o‘quvchilarga asarni tushunishda qay darajada yordam beradi?
3. Asarni o‘qish davomida qoyilgan savollar asarning tugun nuqtalarini qamrab olganmi? Siz asarning qaysi nuqtalariga savollar qo‘ygan bo‘lardingiz?
4. O‘qib bo‘lgandan keyingi topshiriqlarning qanday turlari ishlatilgan va ular nima maqsadga xizmat qiladi?
5. O‘qish davomidagi va o‘qishdan keyingi topshiriqlar kognitiv qobiliyatlarning yuqori bosqichlarini qamrab olganmi?
6. Adabiyot nazariyasining asarni yaxshiroq tushunishga yordam berishi ta’minlanganmi?
7. Personalizatsiyaga qaratilgan topshiriqlar mavjudmi? Siz asarni o‘quvchi hayoti bilan bog‘lash uchun qanday savol va topshiriqlardan foydalangan bo‘lardingiz?
8. Adabiyotning boshqa fanlar bilan integratsiyasi qanday ta’minlangan?
9. Asar bo‘yicha kulminatsion topshiriq mavjudmi? Siz qanday kulminatsion topshiriq bergan bo‘lardingiz?

“ABULFAYZZON” DRAMASI BO‘YICHA NAMUNAVIY DARS

ISHLANMASI¹¹

ABDURAUUF FITRAT (1886 - 1938)

Davlat arbobi, shoir va olim, nosir va dramaturg, ma’rifatparvar Abdurauf Abdurahim o‘g‘li (adabiy taxallusi – Fitrat) 1886 yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. Dastlab maktabda o‘qigan Fitrat keyinchalik o‘sha davrning mashhur ilm maskani Mir Arab madrasasida tahsil oldi. Madrasada o‘qish davrida Qrim, Qozon, Boku, Istanbul shaharlaridan keltirilgan gazeta va jurnallar bilan muntazam tanishib bordi va uning

Eslang: Jadidchilik qanday oqim edi? Uning asosida qanday maqsadlar yotardi?

dunyoqarashi, ongi va tafakkuri mazkur nashrlarda targ‘ib etilgan jadidchilik qarashlari ta’sirida shakllandi. 1902-yilda haj ziyoratiga jo‘nab ketgan Fitrat Arabiston, Turkiya, Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Kavkazorti davlatlari, keyinchalik Rossiyaning yirik shaharlari bo‘ylab sayohat qildi. 1909-1913-yillarda Istanbul universitetida o‘qidi va u yerda ham jadidchilik ruhidagi she’rlar, maqolalar yozdi. Istanbulda o‘qigan davrida yurtdosh va maslakdosh talabalar bilan birgalikda “Buxoro ta’limi” jamiyatini tashkil qildi. “Sayha” (“Chorlov”) she’riy to‘plami (fors tilida va bir qancha publitsistik asarlarini chop ettirdi.

“Yosh buxoroliklar” –XX asr boshlarida Buxoroda paydo bo‘lgan milliy-demokratik harakat

Fitrat
(arabcha)– donishmand



¹¹ Z.Mirzayeva, K.Jalilov, S.Qambarova. Adabiyot. Filologiya fanlariga ixtisoslashgan maktablarning 11-sinfi va akademik litseylarning 2-bosqichi uchun darslik. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasdiqlagan. Toshkent, 2019 yil.

*Sizningcha, Fitrat
“Tong” jurnali uchun
nega aynan shu
shiori tanlagan?*

O‘qishni bitirib Buxoroga qaytgan Fitrat maktabda o‘qituvchilik qildi, “Yosh buxoroliklar” harakatida faol ishtirok etdi, uning bosh mafkurachisi, g‘oyaviy yo‘lboshchilaridan biriga aylandi. 1917 yilda Buxoro amirligida u va uning izdoshlari uchun vaziyat taranglashgach, dastlab Samarqandga, keyin Toshkentga ketdi va “Chig‘atoy gurungi” adabiy-ma’rifiy tashkilotida faol ishtirok etdi. Bu davrda “Tong” jurnalini chop qilishni boshlaydi. Bu jurnalning shiori “Miya o‘zgarishguncha boshqa o‘zgarishlar negiz tutmas!” edi. Buxoro amirligida siyosiy tuzum, maorif, adliya sohalarini isloh qilish rejalarini tuzishda ishtirok etdi.

Buxoroda amirlik ag‘darilgandan keyin Fitrat Buxoro Xalq Sovet Respublikasida bir qancha vazirliklarda rahbar lavozimlarda ishladi, Buxoro yoshlarini Germaniyaning oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga yuborishni tashkil qildi. 1923-yilda avval Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg), so‘ng Moskvaga ketib, Sharq tillari institutida (hozirda Moskva davlat universitetining Osiyo va Afrika mamlakatlari instituti) dars berishni boshladi, badiiy ijod va ilmiy faoliyat bilan shug‘ullandi. 1924-yilda o‘zbek ziyolilaridan birinchi bo‘lib professor unvonini oldi. Keyinchalik Samarqandda va Toshkentda oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ishladi.

**Buxoro Xalq Sovet
Respublikasi –**
Buxoro amirligi
o‘rnida tashkil topgan
davlat (1924 yilqacha)

SSSRda 1930-yillarda hukm surgan qatag‘onlar paytida Fitrat “xalq dushmani”, “josus” sifatida qamoqqa olinib, 1938-yilda Toshkentda qatl qilindi. 1962-yil unga qo‘yilgan ayblar asossiz ekanligi isbotlanib, o‘limidan so‘ng nomi oqlandi.

*Men sening uchun tirildim,
Sening uchun yasharman,
Sening uchun o‘lurman!
 (“Yurt qayg‘usi”, 1917)
Sizningcha, Fitratning hayoti uning
mazkur satrlarida qay darajada aks
etgan?*

Fitrat o‘zbek va fors tillarida ijod qilgan. Uning adabiy merosi she‘rlar, dramatik asarlar, hikoyalar va ocherklarni o‘z ichiga oladi. Olim sifatida Fitrat tilshunoslik, adabiyotshunoslik, musiqa ilmi, Islom dini tarixi bo‘yicha bir qancha ilmiy asarlar yozib qoldirgan, maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanmasi nashr etilgan.

Fitrat xoriyda eng ko‘p o‘rganilgan jadid ijodkorlaridan biridir.



“Istiqlol fidoyilari” turkumidan Abdurauf
Fitratga bag‘ishlangan hujjatli filmni
“YouTube”da tomosha qilish

O'QISHGA




TAYYORLANAMIZ ...

Siz o'qiydigan asar -
“**Abulfayzxon**”
dramasida XVIII asr
o'rtalarida Buxoro
xonligida ro'y bergan
voqealar -
Ashtarxoniylar sulolasi
hukmronligi tugab,
hokimiyat Mang'itlar
sulolasi qo'lga o'tishi
haqida hikoya qiladi.

Eslang: Buxoro xonligi
qachon va qanday
paydo bo'ldi?

Quyida
ensiklopediyadan
olingan ma'lumot bilan
tanishib chiqing.

Shayboniylardan keyin
Buxoro xonligini
boshqargan **Ashtarxoniylar** davrida siyosiy nizo va beboshliklar



Fiti
“A
da

an
k
il)



mang'it – o'zbek
urug'laridan biri

deyarli to‘xtamaydi. Xonlikda siyosiy va iqtisodiy ahvolning yomonlashishi ichki ziddiyatlarni kuchaytirib yuboradi. Fitna natijasida o‘ldirilgan Ubaydullaxonning ukasi **Abulfayzxon** taxtga o‘tqazilgach, hokimiyatdagi muhim lavozimlar nufuzli amirlar qo‘liga o‘tib qoladi. Markaziy hokimiyat zaiflashib, bir qancha hududlar xonlikdan ajralib chiqadi. Bundan foydalangan Eron hukmdori **Nodirshoh** 1740-yil Buxoro xonligini bo‘ysundiradi va mang‘itlardan bo‘lgan **Muhammad Hakim** otaliqni ishonchli vakili qilib tayinlaydi. Abulfayzxonning nufuzi pasayib ketadi. 1747-yilda otasi o‘rniga otaliq etib tayinlangan **Muhammad Rahim** boshliq fitnachilar Abulfayzxonni o‘ldiradilar. Bundan norozi bo‘lgan viloyat hokinlari isyon ko‘taradilar. Qo‘zg‘olonlar shafqatsiz bostirilgach, Muhammad Rahim arkoni davlat va ruhoniylar fatvosi bilan 1753-yilda Buxoro taxtini egallaydi va o‘zini “amir” deb e‘lon qiladi. Shundan keyin ashtarxoniylar sulolasi barham topib, **mang‘itlar** sulolasi hukmronligi boshlanadi. Mang‘itlar davlatni 1920-yilgacha - sovet qo‘mondoni Frunze Buxoroni egallaguncha boshqaradilar. So‘nggi amir Said Olimxon Afg‘onistonga qochadi va Buxoro amirligi o‘rnida **Buxoro Xalq Sovet Respublikasi** e‘lon qilinadi.

“O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”dan

*Markaziy Osiyo xaritasi.
VII asr.*

*Buxoro xonligi hozirgi qaysi
davlatlarning hududlarini
qamrab olgan edi?*



“Abulfayzxon” dramasi 1924-yilda yozilgan.

Eslang: 1924-yilda O’rta Osiyo siyosiy xaritasida qanday muhim o’zgarishlar ro’y berdi? Buxoro davlatining keyingi taqdiri nima bo’ldi?

Bilasiz, ko’p jadidlar tarixiy mavzularga murojaat qilishgan. Jadidlarning **moziyga qiziqishiga sabab** nima deb o’ylaysiz?

“Abulfayzxon” dramasi o’zbek tilida **tarixiy drama** janrida yozilgan birinchi asar hisoblanadi.

Eslang: qanday dramatik asarlarni o’qigansiz? Dramatik asarning o’ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Dramatik asar sahnada ijro etish uchun yoziladi. Unda muallif nutqi minimal darajada bo’lib, faqat sahnani tasvirlash va aktyorlarga rolni qanday ijro etish kerakligini ko’rsatish uchun ishlatiladi. Obrazlarning ichki kechinmalari, hissiyotlari, shaxsiyati ularning sahnadagi gaplari (dialoglar, solilokvuylar, monologlar) va xatti-harakatlari orqali tasvirlanadi.

Solilokviy—dramada qahramonning o’z-o’ziga qaratilgan nutqi. Solilokvuy ko’pincha qahramon muhim tanlov qarshisida turganda ijro etiladi. Solilokviyni asardagi boshqa qahramonlar go’yoki “eshitmaydi”.

Monolog – qahramonning tomoshabinlarga yoki boshqa qahramonlarga qaratilgan, javob talab qilmaydigan nutqi.

Asarni o’qish davomida asosiy obrazlarning sahnadagi gaplari, xatti-harakatlariga e’tibor bering. Ularning sizningcha, eng muhim bo’lgan, obraz xarakterini ochib beradigan bir-ikki gaplari, xatti-harakatlarini ajratib oling va quyidagi jadvalni to’ldiring. Asarni o’qib bo’lgandan keyin jadvalingizni partadoshingiz jadvali bilan qiyoslang. Qaysi o’rinlarda fikringiz bir joydan chiqdi va qaysi o’rinlarda farq qildi?

Obraz	Eng muhim gapi	Eng muhim harakati	Bu gapi, xatti-harakati obrazni qanday xarakterlaydi?	Qaysi pardada berilgan?
Abulfayzxon				
Ibrohimbiy				
Hakimbiy				
Rahimbiy				

Ulfat				
Qozi Nizom				
Nodirshoh				

Dramatik asarni o'qish davomida o'zingizni rejissyor sifatida tasavvur qilib, asarni xayolingizda "sahnalashtirish" uni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Buning uchun quyidagi strategiyalarni ishga soling:

Vizualizatsiya (xayolda tasavvur qiling)

Sahnada nimani ko'ryapman?

Qahramonlar qanday kiyingan? Ular sahnada qanday harakat qilishadi, qanday gapirishadi, o'zlarini qanday tutishadi?

Quloq tuting

Aktyorlar qanday gapirishi kerak?

Rollarini ijro etayotganida qaysi so'zlarga urg'u berishi, obrazning ichki kechinmalarini ovoz orqali qanday yetkazib berishi kerak?

O'zingizga o'zingiz savol bering

Nima bo'lyapti o'zi?

Qahramon nega bunday deyapti yoki qilyapti? Uning maqsadi nima?

Hayot bilan bog'lang

Hayotimda shu obrazga o'xshagan insonlarga duch kelganmanmi?

Shu vaziyatda men nima qilgan bo'lar edim?

Bashorat qiling

Keyin nima bo'ladi?

Kim nima deydi, nima qiladi, o'zini qanday tutadi?

Tahlil qiling

Bu obrazni muallif qanday tasvirlayapti?

Sahnadagi voqealar bilan muallif tomoshabinlarga nima demoqchi?

Kechinmalaringizga quloq

Bu asar menda qanday taassurot qoldirdi?

tuting

Bu asarda menga nima yoqdi? Nima yoqmadi?

“Abulfayzxon” dramasini o‘qish jarayonida ushbu strategiyalarni sinab ko‘ring.



*“Mirzo Ulug‘bek” spektaklidan
lavha*

*O‘qish davomida asarni
xayolingizda “sahnalashtirib”
ko‘ring. Sahna bezaklari, ularning
joylashuvi, aktyorlarning xatti-
harakatlari, tovush effektlarini aniq
rejalashtirishqa urining.*

ABULFAYXON

Yo'qsul o'lkaniing tarixidan besh pardali fojia

KIMSALAR*

Abulfayzxon — Buxorodagi o'zbek xonlarining so'nggisi; qirq-ellik yoshlarida.

Ulfat — xonning xo'jasaroyi (haram boshlig'i); qirq-ellik yoshlarida.

Davlat to'qsoba — xonning yaqin xizmatchilaridan.

Qozi Nizom — Buxoroning qozi kaloni. Ellik-oltmish yoshlarida.

qozi kalon – bosh qozi
(sudya)

Hakimbiy — xonning inog'i, so'ngra otalig'i; ellik-oltmish yoshlarida.

Rahim qo'rchi — so'ngra to'qsoba, so'ngra otaliq. Hakimbiyning o'g'li; o'ttiz-qirq yoshlarida.

qo'rchi – saroyda
qurol-aslahalarga
javobgaramaldor
to'qsoba (to'qsabo)–
saroyda taomlarni
nazorat qilib turgan
amaldor
inoq – saroyda yuqori
mansablardan biri

Mir Vafo — Rahimxonning hukmronlik tarixiga bag'ishlangan “Tuhfai xoniy” asarining muallifi. Hakimbiyning odami, ellik-oltmish yoshlarida.

Donyolbiy — Hakimbiyning ukasi; qirq-ellik yoshlarida.

Ibrohim inoq — so'ngra otaliq; oltmish-ettmish yoshlarida.

Tog'ayqulbek — mang'it beklaridan.

mang'it – o'zbek
urug'laridan biri

Xo'ja Kalon — mashhur xo'jalardan.

Oxund — Buxoroning katta mullasi.

Nodirshoh — Eron shohi.

Rizoqulixon — Nodirshohning o'g'li.

Mirzo Mahdi — shohning bosh kotibi.

Aliqulixon, Husaynixon, Ahmadxon — Eronning qo'shun boshliqlari.

Abdumo'minxon — Abulfayzxon o'g'li, 15 yashar.

tilchi – ayg'oqchi

Yo'ldosh, Ergash — qalandar kiyimlik tilchilar, Hakimbiyning odamlari.

*Qatnashuvchilar
ro'yxatidan asar
voqealari asosan
qayerda bo'ladi deb
xulosa chiqarish
mumkin?*

Qorovullar, xizmatchilar, jallodlar, cholg'uchilar.

* *E s k a r m a* : Bundagi voqealarda birinchi parda bilan ikkinchi parda orasida yetti yil, ikkinchi, uchinchi pardalar bilan to'rtinchi, beshinchi pardalar orasida bir yil zamon o'tkandir. Shuning uchun kimsalarning yoshlarini yozg'anda qirq-ellik, oltmish-etmish deb o'n yillik ochiqlik qoldirildi — (Fitrat).

BIRINCHI PARDA

Kecha. Buxoro arkinda
qabul.

Abulfayzxonning uyi
shohona to'shalib,
bezangan. O'rtada
osilgan muhtasham
"Chil chirog'"ning
butun shamlari yonib
turadir. Uyning
o'rtasida, kichkina
kursichaning ustindag'i
shamdonchada yonib
turg'an shamning
oydinlig'i ostinda U l f
a t x o' j a s a r o y, M
i r V a f o ham Q o z i
N i z o m taxta o'ynab
turalar. Tashqarida
cholinib turgan
cholg'ular bir ozdan
keyin sekinlashar,
so'ngra bitar.

taxta –



Q o z i N i z o m.
Kisht! (*Bir dona
surar.*)

M i r V a f o. E... otimiz ketdi-ku!

U l f a t. Podshohi olam eson bo'lsalar, yana ot topilar.

Q o z i N i z o m. Tangri xoqonimizg'a esonliq bergay.

U l f a t. Omin (*bir dona surar*).

M i r V a f o. Shu kecha tushimda xoqonimizni ko'rdim, bo'z bir otg'a mingan, qo'llarinda qilich, yiroqlarg'a qarab turg'anlar edi.

Q o z i N i z o m. Xudo xohlasa, yiroq yerlargacha borib, ko'b o'lkalarni olarlar.

U l f a t. Nafas muborak, omin.

M i r V a f o. Kisht! (*Bir dona surar.*)

Q o z i N i z o m. Mana, emdi ish qiyinlashdi!

Hammalari taxtaga tikilalar. A b u l f a y z x o n ichkari uylaridan juda og'ir bosib chiqar, o'tirg'anlarga qarab yurar, hammalari turub qo'l qovushturalar.

A b u l f a y z x o n. Qani, kim kuchli?

U l f a t. Xoqonimizning ikkala qullari ham yaxshi o'ynaylar.

X o n. Sen qaysi tomonda?!

U l f a t. Men xoqonimizni olqab tomosha qilib turaman, hech bir yoqqa qo'shulganim yo'q.

Xon qaytib, katga chiqar. Yonboshlab, bir qo'lini boshig'a tirkab uzonar. Kuchli bir qayg'u ostinda ezilib turg'ani ko'runadir.

M i r V a f o. Kisht! (*Bir dona surar. O'yunchilar singirlanib, taxtag'a qaraylar.*)

X o n. Kim o'tdi?!

U l f a t. Mir Vafo qulingiz o'tdilar.

Xon boshini qimirlatur. O'yunchilar taxta boshindan turub, uyning eski yoqasindagi ko'rpalarga o'turalar. Xizmatchi kirib, taxtani hamda kursicha bilan shamdonni olib chiqar.

X o n (Qozi Nizomga). Farhod otaliqni ko'rdingizmi?

*Ark – Buxoro
hukmdorlarining
qarorgohi*

*Mir Vafo haqiqatdan
ham tushida xonni
ko'rgan, deb
o'ylaysizmi?*

*Xonning ruhiy
holatiga e'tibor
bering. Buning
sababi nimada deb
o'ylaysiz?*

**kat – so'ri,
karavot**

Q o z i N i z o m. Hazratimning buyruqlari bilan borib ko‘rgan edim.

X o n. Nima qildingiz?

Q o z i N i z o m. Otaliq qulingiz bilan uzun so‘ylashdim, hazratim buyursalar, hammasini arz qilayin.

X o n. Aytingiz.

Q o z i N i z o m. Bordim, ko‘rushdim, so‘yladim: “Siz xoqonimizning eng ishonchli qullari bo‘lasiz. Xoqonimizning muborak mijozlarig‘a yoqmayturg‘an ishlar qilar ekansiz. Eron qo‘shuni Qarshidan qaytqondan so‘ngra, sizning yurush-turushingiz boshqacha bo‘lg‘an ekan”, dedim.

Farhod otaliq Eron qo‘shini haqida nima demoqchi?

X o n. “Eron qo‘shunini Qarshidan qaytarg‘an yolg‘uz sen emassan”, demadingizmi?!

Q o z i N i z o m. Uni ham aytdim. “Nodir shoh tomonidan yuborilg‘an qo‘shunning Qarshidan qaytishi uchun sizgina emas, Hakimbiy inoq ham ko‘b tirishdilar”, dedim.

X o n. Nima dedi?!

Q o z i N i z o m. Otaliq qulingiz bu so‘zimga kulubgina qaradilar. “Eron qo‘shuni ikki-uch bekninggina tirishmagi bilan yurtimizdan chiqmadi”, dedilar.

M i r V a f o. Xoqonimiz juda yaxshi biladilarkim, Nodir shoh qo‘shunining tuprog‘imizdan chekilishiga Hakimbiy inoq qullari ko‘b tirishdilar. Otaliq shuni ko‘rmak istamaylar chog‘i!

Q o z i N i z o m. Otaliq deylarkim, Eron qo‘shunini tuprog‘imizdan biz chiqarmadiq, o‘zi chiqdi.

X o n. Nima... O‘zimi chiqdi?!

Q o z i N i z o m. Otaliq qulingiz shunday deylar: “Eronning, — deylar — yangi to‘p, miltiqlar bilan yaroqlang‘an qo‘shuni bizning qo‘shunimizni buza olg‘an bo‘lsa ham, o‘zbekning boturlig‘ini bilg‘ani uchun, hurkub tura edi. Bizga yordam uchun Xiva qo‘shunining ham Buxorog‘acha kelganini eshitg‘ach, butun qo‘rqdi, ustaliq bilan urushni yotquzdi-da, qaytib ketdi. Bu ishda menim-da, Hakimbiy inoqning-da ayricha xizmatimiz Xiva qo‘shuni Buxorog‘a kelgancha urushni uzatib turmoq bo‘ldi. Men Eron qo‘shunini qaytardim deb, kattalik qilmag‘anim kabi, xonimizdan yoshirung‘ina Nodir shohg‘a elchilar yuborib, xabarlashibda turmadim”.

X o n. Kim Nodirg‘a elchi yuborg‘an ekan?!

Q o z i N i z o m. Otaliq qulingizning soʻzlariga koʻra, Hakimbiy inoq shunday qilgʻan boʻlsalar kerak.

X o n. Ul menga doʻst boʻlsa, nega bukungacha qizini yubormaydir?!

Q o z i N i z o m. Uni ham soʻradim.

X o n. Nima dedingiz?!

Q o z i N i z o m. “Molimizni, jonimizni xoqoni olamning muborak oyoqlarinda qurbon qilmoq hammamizgʻa lozimdir. Shuni qilmagʻanda, sultonimizning chin qullari boʻla olmaymiz. Siz shuncha kundan beri bittagina qizingizni tortuq qilmay turasiz”, dedim. Otaliq bu soʻzni eshitgʻach, yomon qizidilar. “Xonga yaxshi koʻrunmak uchun qiz qurbon qilguchilar koʻb, shunlarning qizlarini oldira beringiz”, dedilar.

X o n. Oʻzi yubormaydir. Yuborgʻanlarga soʻz ham otadir.

*Farhod otaliq nega
“nomusimizni ham
istamasinlar” degan?*

U l f a t. Yomonning bir qilgʻi ortuq!

Q o z i N i z o m. “Biz xon hazratlarigʻa oʻzimizni qurbon qildik, emdi nomusimizni ham istamasunlar”, dedilar. Men aytdimki...

X o n (*soʻzini kesib*). Bas!.. Yegan tuzlar koʻr etsun uni... Kimni tuproqdan koʻtarib, kursiga chiqarsaq, tezgina boshimizgʻa chiqmoqchi boʻladir.

U l f a t. Xoqoni olam! Unlarni yana tuproqgʻa qaytarmoq sizning qoʻlingʻizdadir.

X o n. Yaxshikim, bunlarning oʻlimi qoʻlimizdadir. Yoʻqsa oz zamonda bizni eshak qilib minmak istaylar!!!

U l f a t. Xoqonimizgʻa maʼlumdirkim, podshohlik qon bilan sugʻorilaturgʻan bir ogʻochdir. Qon oqib turmagʻan yerda bu ogʻochning qurub qolishi aniqdir.

ogʻoch –

X o n (Ulfatgʻa). Tur joyingdan. Tez ket. Besh daqiqadan keyin Farhod otaliq boshini kelturasan. Qanday istasang, shunday ishla! (Ulfat qulluqlab chiqar.) Men tinchgʻina turayin deb, akamni oʻldirdim. Emdi bir-ikki buzuqbosh chiqib, menim tinchligʻimni buzmoq istaylar! Qoʻyaman sizni!

*Ulfat qanday odam
deb oʻylaysiz?*

Q o z i N i z o m. Xoqoni olam! Otaliq eski bir qulingizdir. Kichkinagina bir erkalik qilgʻani uchun uni oʻldirmak nechuk boʻlar ekan?

X o n (*Qozining soʻzini eshitmagandek bir oz oʻylagʻandan soʻng*). Farhod otaliqni eski bir

qulimmi, dedingiz?!

Qozi N i z o m. Hazratim karomat qildilar.

X o n. Farhod otaliq xitoy qipchoqning boshlig'idir, bilmaysizmi?!

Q o z i N i z o m. Hazratim yaxshi biladirlar.

X o n. El boshlig'i bo'lg'an beklarim menga qul bo'lmaylar, unlar o'z ellarig'a toyanib, tutash menga yomonliq qilmoqchi bo'lalar.

chag'ir – may,
sharob

Q o z i N i z o m. Tavba qildim!

X o n. Buxoroda el boshliqlari bo'lmaganda, men tinchg'ina xonliq sura olar edim. Menim butun qayg'ularim shunlardandir. Otam sotib olg'an qullar mana Ulfat bilan Davlat. Ko'ringiz-chi, men chizg'an chiziqdan chiqardirlarmi?

Q o z i N i z o m. Albatta, chiqmaylar.

X o n. Emdi kimni otaliq qilishimiz kerak, siz shuni aytingiz, boshqa gaplarni qo'yabering!

Q o z i N i z o m. Tangri xoqonimizg'a esonliq bergay. O'zlari yaxshi biladirlar.

M i r V a f o. Hazratim, albatta, yaxshiroq biladirlar. Mang'itlardan Hakimbiy inoq, qalmoqlardan Jiyanqulibiy, kenagaslardan Ibroqimbiy qullari bor.

mang'it,
qalomoq,
kenagas – o'zbek
uruq'lari

X o n. Jiyanqul bo'lmaydir. Hakimbiy bilan Ibrohim kenagasdan bittasini qo'yarmiz. ... To'xta, domullo! Menim yonimda har kun maxtab turg'aning Hakimbiy inoq Nodir shoh bilan nechun xabarlashadir?!

M i r V a f o. Bu so'z to'g'ri bo'lmasa kerak.

X o n. Boya qozining Farhod otaliqdan kelturgan xabarlarini eshitmadingmi?!

M i r V a f o. Farhod boshliq o'zining o'lumini bilg'an bo'lsa kerak. Qutulmoq uchun shunday so'ylagandir.

X o n. Men boshqa joylardan ham eshitdim, to'g'ri so'yla!

M i r V a f o. Hazratim eson bo'lsunlar. Inoq qulingiz bunday ishni o'ylamag'an bo'lsalar kerak. Menim hech xabarim yo'q. Shuni juda yaxshi bilamankim, inoq qulingiz xoqonimizning muborak xizmatlarini har narsadan ortuq ko'radirlar.

X o n (*tashqariga qarab*). To'qsobani chaqir, kelsun

Davlat to‘qsoba kelar.

Yotishda kimlar bor?!

D a v l a t. Ibrohimbiy bilan Rahim qo‘rchi bor.

yotish – saroydagi mehmonxona

X o n. Ikkovini ham olib kel. So‘ngra bizga bazm qilib ber!

Davlat to‘qsoba chiqar.

Mana shul Davlat bilan Ulfat kabi o‘nta odamim bo‘lsa edi, Buxoroni tinchg‘ina saqlar edim. Ishning yo‘llarini bilalar, teran tushunalar. Yomonliq, yog‘iyliqni esa sira o‘ylamaylar.

yog‘iy – dushman

Q o z i N i z o m. Hazratim marhamat qilsalar, hamma qullari ham shunday ishlaylar.

Davlat to‘qsoba chag‘ir bilan piyolalarni kirgizadir. Ketindan uch tanburchi, bir rubobchi, ikki naychi, bir dafchi, birda o‘yinchi qiz kirarlar. Hammalari o‘turgach, bazm boshlanadir.

Davlat uch piyoladan chag‘ir tarqatadir. Bazm bitkach, o‘yunchi, cholg‘uchilar qulluqlab chiqarlar. Ulfat piyolalarni chiqarar.

X o n (*juda teran bir tushunchadan ayrilib*). Rahim qo‘rchi, otangiz qalay?

R a h i m q o‘ r c h i. Hazratimni duo qilibturadirlar.

X o n. Yaqinda Erondan sizga qo‘noqlar kelganmi?!

qo‘noq – mehmon

R a h i m q o‘ r c h i. Hazratim karomat qildilar.

Mir Vafo telbalanadir.

Mir Vafo nega bezovta bo‘lyapti deb o‘ylaysiz?

X o n. Kim ekan unlar?!

R a h i m q o‘ r c h i. Qarshi urushinda Eron qo‘shunidan bir-ikki kishi bizning tomong‘a tutulg‘an edilar. Inoq otam unlarni ozod qilg‘an edilar. Shunlar savdo uchun Buxorog‘a kelgan ekanlar. Yaxshiliqni unutmag‘anlarini ko‘rsatgali otamni kelib ko‘rdilar.

X o n. Tuzuk... Yaxshiliq, albatta, unutilmaydir. (*Bir oz to‘xtab.*) Biz Farhod otaliqqa shuncha yaxshiliq qildi, bittasini ham bilmadi. Yana bizg‘a xiyonat qila boshladi. Eng so‘ng o‘z boshini yeydi.

Rahim qo‘rchi bilan Ibrohimbiy shoshqin tinglaydilar.

Farhod otaliqni o‘rundan tushurdik. O‘z jazosini yaqinda ko‘rar. Uning o‘rninda, Ibrohimbiy, seni otaliq qildi. Rahim qo‘rchi, senga ham to‘qsobaliq berdiq. Inoq, otang ham yaqinda katta mehribonchilik ko‘rarlar.

Ikkalasi turub, qulluq qilarlar.

I b r o h i m b i y. Hazrating‘a arzim bor.

X o n. Ayt!

I b r o h i m b i y. Otaliq o‘rni juda katta o‘run, men bajara olmayman.

Ibrohimbiy nega mansabdan voz kechyapti deb o‘ylaysiz?

X o n. Nega bajara olmaysan, uning nimasi bor?!

I b r o h i m b i y. Farhod otaliq kabi, o‘tkur bir odamling bajara olmag‘ani bir ishni men qanday bajararman?!

X o n. Nimasi bor, nimani bajara olmaysan?!

I b r o h i m b i y. Xoqonimizni rozi qilmoq juda qiyin bir ish bo‘lib qolg‘an.

X o n. Nima deganing bu?!

I b r o h i m b i y. Shul Ulfat bilan Davlatni rozi qilmasam, siz quvonmaysiz, bu ikkisini rozi qilmoq-da mumkin emasdir.

X o n. Devona bo‘ldingmi?!

I b r o h i m b i y. Devona emas, to‘g‘riman, to‘g‘riliqning devonaliqdan yomonroq natijalar berganini bilaman. Yana to‘g‘riliqdan ayrila olmayman, xoqonim! Shul ikki odam bo‘lmag‘anda, siz Farhod otaliqni yo‘q qilmoq fikriga tushmas edingiz.

X o n (*qizg‘in*). So‘zni uzatma, qabul et!

Qozi Nizom bilan Rahim qo‘rchi ko‘zlari bilan uni qabul etdirarga tirisharlar.

I b r o h i m b i y. Buyrug‘ingizni qaytarmoq qo‘limdan kelmaydir, qabul etaman. Biroq bir kun mening ham o‘liming‘a hukm chiqararsiz, xoqonim!

X o n. Qabul etdingmi?!

I b r o h i m b i y. Qabul etdim.

X o n. Emdi chiqib, saqlovda yotingiz. Erta bilan yorliqlaring‘iz chiqar.

o‘rtuk – parda

Ikkalasi ham duo qilib, chiqib ketarlar. Bunlar chiqg‘ach, U

Taboq(lagan)da nima bor deb o‘ylaysiz?

U l f a t x o' j a s a r o y qizil o'rtuk bilan o'rtulgan bir taboqni ko'tarib kelar, xonning oldig'a qo'yar. O'zi ikki odim keyinga borib, qo'l qovushtirub turar.

Och ustini!

Ulfat o'rtukni olar, taboqda Farhod otaliqning qong'a bo'yalg'an oq soqolli boshi ko'runar.

X o n (*yovvoyi kulush bilan*). Xo... xo... xo... eng so'ng o'lum... o'lum janjalimizni bitirdi. Butun janjallarni o'lum bitiradir.

U l f a t. Xoqoni olam eson bo'lgaylar.

X o n. Buni chiqarib, "Chil duxtaron" qudug'iga tashlat. (*Ulfat taboqni olib chiqar.*) Yeganlari tuzni o'ylamag'anlarning jazolari shuldir. (*Qozi Nizom bilan Mir Vafog'a.*) Sizga javob emdi.

Q o z i N i z o m. Tangri hazratimg'a esonlik bergay.

Ikkovi ham duo qilib, turub ketalar.

X o n (*yolg'uz*). Shul tiriklikdan-da bezdirdilar meni. (*Turub yuradir.*) Bir dushmanimning qoni qurumayin, yana birtasi chiqib qoladir. Bu Ibrohim ahmoq ham meni tinch qo'ymay turg'andek ko'rinadir. Qachong'acha o'ldiraman bunlarni! Ortuq hech kimning menga ishonchi qolmadi... Bunlarning o'zi yo'lg'a kelib menga dushmanliq qilmoqni tashlasa, nima bo'lur! Yo'q... yo'q. Bunlarning o'zi yo'lg'a kelmaydir. O'lduraman, o'lduraman. Dunyoda birta dushmanim qolmag'ancha, qon to'kaman. Ulfatning so'zi to'g'ri! Podshohliq qon bilan sug'orilaturg'an bir og'ochdir. (*Ulfatning kirganini ko'rib, joyiga o'turar.*) Kel, Ulfat, o'tur. Qanday qilib o'ldurding?!

Xonning gaplarini yana bir marta o'qing. Uning xarakteri haqida nima deya olasiz?

U l f a t (*o'turar*). Xoqonimizning ishlari bor, deb kelturdim. Bir uyga kirguzdim. Unda yoshurunib turg'an ikki kishi birdan chiqib, yopishdilar. Bir oz talashg'andan so'ng, yiqitib, boshini kesdilar.

X o n. Hech kim onglamadimi?

U l f a t. Kimsa onglag'an emas.

X o n. Ibrohim kenagasni otaliq qilmoqchi bo'lub, o'ziga so'yladiq. Uning ham tusi boshqacha-ku!

U l f a t. Nima dedi?

X o n. Ko'b ahmoqliqlar qildi. Sening uchun ham ma'nosiz so'zlar so'yladi. Hakim inoqning o'zini otaliq qilsaq bo'lmaydirmi?

U l f a t. Xoqoni olam! Hakim inoqning Nodir bilan xabarlashib turgʻani aniq. Shu tobda uni (ish) boshiga qoʻyib boʻlmaydir. Shuning oʻzi boʻla bersun, toʻgʻriliq bilan ishlasa, turadir. Yoʻqsa, Farhod otaliq izindan bora qoladir-da!

Ulfat nega Eron shohini Nodirshoh emas, Nodir deb atayapti?

X o n. Ulfat, men bu ishlardan bezdim. Bu odamlarning birtasi ham menga toʻgʻri qaramaydir. Farhod otaliq yomonliq qildi. Hakim inoqning qilgʻan ishlarini koʻrub turubsan. Ibrohimni odam deb oʻylasam, bu ham buzuqqa oʻxshaydir. Qon toʻkmakdan-da bezdim. Akamni oʻldurdim. Koʻb doʻstlarimni oʻldurdim. Meni bir ota kabi asragʻan Farhod otaliqni(ng) boshini oyoqlar ostinda koʻrdim. *(Koʻzlarini tutub.)* Uf... koʻzlarim qongʻa toʻldi. Kechalar uxlay olmayman. Koʻzlarimni yumgʻach, butun oʻlgʻanlar, oʻldurgʻanlarim meni aylanturub olalar, siralanib, yonimdan oʻtalar. Meni qoʻrqutalar, menga kulalar!..

U l f a t. Xoqonim, bunlarni oʻylamangiz. Oʻluklarni esingizdan chiqaringiz. Yotoqqa kiringach, Qurʻondan bir oyat oʻqub yotingiz. Bunlar hammasi oʻtgʻusidir. Yaqinda dushmanlaringizning hammasini bitirarmiz. Hozir emdi boshqa ishlarimizni koʻraylik.

X o n. Yana nima ish?

U l f a t. Farhod otaliqning qizini kelturaylikmi?

X o n. Erta bilan kishi yuborursan. Men emdi charchadim, bir oz uxlayin. Sen ham ket, ishlaringni koʻr. Birtasini yubor, choponimni olsun. Tanburchilargʻa ayt, ikki tanburni kamoncha qilib bir “Husayniy” cholsunlar.

Ulfat bilan xonning dialogini yana bir marta oʻqing. Bu dialog Xon va Ulfatni qanday tasvirlaydi?

U l f a t. Xoʻb boʻlubtur.

Ulfat chiqar. Xon salla, choponini chiqara boshlar. Xizmatchi kelib, xonning salla, choponni olib, bir chetgʻa qoʻyar. Xonning kecha kulohini berib, shamlarni oʻchurub chiqar. Xon kulohini kiyib, yotoqda uzanib yotar. Tashqarida ikki kamonchining “Husayniy” cholgani eshitilar. Cholgʻi sekinlanib bitganda, xon uxlagʻan boʻlur. Bir oz soʻngra xonning oʻldirilgan akasining xayoli qonli kafan bilan koʻrinadir.

X o n *(tushinda)*. Akam... Nechun keldi... *(Boʻgʻdurulgʻani, arqon boʻyninda taqilgani holda chiroyli bir xotunning xayoli kelar.)* Yoʻqol... ket... *(Xotun xayoli xonni boʻgʻardek, unga qarab yurar. Xon talvasa qilar.)* Ket... ket!... *(Bir yigit xayoli Farhod otaliqning boshini olib kelar. Xongʻa yaqinlashar.)* Yoʻqol... kelma... Yoʻqol... kelma... *(Xayol chekilar. Undan soʻng uchala xayol birgalashib, xongʻa hujum qilarlar. Xon kuchli talvasa bilan qichqirar.)* Voy... Urma! *(Oʻz tovushindan uygʻonib, irgʻib turar.)*

Tovushni eshitgan Davlat toʻqsoba bir shamdonchani koʻtarib, yugurib kirar.

D a v l a t. Hazratim qo‘rqdilarmi?!

X o n (*titrab turgani holda*). Bir oz qo‘rqdim chog‘i! Shamni qo‘yib ket. Suv tayyorlang, tarat qilaman. (*Davlat to‘qsoba shamni qo‘yib ketar. Xon yotoqdan tushub, choponini kiyar ham so‘ylar.*) Bunlar u dunyoda ham menga qarshu birlashg‘ang‘a o‘xshaylar. Meni tinch qo‘ymaylar, chog‘i! (*Shamni olib, boshqa uylarg‘a boraturg‘an eshikdan chiqib ketar.*)

tarat – tahorat

Parda tushar.



Shekspirning “Makbet” tragediyasida taxtni egallash uchun qirol Bankoni o‘ldirgan Makbetni Bankoning arvohi ta‘qib qila boshlaydi. (“Makbet” spektaklidan lavha)

Umuman, tragediyalarda dramaturglar arvoh obraziga ko‘p murojaat qiladilar. Buning sababi nimada deb o‘ylaysiz?



MUTOLAADAN SO‘NG ...

Asarni tahlil qilamiz:

1. Abulfayxzon obrazida qanday **ziddiyatlarni** ko‘rdingiz?
2. “Podsholik qon bilan sug‘orilgan bir og‘ochdir, qon oqib turmagan yerda bu daraxtning qurib qolishi aniqdir“ kabi **g‘ayriinsoniy** falsafaning mohiyatini o‘zingiz o‘qigan boshqa tarixiy asarlar misolida “Abulfayxzon” bilan qiyosan izohlang.

3. **Fojia (tragediya)** janri **halokat, inqiroz** bilan tugaydi. “Abulfayzxon” asari kimning yoki nimaning inqirozi bilan tugaydi? Dramada tragediya janriga xos yana qanday tamoyillarni kuzatdingiz?

4. Akademik Mamajon Rahmonov shunday yozadi: “Asarda tarixiy voqealarning haqqoniy tasvirlanishi, syujet va obrazlarning puxta ishlanishi, ro’y beradigan hodisalar va qahramonlarni harakatga keltiruvchi vositalardan o’rinli foydalanish jihatidan Fitratning **Shekspir ijodi va uslubiyatiga** ergashgani sezilib turadi”. “Abulfayzxon” dramasi Shekspirning o’zingiz o’qigan yoki sahnada (kinoda) ko’rgan biron dramasi bilan solishtiring. Qanday o’xshash va farqli jihatlarni sanab bera olasiz?

5. “Abulfayzxon” dramasi **o’zbek klassik kuylari** yangraydigan o’rinlarga e’tibor bering va bu kuylarni internetdan topib tinglang. Sizningcha, “Abulfayzxon” dramasi va unga tanlangan musiqalardagi uyg’unlik nimalarda aks etgan? Siz drama uchun yana qanday musiqalarni tavsiya qilgan bo’lardingiz? Bastakor sifatida takliflar bering.

Nazariy bilimlarimizni rivojlantiramiz:

6. Asardagi obrazlar dinamik va statik bo’lishi mumkin. **Dinamik obraz** – asar davomida muhim ichki o’zgarishga uchraydigan, masalan, xarakteri yoki dunyoqarashi o’zgaradigan obraz. Asar davomida o’zgarmaydigan obraz **statik obraz** deyiladi. Dramani o’qish davomida to’ldirgan jadvalingiz yordamida asosiy obrazlarga ta’rif bering. Sizningcha, ularning qaysilarini dinamik va qaysilarini statik obraz deyish mumkin? Dinamik obrazlarda qanday muhim o’zgarishlarni ko’rdingiz?

7. Asardagi solilokviy va monologlarni toping. Ular obrazlarni ochib berishga qay darajada xizmat qiladi?

8. Badiiy asarda qahramonlarning bir-biri bilan, muhit bilan yoki o’z-o’zi bilan ziddiyati, kurashi **konflikt** deyiladi. Nasriy asarlardan farqli ravishda, dramatik asarlar syujeti ko’pincha **bitta** asosiy konflikt ustiga quriladi. “Abulfayzxon” syujeti qanday konflikt ustiga qurilgan, deb o’ylaysiz?

Hayot bilan bog’laymiz:

9. Asarning **hozirgi zamon** uchun ahamiyati nimada deb o’ylaysiz?

IJOD QILAMIZ ...



Teatr va kino san'ati turdosh san'atlar hisoblansa-da va bu ikki san'atning o'xshash jihatlari ko'p bo'lsa-da, bir-biridan farq qiladigan ko'p muhim jihatlari mavjud. Masalan, teatrdah sahna asarini tomoshabin faqat bitta nuqtadan ko'radi, kinoda esa joyni, qahramonlarni har xil **plandan** (masalan uzoqdan, yaqindan, tepadan) ko'rsatish mumkin. Sahnada **dekoratsiyalar** shartli bo'lsa, kinoda ular real obyektlardan iborat bo'ladi.

Kinoning teatrdan farq qiladigan yana qanday jihatlari bor?

Kino suratga olinishidan oldin **kinossenariy** yoziladi. Kinossenariyda bo'lajak filmning voqealari, ular ekranda qanday aks etishi kerakligi bayon qilinadi.

Quyida "Alpomish" dostoni asosida Usmon Azim tomonidan yaratilgan kinossenariydan parcha berilgan. Parchani o'qish davomida kinossenariy yozilish uslubining dramatik asar yozilish uslubidan farqlariga e'tibor bering. Bu farqlarning asosiy sababi nimada deb o'ylaysiz?

... Onasini sog'ingan qo'zichoq ma'rashi eshitiladi. U o'rtanib-o'rtanib onasini chorlaydi. Ekranda bahorgi bulutlar yugurgilagan osmon ko'rinadi. Osmonning bulutlardan ozod parchalari moviydan ham moviy ...

So'ng sovliqning bolasini chorlagan sog'inch to'la tasalli ma'rashi yangraydi. So'ng uning ovoziga boshqa qo'y-qo'zilarining bo'zlashlari jo'r bo'ladi. Yilqilarning kishnashi-yu tuyalarning o'kirishi qo'shiladi...

Bir nigoh bu tovushlarni izlayotganday osmondan aylanib, cheksiz-adoqsiz ko'm-ko'k adirlarga o'tadi. U bahor yelida to'lg'onib yotgan rango-rang gullar va turfa o't-o'lanlarning to'lg'onishiga hayrat ila lol qolganday bir zum qarab turadi-da, bir-biridan go'zal manzaralar qoshida sehrlangan kabi, kuzata-kuzata asta-asta yurina boshlaydi. Dasht, soylar, qirlar, tepaliklar ... Ko'kimtir g'uborlar orasidan Asqar tog'i ko'rinadi ...

"Abulfayzxon" dramasidan o'zingizga yoqqan bir epizodni olib, shu epizod asosida kinossenariy yozing. Epizodning mohiyatini ochib berish uchun kinoning o'ziga xos

xususiyatlaridan qanday foydalanasiz? Ekranda joylar, narsalar, qahramonlar qanday ko'rinishi, kamera qanday harakatlanishi, fonda qanday musiqa yoki tovushlar yangrashi kerakligiga e'tibor bering.

KECHA VA KUNDUZ” ROMANI BO‘YICHA NAMUNAVIY DARS ISHLANMASI¹²

ABDULHAMID SULAYMON O‘G‘LI CHO‘LPON (1897 - 1938)

Dramaturg, nosir,
publitsist va tarjimon
Abdulhamid Sulaymon
o‘g‘li (adabiy taxallusi –
Cho‘lpon) 1897 yili
Andijonning

Qatorterak
mahallasida savdogar
oilasida tug‘ilgan.
Cho‘lpon avval eski
maktabda, so‘ngra
madrasalar va rus-
tuzem maktabida
tahsil olib, arab, fors
va rus tillarini
mukammal o‘rgangan.
Mutolaa yo‘li bilan esa
turk, nemis va ingliz
tillarini o‘zlashtirgan.

Cho‘lponning adabiy,
ijtimoiy siyosiy
qarshlarining
shakklanishida, milliy
uyg‘onish harakatining



Cho‘lpon – tong yulduzi,
yorug‘ yulduz, ya‘ni tolei
baland, saodatli bola

rus – tuzem maktablari –
Turkistonda rus hukumati
tomonidan mahalliy aholi
bolalarini o‘qitish
maqsadida ochilgan

Cho‘lponning “Go‘zal
Farg‘ona” she‘ri Boku,
Istanbul, Berlin va
Moskvada turklar
tarafidan ham sevib
o‘qilgan va qo‘shiq qilib
kuylangan.

¹² Z.Mirzayeva, K.Jalilov, S.Qambarova. Adabiyot. Filologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan litsey va akademik litseylarning 2-bosqichi uchun darslik. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi tasdiqlagan. Toshkent, 2019 yil.

faollaridan bo'lib yetishishida jadid matbuoti, fikrdosh ustoz va tengdoshlari muhim ahamiyat kasb etgan. Cho'lpon 1914 yilda o'z faoliyatini "Sadoi Turkiston" gazetasida boshlaydi va uning "Turkistonli qardoshlarimizga", "Qurboni jaholat", "Do'xtir Muhammadiyor", "Adabiyot nadir" kabi dastlabki she'r va hikoyalari, adabiy tanqidiy maqolalari mazkur gazeta nashrlarida chop etilgan. Cho'lpon boshqa jadid ijodkorlari kabi o'z asarlarida xalqni jaholat botqog'idan, mustamlakachilik iskanjasidan qutqarish yo'llarini ko'rsatishga, Turkiston istiqbolini ta'minlaydigan omillar tog'risida mulohaza yuritishga harakat qiladi. Milliy istiqbol va ozodlik g'oyalari uning asarlaridagi yetakchi mavzularni tashkil etadi.

Cho'lpon mustamlakachilikka qarshi kurashgan, afgor xalqni jaholat va qullikdan himoya qilgan millat qahramoni sifatida nafaqat Osiyoda balki Yevropada ham mashhur bo'lgan. Uning asarlari Parij, Germaniya, Orenburg, Ufa, Qozon va Bog'chasaroyda chiqadigan gazeta va jurnallarda ham nashr etilgan.

Cho'lponning "Uyg'onish" (1922), "Buloqlar" (1923), "Tong sirlari" (1926), "Soz" (1935) kabi she'riy to'plamlari, "Kecha va kunduz" (1936), "Do'xtur Muhammadyor" (1914), "Qor qo'ynida lola", "Novvoy qiz", "Oydin kechalarda" kabi nasriy asarlari hamda "Yorqinoy" (1920), "Xalil farang" (1921), "Cho'rining isyoni" (1926), "Yana uylanaman" (1926), "Mushtumzo'r" (1928), "O'rtoq Qarshiboyev" (1928), "Hujum" (1928) kabi dramalari yangi o'zbek adabiyotining yaratilishi va taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi.

Cho'lponning qaysi asarlarini o'qigansiz? Uning ijodi fonidagi g'oyaviy mazmun uning asarlari sarlavhasida qay dajada aks etgan?

Cho'lpon tarjima qilgan jahon adabiyoti namunalari – Pushkinning "Dubrovskiy", "Boris Godunov", Gorkiyning "Ona", "Yegor Bulichyov", Lohutiyning "Yevropa safari", Gotsiyning "Malikai Turandot", Shekspirning "Hamlet" asarlari o'zbek va jahon adabiy aloqalari rivojiga munosib hissa qo'shdi.

Cho'lpon 1937-yilning 14-iyulida qamoqqa olinib, 1938-yilning 4-oktabrida "aksilinqilobiy faoliyati" uchun otishga hukm qilinadi.

Vafotidan so'ng Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti (1991) va "Mustaqillik" ordeni (1999) bilan taqdirlangan.

Cho'lpon ijodi ham xorijda ko'plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan, she'rlari ingliz tiliga tarjima qilingan. "Kecha va kunduz" romani fransuz tilida bosilib chiqqan.




"Buyuk siymolar"
turkumidan
"Cho'lpon" filmi


O'QISHGA TAYYORLANAM IZ ...



Siz o'qiydigan asar - **"Kecha va kunduz"** romanida mustamlaka Turkistonning zulmiga, jaholatga, adolatsizlik va haqsizlikka to'la hayoti,



keskinlashib borayotgan ijtimoiy ziddiyatlar, G'arb madaniyatiga ko'r-ko'rona ergashish oqibatlarini haqida so'z boradi.



Andijondagi madrasa, 1910 yillar

Eslang: XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining Turkistonga nisbatan siyosati qanday edi?

*Qo'lingizdagi darslikda romanning birinchi bobi berilgan. Asarning **to'liq** variatini o'qib chiqing yoki tinglang.*

Cho'lpon romanda o'z g'oyaviy maqsadiga xizmat qiladigan **kalit so'zlardan** foydalangan. Shunday so'zlardan biri – "imperiya". Asarni o'qish davomida romandagi shunday kalit so'zlarni va ular bilan bog'liq lavhalarni toping. Bunday lavhalarning mazmunini (talqinlarini) berishga harakat qiling.

Ma'lumotlarga ko'ra "Kecha va kunduz" ikki qismdan iborat bo'lib, uning "Kecha" deb nomlangan birinchi qismi 1936 yilda nashr etilgan. Romanning "Kunduz" deb nomlangan ikkinchi qismining yozib tugallanganligi va nashr etila boshlagani haqida ma'lumotlar bor. Ammo bu qism qo'lyozmasi yozuvchi hibsga olinganda olib ketilgan va uning keyingi taqdiri haqida ma'lumotlar uchramaydi.



Asarni o'qish davomida "kecha" so'zining **ramziy ma'nosiga** e'tibor bering.



KECHA VA KUNDUZ

Birinchi kitob: KECHA

Hamal keldi, amal keldi.

Xalq maqoli.

I

Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi...

O'ylab ko'ring: asar nega bahor tasviri bilan boshlanadi?

Tollarning ko'm-ko'k sochpopuklari qizlarning mayda o'rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi, o'zlari horg'in-horg'in oqsalarda, bo'shalgan qul singari erkinlik nash'asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog'ochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko'rina boshladi. Birinchi ko'ringan ko'klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash'asini beradi. Bultur ekilib, ko'p qoshlarni qoraytirgan o'sma ildizidan yana bosh ko'tarib chiqdi... Muloyim qo'llarda ivib, suvga aylangandan keyin go'zal ko'zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko'rar ekan bu ko'kat! Erkaklarning gullik do'ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro'mol popuklari bilan hazillashib o'ynagan salqin shabada... ko'klam nash'asi bilan sho'xlik qiladi.

Hayot nega bu qadar go'zal va shirin bo'ladi bahorda?

* * *

Zebi (Zebinisa)ning qish ichi siqilib, zanglab chiqqan, ko'ngli bahorning iliq hovuri bilan ochila tushgan; endi, ustiga poxol to'shalgan aravada bo'lsa ham, allaqaylarga, dala-qirlarga chiqib yayrashni tusay boshlagan edi. Qish ichi ham keti uzilmagan sovchilar bir-ikki haftadan beri kelishdan to'xtaganlar, endi tashqari eshikning "g'iyt" etishi — bir-ikki ayolning astagina bosib, paranjisini sudrab kirib kelishiga dalolat qilmas, hali endigina o'n beshga qadam qo'ygan bu yosh qizning go'dak ko'nglini uncha cho'chitmas edi.

Ko'k terish bahonasi bilan bir-ikki marta keng hovlilarga, shahar ichida bo'lsa hamki, dalatuzlarga chiqib kelganidan beri ko'ngli qirlarni, dalalarni, ishqilib

avrod – ertalab bomdod namozidan keyin o'qiladigan duolar

Sizningcha, Zebidagi dala-qirlarga chiqib ketish istagi faqat bahor sog'inchi bilan bog'liqmi?

olis-olis joylarni yana ko‘proq tusay boshlagan edi.

Otasi bomdoddan kirmagan, onasi sigir sog‘ish bilan ovora, o‘zi kichkina sahnni supurib turgan vaqtida tashqari eshikning besaranjom ochilishi Zebining ko‘nglini bir qur seskantirib oldi. Bir qo‘lida supurgisi, bir qo‘li tizzasida — yerga egilgan ko‘yi eshik tomonga tikilib qoldi. Otasining odatdagi tomoq qirish va yo‘talishlar bilan, katta eshikning og‘ir zanjirini sharaq-shuruq qilib tushirib, namozga chiqib ketganiga hali ko‘p o‘tmagan edi. Halol-haromni ko‘p ham farq qilmayturgan bu odamning avrodda o‘tirish odatlari, hatto hammadan keyin qolib, machit shamlarini puflab chiqish rasmlari bo‘lard.

Aytgandek, eshikdan shoshilib kirib kelgan — yoshgina, o‘zi tengi bir qizcha bo‘ldi. Hali tuzuk-quruq odam qatoriga kirib yetmagan bu qizchani katta xotinlarning oriyat paranjisiga burkaganlar, paranjining uzun etaklari katta bir tugundek uning qo‘ltig‘ini to‘lg‘azardi...

O‘rangan qiz ichkari eshikdan hatlar-hatlamas paranjini irg‘itdi va o‘zining bolalik ruhi bilan yugurganicha borib Zebini quchoqladi. Ikkalasi quvona-quvona ko‘rishdilar. Supurgi yetgan joyidan nariga o‘tmasdan yerga yonboshladi... Ikkala yosh — yuzlari kulgan, ko‘ngillari yozilgan — qo‘ltiqlashib ayvonga bordilar va Zebining otasi turib ketgan so‘rining chekkasiga o‘tirishdilar.

Salti (Saltanat) erta saharda munaqa halloslab kelishining sababini hali aytgani yo‘q edi, ular ko‘rishgan hamon, yosh qizlarning o‘z oralarida o‘taturgan mahram gaplarini gaplashib, tikayotgan kashtalari, piltaga kirgan do‘ppilari to‘g‘risida bir-birlariga kalta-kalta ma‘lumot berishgan edilar. Salti endi gap ochdi:

— Erta saharlab chopganim bekorga emas...

— Men ham sezganman... Yuragim bir qur seskanib ham oldi...

— Nimaga, o‘rtoqjon?

— O‘zingiz bilgan sovchilar balosi-da... Qish ichi keti uzilmadi.

— Menam bezganman, jonim qaqa... shuning uchun bir qishloqqa chiqib kelsammikan, deb edim...

— Nimasini aytasiz... Ariqdagi suv ham muzning tagidan chiqdi-ku.

Zebining yuzini, shu topda, butun qish ichi to‘planib qolgan horg‘inlikning asarlari egallagan edi. Uning ikkala yuzi, ayniqsa, ko‘rpaning katta-katta qavig‘iga tikilgan andishalik ko‘zlari hovur bosgan oynakning betiga o‘xshardi. Aksincha, Saltining yuzlari charaqlagan yulduzday, sernash‘a, quvnoq va har qanday andishadan yiroq bo‘lib, ko‘nglining chuqur burchaklaridan chiqib kelgan sevinch to‘lqinlarini aks ettirardi. Shu

uchun u Zebining soʻng soʻzlaridagi ogʻir maʼyuslikni payqay olmadi. Uning koʻzlari Zebida boʻlsa ham, nazarlari boshqa yoqlarda edi.

— Enaxonni bilasiz-a? Yoyilma soydagi oʻrtogʻim bor-ku?

Zebi boshini koʻtarib, oʻrtogʻiga qaradi, shu qarash uning nechikdir Enaxonni eslolmay turganini koʻrsatardi. Soʻngra Salti taʼrif qildi:

— Oʻtgan kuz biznikiga mehmon boʻlib kelishdiku — kelinbibisi bilan birga? Oʻshanda necha marta kishi yuborib chaqirtirdim, bormadingiz, otangiz javob bermadi...

Zebi bosh tebratdi:

— Ha, ha... bildim, bildim. Oʻzini koʻrganim yoʻq-ku, eshitib bilaman.

— Ana oʻsha qiz oʻsha safar kelganida meni aytib ketib edi. Bahorlashib bir borib kelaman, deb yurib edim. Yaqinda yana aytib yuboribdi. Shunga teng-toʻshlarim bilan bir borib kelmoqchiman. Sizni ham olib boraman...

— Qachon?

Zebining bu kalta savolidan Salti koʻp narsani angladi. Bu savol Zebining iloji boʻlsa shu kun paranjisini qoʻliga olib (yopinib ham oʻtirmasdan!), shu yerdan uzoqlashmoq uchun talpinganini koʻrsatardi. Shu uchun Salti:

— Men sizni olib ketgali keldim, aylanay! — dedi.

Va ikki yosh bola nihoyasiz quvonchlar ichida yana bir-birlariga chirmashdilar...

* * *

Odatda onaning koʻngli yumshoq boʻladi. Zebining onasi — Qurbonbibi Saltidan haligi chaqiriqni eshitgandan keyin darhol rozilik berdi:

— Mayli, oʻynab, yozilib kelinglar. Qish ichi yuraklaring gʻash boʻlgandir... Yosh narsalar, — dedi. Zebi onasining beradigan javobini ilgaridan bilardi. Bu ona qizining saodatidan boshqa narsani bilmaydirgan onalardan edi. Dunyoda qanday yaxshilik va xayriyatlik boʻlsa, hammasini shu birgina qizi uchun istar va orzu qilardi. Lekin...

Onaning rozilik soʻzlariga bu birgina “lekin” elchib kelganidan, bechora qizlar sevinish toʻlqinlarini yana bir qur koʻtarishga fursat topolmadilar.

Hamma jim qoldi. Har kim oʻz oldida bir narsa topib shunga koʻz tikkan va u narsada Zebi — oʻz otasini, Qurvonbibi — oʻz erini, Salti — qovogʻidan doim qor yogʻib turgan sovuq

Nega uch kishi bir odam haqida oʻylashga tushdi?

bir soʻfini koʻrardi.

Bu bulutli havoni ochmoq faqat onaning vazifasi edi:

— Otasi bomdoddan kirsin, — dedi u Saltiga qarab, — men oʻzim yotigʻi bilan aytib koʻray, yoʻq demas, — soʻngra Zebiga yuzlandi: — Sen, qizim, uyga joy qil, oʻrtogʻingni oʻtqiz, dasturxon sol. Biz, otang bilan, choyni soʻrida ichib, haligi gapni gaplashamiz.

Ikkala qiz ham ogʻiz ochmay jim qolishdi. Chunki Razzoq soʻfining mijozini ularning ikkalasi ham yaxshi bilardi. Soʻfiga eng maʼqul bir masalani boʻlsa ham uqtirib roziligini olmoq uchun yo oʻzining piri, yoki katta bir davlatga ega boʻlish kerak edi. U odam oʻz tenglaridan hech birining hech qachon hech bir gapini tinglagan emasdi. Ayollardan maslahat, ayniqsa, oʻz xotinidan bir taklif eshitmoq uchun Razzoq soʻfining qayta boshdan bunyodga kelishi kerak boʻlardi...

Shuning uchun Zebi koʻzlari andisha bilan kengayib ochilgani holda indamasdan joylarni yigʻa boshladi.

U oʻrinlarni yigʻishtirib, nonushta joylarini tayyorlab boʻlgandan soʻng oʻchoq boshida choynaklarga choy tashlarkan:

— Otamdan darak yoʻq-ku? — deb soʻradi onasidan. Qurvonbibi bir koʻcha eshigiga, bir yonboshdagi daraxtlar orasidan koʻtarilib kelayotgan quyoshga, bir oʻchoqboshidagi qiziga qaragandan keyin:

— Bilmadim, avrod choʻzilibroq ketdimikin? Sen choyni jindek qoʻyib turib, chala qoldirgan yerlaringni supiratur, kelib qolar, — dedi.

Zebi shu topda yana qaytib qoʻliga supurgi olishni istamasada, oʻrtogʻining “bu qiz enasining gapiga kirmas ekan”, degan oʻyga borishini oʻylab, indamasdan supurgini qoʻliga oldi va bir qoʻlini bir tizzasiga qoʻyib, sahn betini supura boshladi. Zebining choy damlab kelishini kutib, uyda — dasturxon boshida oʻtirgan Salti ikkala qanoti ochiq turgan eshik orqali bu holni koʻrganidan keyin oʻrnidan turib, oʻrtogʻining yoniga chiqdi. Zebi uni uzr aytib qarshi oldi:

— Oʻrtoqjon, — dedi, — otam avrodda oʻtirib qoldi, shekilli, shunaqa odati bor. Endiyoq kirib kelsa kerak. Xafa boʻlmang-a?

*Zebi va Saltanat
munosabatlaridagi
samimiyatga eʼtibor bering.
Bu samimiyatning
sabablari nimada deb*

Bu soʻnggi kalta jumlaning aytilishidagi samimiyat bir-biri bilan yaqin oʻrtoq tutishgan yosh qizlardagina boʻladi. “Xafa boʻlmang-a?” deb turgan vaqtda Zebining yuzini koʻrish kerak edi, bir qoʻlida supurgi, bir qoʻli tizzasida, supurgi ham yerdan uzib olingan emas, faqat bosh yuqori

ko‘tarilganu butun vujud Saltining ixtiyorida! Ko‘ngil, orzu, sevgi, sevinch... bular hammasi Saltiga tomon uchadi, unga tomon otiladi, uni o‘rab, uni aylantirib, uni quchadi! Zebining yuzlaridagi — oyday tiniq va quyoshday yorug‘ bu holat moddiy haqiqatlar qadar ochiq ko‘rinardi.

O‘rtog‘ining bu samimiyatini Salti ham ko‘z bilan ko‘ribgina emas, ko‘ngil bilan sezib anglagan edi. Shuning uchun u Zebining so‘ziga javob ham berib o‘tirmasdan, birdaniga uning qo‘lidagi supurgiga yopishdi. O‘z ko‘nglida, supurgini olib, bir oz supurishib bersa, haligi samimiyatga yarasha javob bergan bo‘lardi. Zebi supurgini qo‘ldan oldirdi, lekin o‘rtog‘i supura boshlagandan so‘ng:

— Voy, bu nimasi! Qo‘ying, o‘zim supuraman! — deb yana supurgiga yopishdi. Salti bermadi, bu olmoq istadi; Salti qochdi, bu quvladi; shunday qilib, sahnni supurish o‘rniga bu ikki o‘rtoq butun hovlini boshlariga ko‘tarib, shovqinlar va qiyqirishlar bilan dunyoni buzib, bir-birlarini quvlashib ketdilar...

O‘z uyining qabristonlar qadar jimjit, xonaqohlar qadar unsiz, o‘z ko‘ngli qadar tund va xo‘mraygan bo‘lishini istagan Razzoq so‘fi xuddi shu ola-to‘polon ustiga kirib keldi!

Eshikdan kirar-kirmas ovozing boricha:

— Bu nima qiyomat!!! — deb shovqin solishi ikkala yosh qizni, chaqmoq tekkan daraxtday, turgan joylarida qotirib qo‘ydi. Yo‘qsa, so‘fi erining dindor xotini bo‘lgan Qurvonbibi ham “bas endi!” deb ozmuncha qichqirmagan edi... Agar bu sovuq so‘fi kirib kelgan bo‘lmasa, ikki yosh qizning qish bo‘yi to‘plangan ko‘ngil g‘ashliklari bir oz sho‘xlik bilan ancha yozilgan bo‘lardi. Zotan, ularning o‘zlarini unutar darajada bir-birlari bilan bu xilda o‘ynashuvlari o‘sha g‘am-g‘ashlar purjinasining bo‘shalishi, siqintilar oqimining to‘g‘onini buzib, oldinga tomon yo‘l solish emasmidi? Bunday telbalarcha ko‘pirib-toshuvlarni to‘xtatmoq uchun ham, albatta, telbalarcha hayqirishlar, chaqmoq qadar quvvatli zarblar lozim bo‘lardi.

* * *

Razzoq so‘fida unday quvvat ortig‘i bilan bor. Bu odam, jadidnamo bir hamshahrining deganidek, “ko‘rgazmaga qo‘yilaturgan antiqa maxluqlardan edi”. Aytishlaricha, uni ona qornidan sihat-salomat tushirtirgan va birinchi daf‘a yo‘rgaklagan kampir hazilkashligi va sho‘xligi bilan xotin-xalaj o‘rtasida dong chiqargan Hamro enaymish. Bolani yo‘rgaklaganidan keyin hali u qadar odam kepatasiga kirmagan yuzlariga tikilgan va mana bu so‘zlar bilan erkalatganmish:

— Aylanay, mehmon, kimdan xafa bo‘lib tushdingiz? Kim ozor berdi sizga? Ayting! Qovog‘ingizni ochsangiz-chi! Yorug‘ dunyoga keldingiz! Shukur qiling! Sevining! Mundoq bir kuling! Kulimsirang! Iljaying!..

O‘shanda kulmagan Razzoq so‘fi undan keyin ham kulmay o‘tdi. Kulish bilan yig‘lash orasida katta farq bor. Kulish bilan kulmasdan tekkina jiddiyat saqlab turish orasida ham anchagina masofa bor. Shu uchun Razzoq so‘fining kulishlarini kulish, deb bo‘lmaydi.

Kulmasdan chidab bo‘lmaydigan maqomlarda u ham kuladi, lekin u kulish — kasal odamning kulishiday og‘ir, bir xil sovuq hazillarday malol keltiruvchi, yolg‘on xushomadlarday ko‘ngilga uruvchi bo‘lardi. Bir kun Zebining juda jiddiy bir chehra bilan:

— Otam kulmas ekan-da! — deganini eshitib, Qurvonbibi koyib bergan edi. Shu haqiqatni aytgani uchun qizidan alayna-oshkor koyingan Qurvonbibi, bu haqiqatni o‘zi o‘z ko‘nglida necha marta takrorlagan bo‘lsaykin?.. Til bilan birovning aybini aytish oson, o‘z tili bilan o‘z aybini aytadiganlar juda kam, Qurvonbibi har qancha so‘zga epchil xotin bo‘lsa ham, uni bu kamlar orasiga qo‘shib bo‘lmaydi.

Qurvonbibi so‘zga qancha epchil bo‘lsa, Razzoq so‘fi shu qadar kamgap, indamas, damini ichiga solgan, ziqna odam edi. Tashqari olamda, ya‘ni o‘z hovlisidan tashqarida uning doimiy va birdan-bir vazifasi: o‘zidan ulug‘ va kuchlilar gapirsa — “hovva-hovva”, demak, o‘zidan past va kuchsizlar gapirsa — “yo‘q, yo‘q”, degan ma‘nida bosh chayqash bo‘lardi. Uyida vaqtida uning og‘zidan odam bolalari o‘rtasida yuraturgan tuzuk, ma‘nilik va “gap” desa bo‘ladigan bir so‘z chiqmas edi. Umuman, so‘fining bu bobda o‘ziga ko‘ra asoli bir maslagi bor: u o‘zi maqtanib aytganiday, xotin-xalaj oldida og‘iz ochib til qaldiratishni ravo ko‘rmaydi. “Bu til, — deydi so‘fi, — doim xudoning zikri bilan qaldiraydi. Bu og‘iz hamma vaqt xudoning zikriga ochiladi. Og‘iz bilan til — bandaning jismida eng aziz va tabarruk a‘zolar. Ularni xotin kishiday past maxluq oldida xor qilinadimi? Bo‘lmasa, haq taoloning bandalari it bilan ham gaplasha bersin! Yo‘q, xotin kishiga juda zarur gap aytiladi, u toifa bilan zarurat yuzasidangina gaplashiladi. Vassalom!”

Muallif Razzoq so‘fini nega bunchalik qora bo‘yoqlarda tasirlagan deb o‘ylaysiz?

O‘zbekda axir har bir erkak o‘z xotinini — o‘z halol juftini qizi yo o‘g‘lining nomi bilan atab chaqiradi. O‘z xotinining ismini aytib chaqirish yaramaydi. Xotinining ismi Maryam, qizining ismi Xadicha bo‘lsa, mo‘min-musulmon: — sharmu-hayo yuzasidan bo‘lsamikan? — xotinini “Xadicha” deb chaqiradi. Aksar ona-bola baravar “labbay!” deydi; shunday-da, oilaning haqiqiy egasi bo‘lgan ota: “Kattangni aytaman, kattangni!” deydi. Hatto shunda ham “Maryamni”, demaydi...

Bizning so‘fi mo‘min-musulmonning bu urfiga ham amal qilmaydi, u o‘z halol jufti Qurvonbibini hamma vaqt “Fitna” deb chaqiradi: “Fitna, sallamni ber!”, “Fitna, qiz o‘lguring qani?”, “Fitna, puldan uzat!”

Qurvonbibi, so‘figa achchiq qilib bo‘lsami yo o‘zining yaratilish hamrida shu narsa bormi, har qalay fitnalikdan, ya’ni makr va firibdan xoli emas. Erining xotin-xalaj oldida gapirmaganiga uncha xafa bo‘lmasa ham, lekin o‘z halol xotini oldida gapirmaganiga kuyadi va shu kuyish orqasida firib yo‘li bilan so‘fini gapirtiradi; ba’zida tillarini burro qildirib sayratadi. Buning uchun so‘fining achchig‘ini keltiradigan emas, uning bir oz g‘ashini qo‘zg‘atadigan bir gap aytib qo‘yadi. Ana shunda xotin-xalaj oldida og‘iz ochib til qaldiratishni so‘fidan ko‘ring! Bay-bay-bay!

— Eshon bobom sizdan dilgir emishlar, — deydi bir kun Qurvonbibi so‘figa.

So‘fining toshday qattiq va buyumdek harakatsiz yuzi birdaniga turli-tuman o‘zgarishlar va harakatlarga javlongoh bo‘ladi:

— Nima deding, Fitna? Nega dilgir bo‘libdilar?

— Nazir qilgan kokilini kestirishga kelgan bir bolaga xushomad qilibsiz...

Shu bas! Endi, bizning so‘fi so‘zga usta bir xatibga aylanadi.

— Ishq ikki xil bo‘ladi, Fitna. Tushunmay gapirma! Ishqi ma’juziy, ishqi haqiqiy...

Qurvonbibi bu so‘zlarga tushunmaganligidan erini sayratib qo‘yib, o‘zi darrov zerikadi. Shu uchun u:

— Ha, shundaymi? Men bilmabman. Omiman-da, — deb tezroq qochish harakatiga tushadi.

Xotini burilib ketganidan keyin so‘fi ham so‘zdan to‘xtaydi.

Shunday qilib, so‘fi joyi kelganda va g‘ashiga tegilganda, — go‘rda ham gapiradi. Ham gapirganda qanday!

Uyida vaqtida Razzoq so‘fi yo ariq bo‘yidagi ko‘katlarni yulib, yo eshik va darvozalarning bo‘shalib qolgan zanjirlarini mahkamlab, yoki hovlida o‘tin qirqib, yo bo‘lmasa — ikki qo‘li orqasida, dam ichkariga kirib, dam tashqariga chiqib, dam hovliga o‘tib, lablarini ari chaqqan odamday og‘iz ochmasdan, indamasdan yura beradi... Yoz faslida, ko‘proq kunduzi uxlaydi, kechalari, tong otguncha, o‘zi yolg‘iz, baland ovoz bilan “Oblohu!” aytib, o‘z oilasini va qo‘ni-qo‘shnini uxlatmaydi. Eshon bobo bo‘lmagan kunlari salqin xonaqoda juda maza qilib uxlaydi, deydilar. Ba’zida boshqa muridlar uni ko‘rpa-to‘shagi bilan hovuzga tashlar ekanlar. Uyda bo‘lsa, uni — xonaqo singari — salqin qildirib, undan keyin cho‘ziladi va peshindan keyin uyquga ketgan bo‘lsa, shomga borib zo‘rg‘a turadi: shunda ham

Qurvonbibining qichqirishlari bilan... Namozgar, aksari, uyquga qurbon bo‘ladi, shu orqada o‘z xotinidan ko‘p ta‘nalar ham eshitadi. Ammo bu xususda tili qisiq, indayolmaydi...

Qish faslida bo‘lsa, kechasi uxlaydi. “Bir siqim kun bor, uxlab o‘tkazsam, Qashqardan ham olis qish kechasini qanday o‘tkazaman? Uyqu — umrning tanobi!” deydi; bu buyuk falsafa loyiq va munosib kishilarga aytiladi. Bechora oila a‘zolari, umuman, xotin-xalaj bu uyqu falsafasini bilishdan mahrum!

Shaharda bo‘lsa, o‘z uyidan boshqa joyda bir kecha ham yotmaydi. Eshon boboning qaysi bir to‘yida, tong otishga yaqin, uyiga kelib yotgan ekan... Shahardan tashqariga yurishi kam. Faqat eshon bobo bilan birga (faqat o‘sha kishi bilan!) to‘ylarga, katta ziyofatlar, qovun va meva sayillariga boradi. Unda, albatta, besh-to‘rt kun uyidagi ko‘rpa-to‘shagi sovuydi. Qurvonbibining so‘zicha, “dam oladi”, Zebining ta‘rificha, “yayraydi”. Bir marta qaysi bir to‘y bir haftaga cho‘zilib ketgach, oltinchi kuni bizning so‘fi eshondan so‘ramay qochib kelgan! O‘shanda eshon bobo bir necha vaqtgacha so‘fidan dilgir bo‘lib yurganlar.

Shu munosabat bilan Qurvonbibi yana bir marta oldi:

hast – hazrat

— Hast eshon bilan birga borib, u kishi tufayli shuncha izzat-ikrom ko‘rib, noz-ne‘matga serob bo‘lib... hast eshondan burun qochib kelganingiz nimasi? Shaharda ochilmagan do‘koningiz yo to‘xtab qolgan objuvozingiz bormidi?

So‘fi yana past toifa oldida muborak og‘zini ochib, aziz tilini qaldiratmoqqa majbur bo‘ldi.

— Badbaxt Fitna! Qo‘yasanmi, qo‘ymaysanmi, axir? “Hubbil vatani minal-imon”, deganlar — “vatanni sevish imondan”, axir! Bilmasang bekor-da, Vatani yo‘q — dunyoda lo‘li, xolos. Meni bevatan, deb bildingmi?

So‘fi bir oz qizib ham ketdi:

— Bu hovli-joy otangdan qolgani uchun o‘zimizni deysanmi yo? Unday desang, boshput olib, o‘rusvoyning religa tushib, “hayt!” deb... Makkatulloga jo‘nab qolaman! Hovling boshingdan qolsin, Fitna!

**boshput –
pasport**

Bu safar Qurvonbibi yalinib-yolvorib zo‘rg‘a tinchitdi.

Chinakam, so‘fida hajga borish niyati kuchli. Har yili javraydi. Bir-ikki marta pasport ham oldi. Faqat, nima uchundir, oyog‘ini o‘z shahrining tuprog‘idan uza olmaydi.

Bu to‘g‘rida ham — “vatanni sevish imondan”, deb — “vatani”dan kechib ketolmaydimi? Har qalay, bir siri bor.

Uning ma'lum bir kasbi, hunari yo'q. Na savdo-sotiq qiladi, na dehqonchilikka urinadi, na kosib-hunarmandlik peshasini tutadi. Shu bilan birga, dasturxonni nonsiz, qozoni issiqsiz qolmaydi...

Qaysi bir yil olis bir qishloqdan o'gay akasi kelib, uch-to'rt kun qo'nib ketgan edi. U ham o'ziga o'xshagan mo'min-musulmongina chol bo'lganidan juda topishdilar. Har kun xonaqoga birga borardilar.

—So'fi, bir kasb peshasini tutmay o'tib ketayotirsiz-a? — dedi unga akasi xonaqoga keta turib.

— E-e, — dedi so'fi cho'zib va o'zidan xursand bir kulimsirash bilan kulimsiradi: — mening davlatim hech kimda yo'q, aka! Eshon bobo xudoyimning sevgan quli, nozu ne'mat to'rt tarafdin suvdan oqib turadi. Daryo bo'yidamizu chanqaymizmi? G'alati ekansiz!

Shu kulimsirash bilan yana bir oz borgandan keyin, bu safar jiddiyroq qilib, dedi:

— Ahliyamiz ham uchchiga chiqqan chevar, xudoga shukur. Ojizamiz ham do'ppi tikishga "farang" bo'lib chiqdi! Ro'zg'orning ko'p-kamlarini o'zlari bitirishadi. Men bohuzur tasbihimni aylantirib yotsam bo'la beradi!

So'fining o'sha akasi o'tgan yil kuzakda yana keldi.

Ammo bu safar jiddiy bir masalani ko'tarib kelgan edi. Bir-ikki kun mehmon bo'lgandan so'ng gap ochdi:

— So'fi, o'zingiz "vatan", "vatan" deysiz-u, vataningizni bilmaysiz.

So'fi shu "bilmaysiz" degan narsaga tutoqib ketdi:

— Nega bilmas ekanman, aka! Bilib gapirsangiz-chi!

— Jahlingiz chiqmasin. Bilib gapirayotirman. Vataningiz — ota-onangiz o'tgan, o'z kindigingizdan qon to'kilgan, ota-ona arvoyiga sham yoqiladigan joy emasmi?

So'fi jim qoldi. Hatto, ko'zlariga yosh kelganday bo'ldi.

— Nimaga indamaysiz? — deb so'radi akasi.

— Haq gapga nima deyman? Qiziqsiz...

— Bo'lmasa, vataningiz — o'sha o'zimizning qishloq.

— Ha, o'sha qishloq...

Ikkovi ham bir nafas jim qolishdi. So‘fi misvagini qinidan chiqarib yana sekingina solib qo‘ydi. Chol tizzasiga tushgan xazon bargini sopidan ushlab pildiratarkan, dedi:

— Men sizni o‘sha qishloqqa olib ketay, deb keldim. Siz, axir, men bilan bir shapaloq yerni talashib, shu to‘g‘rida nari-beri bo‘lishib, shu tufayli shaharga kelib qolgan edingiz...

So‘fi xo‘rsinganidan ovozi qaltirab, dedi:

— Eski gaplarni qo‘zib nima qilasiz? Bo‘lar ish bo‘lib o‘tdi... Yeri ham qursin, merosi ham...

— Yo‘q, so‘fi! Unday demang!

Sizningcha, Razzoq so‘fining qishloqqa ketishni xohlamayotgani sababi nimada?

Akaning bu so‘zi keskin ovoz bilan, qo‘monda singari aytilgan edi. So‘fi boshini ko‘tarib, akasining yuziga tikilib qoldi, akasi davom etdi:

— Yerdan aziz hech narsa yo‘q! Otamiz rahmatlik, bobolarimiz, undan naridagilar — hammasi bir shapaloq yerdan rizqini chiqarib kelgan... Rostmi?

So‘fi eshitilar-eshitilmas qilib:

— Rost... — dedi.

— Siz nega yerdan qochasiz?

So‘fi bu to‘g‘ri savolga boshqa javob eplay olmadi.

— Yer qani menga? — dedi. — Bir shapaloq yeringiz bor, o‘zingizga yetmaydi...

Akasi dadil javob berdi; javobga boshlarkan, uning yuzlari kulgan, tishsiz — kemtik og‘zi sevinch bilan ochilgan edi:

— Soyning narigi yuzidagi do‘ngni sekin-sekin olib tashlab, yer qildim. Yana bir shapaloq suvlik yer bo‘ldi. Endi, odamdanu dastmoyadan qiynalayotirman...

— Nima qilay? — dedi so‘fi, ovozi juda past edi. — Qo‘limdan nima keladi?

Akasi bu safar jiddiylashdi:

— Shaharni tashlang!

So‘fi akasining so‘zini bo‘lib, allanima demoqchi bo‘lgan edi, u qo‘ymadi:

— Siz shoshmang! Gapni eshiting!

So‘fi jim bo‘ldi. So‘ngra akasi davom etdi:

— Shaharni tashlang! Bu hovlini soting! Shaharda hovli-joyini yaxshi pulga oladi. Qishloqdan kichkina bir hovli olamiz — muning yarim puliga yoki uchdan biriga. Qolganiga asbob olamiz. O‘z yerimizning yoni-beridan bir parcha yana yer topamiz... Uni ham olamiz. Hali bardamsiz, birgalashib ishlaymiz. Durustmi?

So‘fi indamasdi; oq do‘ppisini boshidan olib, buklab o‘ynardi...

— Qani, bir narsa deng!

So‘fi hech narsa demay, o‘rnidan turdi. Yana damini chiqarmasdan, ichkariga tomon bir-ikki qadam bosdi. Keyin yana orqasiga qayrilib, dedi:

— Men salla-to‘nimni kiyib chiqay. Jumani xonaqoda o‘qiymiz. Kech qoldik...

Akasi xonaqoga ketayotib, yana shu gapni qo‘zg‘atdi:

— Xo‘p, deng. Qishloqqa ketaylik! O‘lim — haq! O‘lar vaqtda bir-birimizdan yiroq tushib, bir-birimizga tashna bo‘lib o‘lmaylik...

So‘fi bir uloqchi toyni ko‘rsatdi:

— Jonivor-e, zab ot bo‘libdimi? Bay-bay-bay! Jimlik cho‘kdi. Keyin yana gap boshlandi:

— Nima dedingiz? Gapiring? Kampir ham jon deb turibdi...

— Ana u, Umarali shig‘ovilning hammomi... Yuz yetmish yil bo‘lgan emish.. Hali ham bir g‘ishti ko‘chgani yo‘q... Ichiga kirsang, jaranglaydi...

Akasi o‘z gapini yedirolmagach — Qurvonbibi bilan maslahat qilib turib — masalani eshon boboga arz qildi.

Eshon avval:

— So‘fi o‘zi qani? — deb so‘radi. So‘fining akasi:

— Uyda qoldi... Sal tishi og‘ribdi... — dedi.

Eshon kuldi:

— Tishi og‘ribdimi? — dedi. — Bay-bay! Tish og‘rig‘i yomon narsa. Boring, ayting: kaponning burchidagi sartaroshga borsin, ombir solib, darrov olib tashlaydi. Tinchiydi-qoladi... Boring, omin ollohu akbar!

Shu bilan so‘fining akasi noumid bo‘lib, qishlog‘iga ketdi. U otiga otlanib, xayr-ma‘zur qilganda, so‘fi ichkarida “Hikmat” o‘qib yotardi. Lokisini yuziga tutib, darvoza oldigacha Qurvonbibi chiqdi. Uzun yengi bilan ko‘z yoshlarini artib, qishloqi mehmonni uzatdi.

Qurvonbibining yonginasida turib, tiniq ovozi bilan: — “Xayr endi! Adolatxon opamlar kelishsin. Tuhfachani, albatta, olib keling”, deya sayragan Zebi, mehmon ko‘zdan yo‘q bo‘lgach, onasidan so‘radi:

— Nega otam uzatgani chiqmadi? Qurvonbibi kaltagina javob berdi:

— Otangning fe‘li qursin, bolam! — dedi va ichkariga burildi.

Qurvonbibining bundan boshqa tashvishlari ham yetib ortardi.

Mana bu qishloqi mehmonning kelishi yana ortiqcha bir tashvishni qo‘zib ketdi. Chinakam, bechora Qurvonbibi kiyim-kechak, ayniqsa, yolg‘iz qizning sepi xususida ko‘p tashvish tortadi. Shunday tashvishlar ustida, u chidolmay ketib, ba‘zi-ba‘zida so‘figa xarxasha ham qilib ko‘radi. Unday xarxashalarga so‘fining sira tobi yo‘q: “Xudo yetkazadi!” deb, ovozi boricha baqirish bilan javob qiladi.

Qurvonbibi ham odam emasmi — chidolmaydi.

Bir kun u so‘zlanib berdi:

— Xudo yetkazadi, albatta! Shunda ham bandasi harakat qilsa, qimirlasa yetkazadi-da! Xudo “sabab”ni hal qilgan emasmi, axir? Eshonoyim bir kun Eshon so‘fidan o‘qib berib, kasb-korning farzligini aytdilar-ku!

Bu kuyinishlarga Razzoq so‘fi javob ham bermadi. Indamasdan, teskari burilib oldi.

Razzoq so‘fi va Qurvonbibi qanday kishilar? Ularning xarakterlaridagi kontrastlarga e‘tibor bering.

Qurvonbibi so‘zdan to‘xtamay, balki ovozini yana ham ko‘tara tushgan edi, so‘fi o‘zining odatdagi kalta so‘zlaridan bittasini arang og‘zidan chiqardi, lekin chiqarganga yarasha birakay qilib — jahl bilan, baqirib chiqardi:

— Bo‘ldi, deyman, itvachcha!

* * *

Otasi kirib kelganidan keyin Zebining ko‘nglida o‘ynagan iztirob va hayajonlar Razzoq so‘fining “Nima bu qiyomat!” degan qiyomatidan qo‘rqinchliroq edi. Sovuq bir so‘fining nazdida, bu qadar vahimali bo‘lib ko‘ringan oddiy va tabiiy bir bolalik o‘yini qafas darichasining ochilishini kutgan vaqtida darichaga kattakon bir qulf urilayotganini ko‘rgan bir qushning iztirobidan kam bo‘larmidi?

Ikkala qizning, ayniqsa, Zebining ko‘nglidagi iztirob, zotan, so‘fi kirgandan so‘ng avj olishi kerak edi. Chunki, qizlar sho‘xlik va o‘yinga berilib ketib, hamma narsani esdan chiqargan emasmidilar? Qorong‘i qish kunlaridan qolgan dog‘lar, to‘rt devor orasida yashashdan kelgan chiqindilar, otalardan o‘tgan zulmlar, sovchilardan yetgan tashvishlar barham

yemaganmidi? Yoshlikning quvvatli to‘lqinlari ularning barchasini bir bahor yomg‘iri kabi yuvib ketmaganmidi? Shunday o‘rtoqning shunday shirin muomilalari oldida shunday teskari, shunday o‘jar va qaysar otaning borligi ham unutilgan emasmidi? Uyidan “Bir zumda borib kelaman”, deb chiqqan Salti ham bergan va’dasini, uyini va ota-onasini unutib, qo‘lida maymoq va tullagan bir supurgi bilan qolib ketmaganmidi?

G‘aflatda qolganlarning boshiga tushadigan tayoq yomon zil ketadi, deydilar. Bu ikkala qiz o‘yin va sho‘xlik havasi bilan g‘aflatda edilar. So‘fining og‘ir zarbi bilan o‘zlariga kelgach, oldilarida zo‘r bir tog‘ turganini ko‘rib, ixtiyorsiz cho‘chib ketdilar. Bu tog‘dan o‘tish kerak edi, holbuki, bu tog‘ — munaqa yosh bolalar o‘ta oladigan tog‘lardan emasdi. Ikkalasi ham iztirobning bu og‘ir yukini bir-birlarining ko‘zlarida o‘qidilar...

So‘fining baqirishidan so‘ng bir oz shoshib turgach, ular yugurgancha uyga kirdilar va o‘zlarini eshikli derazaning panasiga olib, Razzoq so‘fining harakatlarini kuzata boshladilar. Ko‘zlari so‘fida bo‘lsa, quloqlari Qurvonbibining og‘zida edi. Uning gapiradigan gaplari ularning ko‘ngillarida tugilgan og‘ir va chigal tugunchakni yo echib yuborajak, yoki yana battaroq chigallashtirib, ikki yosh narsani — yana necha oy! — bir-biridan ajratib tashlayajakdi.

So‘fi bular uyga kirib olguncha eshik oldida bo‘zarib-gezarib turdi. Bular uyga kirganlaridan keyin sallasini Qurvonbibiga uzatib, ustidagi malla yaxtagini olisdan turib kartga irg‘itdi va o‘zining oddiy ovozi bilan:

— Qanjiqlar! — deb baqirdi.

— Yosh narsalar o‘ynashsa, nima bo‘libdi? Muncha endi zabtiga oldingiz? — dedi Qurvonbibi.

— Gapirma, eshak!

Qurvonbibi jim bo‘ldi. So‘fi kart tomonga qarab yurdi. Kart ustiga dasturxon yozilib, bir mistovoq non bilan piyolada qiyom qo‘yilgan edi. So‘fi kartga chiqib o‘tirgandan keyin Qurvonbibi o‘choqdan choyni olib keldi.

So‘fining bu avzoyini ko‘rgandan keyin ikki qizning borqadar umidi ham uzilib bo‘ldi. Zebi bu umidsizlikni yashirolmadi:

— O‘ynashmay o‘laylik, endi otam hech qayerga chiqarmaydi...

Salti ham o‘z tashvishini anglatdi:

— Nima qilamiz endi? Siz bormasangiz, men ham bormayman... Enaxon toza koyiydi-da.

— Tek o‘tirgan bo‘lsak ko‘ngli yumsharmidikan? — dedi Zebi.

Salti indamadi. Bir ozdan so‘ng yana o‘zi ilova qildi:

—Ko‘ngli o‘lsin, yumshagan vaqtini ko‘rganim yo‘q! Katta-katta xarsangtoshlarni soy bo‘yiga devlar tashlashgan, deydi... Eng kattasini otamning ko‘kragiga tashlab qo‘yib, “mana shu sening ko‘ngling!” deganmikan, yashshamagurlar!

Bu gap Saltiga ta’sir qildi shekilli, “pix-x” eta kulib yubordi.

Zebining munga chinakam achchig‘i kelgan edi, qo‘lini uzatib, o‘rtog‘ining og‘zini to‘sdi.

— Voy, anovi qizni! Yana besh battar qilasiz ishni! — dedi.

Salti zo‘r bilan o‘zini bosib oldi. Ikkalasi yana — ko‘zlarini miltillatib — chol bilan kampirga tikildilar.

Boyadan beri eriga qarab jim o‘tirgan kampirning endi astagina kulimsirashi bularga jon kirgizdi. “Ko‘rdingizmi?” deganni qilib ikkalasi bir-biriga qarab olishdi.

Chinakam, Qurvonbibi, so‘figa yoqadigan bir so‘z topganday, dadillik va bemalollik bilan kulib turib gap boshladi:

— Men Zebini bir joyga jo‘natib yotirman...

So‘fi bu safar baqirmasa hamki, dag‘al bir ovoz bilan so‘radi:

— Qayerga? Nega?

— Oydinko‘ldagi Xalfa eshonimizning kichik qizlari bir-ikkita o‘rtog‘ini “Bahorlashib ketinglar”, deb chaqirtirgan ekanlar. Shularning bittasi Zebi, yana bittasi uning o‘rtog‘i Saltanatxon ekan. Saltanatxon aravani qo‘shirib qo‘yib, o‘zi Zebini aytgali kelibdi. “Yo‘q”, desak qanday bo‘ladi?

Xotini nima desa, “yo‘q” deydigan so‘fi bu safar birdaniga “yo‘q” demasdan, xayolga ketdi. Qizlar Qurvonbibining bu tadbiridan xursand bo‘lib, yana umidlana boshlagan edilar.

— Qurvon xolam bopladi! — dedi Salti.

— Enam gapga usta. Eshondan tushganini ko‘ring. “Eshon”, desangiz, otam o‘lganini ham bilmaydi... Xudo muni eshonlar uchun yaratgan.

Salti Zebining bu gaplarini eshitgandan keyin so‘fining “xo‘p” deb javob berishiga ishonib ketdi. Bir qo‘lini o‘rtog‘ining bo‘yniga tashlab, uni quchoqlar ekan:

— Bo‘ldi, o‘rtoq, endi! Jo‘naymiz! — dedi.

— Sanamasdan sakkiz demay turing hali! Otam osonlik bilan ma'qul gapga ko'nadigan odam emas. Jim turib qolishini ko'ring: hali ham churq etmaydi.

Sukut uzoqqa cho'zilgandan keyin Qurvonbibi endi bu safar jiddiy bir chehra bilan:

— Nimaga indamaysiz? Xo'p, deng! Katta odam, uyat bo'ladi. Bir yaxshi xotinlari, bir otincha qizlari borki... O'zlarini bo'lsa, o'zingiz bilasiz, — dedi.

So'fi negadir:

— Bilaman, Fitna, bilaman! — deb qo'yib, yana jim bo'ldi.

Endi Qurvonbibi yana ham jiddiylashdi:

— Bo'lmasa, "yo'q", deng. Saltanatxonga javob beray, ketsin! Azonda kelgan edi.

Shundan keyin so'fining tili aylandi:

— Shoshma, Fitna, "yo'q", dema, mayli, bora qolsin... Qachon keladi?

— Indinga erta bilan yo kechqurun.

— Eshon oyimning ra'ylariga qarasin.

So'fi o'rnidan turdi. Kartdan tushib, kavshini kiyarkan:

— Ovozim bor, deb ashulaga zo'r bermasin, — dedi. — Nomahramlarga ovozini eshitdirsa, rozi emasman.

Bu safar odamga o'xshash gapirib, Qurvonbibini quvontirgan Razzoq so'fi shu so'zlardan so'ng yana o'z jimligiga qaytdi. Bir oz so'ngra sallasini kiyib, yaxtagini qo'liga olgandan so'ng:

Yuqorida Cho'lpon Razzoq so'fini kasbi-korining tayini yo'q deb ta'riflagan edi. U nimaning hisobidan yashaydi deb o'ylaysiz?

— Xurjinni ber, Fitna! Bo'lmasa, ikkita qop ber! — deb qoldi. Qurvonbibi qopni uzatarkan, erining qo'liga shu topda bir oz pul tushganini, endi kattaroq xarid qilish uchun bozorga ketayotganini va haligi zo'r iltifotning ham pulning kuchi bilan bo'lganini angladi...

So'fi tomoq qirib eshikdan chiqarkan, uydagi ikki sho'x qiz yana bir-biriga chirmashgan edi.

* * *

Qafasning darichasi ochildi!

Endi qushlarga qanotlarini rostlab turib: “pirr” eta uchmoqdan, keng ko‘klarga, fazolarga parvoz qilmoqdan boshqa narsa qolmadi. Paranjini yopinib o‘tirmasdan, shundoq bosh ustiga tashlab, chimmatni “xo‘ja ko‘rsin”ga tutgan bo‘lib yugurish kerak, xolos...

Faqat unda darichaning ochilganiga kim sevinadi? Shodlikni kim qiladi? Erkinlikning lazzatini kim totiydi? Shu qadar qaysar bir odamni bu qadar ustalik bilan yo‘lga solgan onaning hurmatini, kim o‘rniga keltiradi? Uni kim kuchoqlab, kim o‘padi?

Ikkala qizning uydan yugurib chiqib, bab-barobar Qurvonbibining bo‘yniga osilishlari ana o‘sha ne‘matning shukronasi edi. Qizlar o‘zlarining behad sevinchlarini yuzaga chiqarmoq bilan birga, onaga bo‘lgan minnatdorliklarini ham tegishicha izhor qilmoqqa oshiqardilar. Ular kampirga shu qadar osilib, erkalik qilib, u bilan shu qadar qattiq o‘ynashdilar ki, kampir holdan ketib, kartga dumaladi... Bular qiyqiriq solishib, tobiga kelgan choydoshdek sharaqlashib... kampir bilan o‘ynasharkan, u charchab entikkanidan zo‘rg‘a-zo‘rg‘a nafas olib:

— Bas, qizi qurg‘urlar... bas, deyman, bo‘ldi endi... Yo‘lingdan qolasan!.. — deya so‘zlanardi.

Kampir yolvorgan sari bular avj olishar, biri qo‘yib, biri:

— Shunaqa ekanmi? Voy, tovvo-ey! Xalfa eshonning qizi chaqirtirgan ekanmi? Voy, tovvo-oy... — deb uning eng qitig‘i keladigan joylariga chang solishardi.

Nihoyat, o‘zlari ham o‘lgudek charchab, kampiridan qo‘l tortdilar va “uh!” deb ikkalasi ikki tomonga o‘tirdilar.

Bular taraq-turuq eshik ochib, shoshilib ko‘chaga chiqqan vaqtlarida, paxta zavodining ingichka tovushli jing‘irog‘i soat o‘n ikki bo‘lganini bildirib qichqirardi.



Asarning asosiy obrazlari tizimini tahlil qilamiz:

Zebi

1. Zebining boshqa qizlardan farqlaydigan qanday xususiyatlari bor edi? Asardan Zebiga xos xususiyatlarni topib quyidagi jadvalni to'ldiring.

Harakatlarida	Fikrlashida	Muallif tasvirida	Boshqa qahramonlar munosabatida

2. Zebi fojiasining asosiy sababi nimada deb o'ylaysiz?
3. Tasavvur qiling, Zebini sudda himoya qiluvchi advokatsiz. Zebi himoyasiga nutq tayyorlang.

Miryoqub

1. Romandan Miryoqub tabiatiga xos jihatlarni va ushbu jihatlarga misollarni topib quyidagi jadvalni to'ldiring. Bu obraz haqida o'z xulosangizni bering. Uning o'zbek adabiyotidagi an'anviy obrazlardan farqi nima? Uni "mujaddid" (yangi) tipdagi obraz deya olamizmi?

Miryoqub xarakteriga xos xususiyatlar

Misollar

--	--

2. Miryoqub farzandini o'z onasidan ayirib rus ayoliga berishini to'g'ri deb o'ylaysizmi? Aynan mana shu voqeada Cho'lpon nimaga ishora qilgan?
3. Miryoqub obrazi dinamikasida (rivojida), uning xarakteriga xos xususiyatlarning ochilishida qaysi obrazning ta'siri katta deb o'ylaysiz?
4. Miryoqubning dunyoqarashidagi o'zgarishlarga ta'sir qilgan eng kuchli voqea qaysi deb o'ylaysiz? Uni matndan topib qayta o'qing va o'z fikrlaringizni xulosalang.
5. Siz ham hayotingizda Miryoqub kabi ichki ziddatlarga duch kelganmisiz? Qanday yo'l tutganingizni ayta olasizmi?

Zebi, Miryoqub, Mingboshi

1. Asardagi Zebi, Miryoqub va Mingboshi obrazlaridan nimalarni o'rgandingiz? O'z xulosalaringizni matndagi aniq detallar bilan izohlashga harakat qiling.



MUTOLAADAN SO'NG ...

Asarni tahlil qilamiz:

1. Asarning **epigrafiga** e'tibor bering. Epigrafda keltirilgan maqol asar mohiyati bilan qay darajada bog'liq? Siz qanday epigraf tanlagan bo'lardingiz?
2. "Kecha va kunduz" romani **sarlavhasiga** uchta adekvat (mos) nom toping va o'z tanlovingiz sabablarini badiiy matndan uzoqlashmagan holda tushuntiring.
3. "Kecha va kunduz" romanining qaysi boblari sizda **eng kuchli taassurot** qoldirdi? Nima uchun?
4. Romandan **sabab–natija** zanjirlariga misol bo'ladigan o'rinlarni toping va ular o'rtasidagi bog'liqlikni misollar bilan tushuntiring.
5. Sizningcha, romanning "**Kunduz**" qismi yozilganda u qanday davom etishsa, yana qanday yangi obrazlar ishtirok etishi mumkin edi?



Nazariy bilimlarimizni rivojlantiramiz:

6. Romandan Cho'lpon Akbarali mingboshini birinchi bor kitobxonga tanishtirishdagi **portreti** aks etgan lavhani toping va Cho'lponning portret yaratish mahoratini aniq misollar bilan izohlang
7. Romandagi **ramziy obrazlar va detallarni** toping va ularning badiiy matndagi ahamiyatini misollar bilan tushuntiring.

Asarning multimediya talqini bilan ishlaymiz:

8. Asar asosida O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasida yaratilgan "Zebi Zebona" radiospektaklini tinglang. Radiospektakl ijodkorlari asarning **mohiyatini** ochib berishda radioning imkoniyatlaridan (aktyorlar ovozi, musiqiy bezaklar, shovqinlar) qay darajada unumli foydalanishgan, deb o'ylaysiz?
9. Radiospektakldagi asosiy **obrazilarni** romandagi obrazlar bilan solishtiring.

Nazaringizda, asardagi qaysi obrazlar radiospektalkda to'liq ochib berilgan va qaysilari ochib berilmagan? Nima uchun?

Hayot bilan bog'laymiz:

10. Jadid savdogari tilidan aytilgan “**Ibtidoiy tarbiyani** rus maktablaridan boshlab bo'lmaydi, uni milliy maktablarga berish kerak. O'z millatini tanitgandan keyin rus maktabiga berish kerakki, hunarga, ixtisosga tegishli ilmlarni o'qisin”, degan fikrga sizning munosabatingiz qanday? Uni bugungi kun nuqtai nazaridan ham to'g'ri deya olasizmi? Nima uchun?



10. Sinfdozlaringiz bilan romandagi **hayotiy tajribamiz** uchun muhim bo'lgan, ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar aks etgan o'rinlarni topib quyidagi jadvalni to'ldiring.

Hayot o'g'irlari	Qaysi obrazlar tilidan aytilgan	Bu ta'limot nimani anglatadi
Yiqilgan polvon ham achchig'ini kulib yengadi	Miryoqub va Mingboshi o'rtasidagi suhbatdan	



IJOD QILAMIZ ...

Cho'lponning “Kecha va kunduz” romanida tasvirlangan biror bir voqeani tanlab, bu voqea sizning hayot yo'lingizda qay darajada saboq bo'lganligi haqida yozing. Fikrlaringiz asosida partadoshingiz yoki eng yaqin do'stingizga tavsiyalar bering.



“Kecha va kunduz” asariga illyustratsiyalar